

O'ZBEKISTON

TALABASI

/2026.5 №5 /36/

Prezident

Farmoni
o'zgartirayotgan
faoliyat

Jahon
Chempionatiga
yo'l olgan

“Oq bo‘rilar”

3030-3656



anons

✕ Sun'iy intellekt: insonlarning tafakkuri o'zlashadimi?

Mashina sizning o'ringizga rasm chizadi, she'r yozadi, fikr yuritadi... lekin hech qachon sizning o'ringizga orzu qilmaydi. Asta-sekinlik bilan biz nafaqat ishlashdan, balki savol berishdan, so'rashdan, shubhalanishdan, inkor qilishdan – bir so'z bilan aytganda, tafakkurdan qochyapmiz.

Adolat, shubha va inson tabiati ✕

Agar o'tgan davrda yaratilgan qaysidir asar bugungi kunda ham qiziq va qadrlil tuyulayotgan bo'lsa, demak jamiyat muammolari, insonlarning eskicha fikrlashida yaxshi tomonga o'zgarish bo'lmagan hisob. Siz-u biz yashab turgan jamiyatda ham filmdagiga o'xshash mantiqsizliklar yo'q emas axir.

✕ Oqshom

Metroning N. bekati. Kechgi soat olti. Chekkadagi o'rindiqlarning birida, sumkamni tizzam ustiga qo'yganicha, yarim soatdan beri seni kutyapman. Kechikkuday bo'lsang, zinhor ketib qolmasligimni iltimos qilgansan – bugun ishxonangda maosh beriladigan kun, o'tgan oy olgan qarzingni qaytarish niyatidasan.

"O'zimizni bo'lgan yo'ldaman..." ✕

Men uchun aktyorlik avvalo kasb. Lekin bu kasb oddiy ish emas, u insonning butun hayoti va dunyoqarashi bilan bog'liq. Chunki aktyor sahnada faqat matn aytmaydi – u o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'usi va ruhiyati bilan ishlaydi. Shuning uchun aktyorning qanday inson ekani uning ijodida sezilib turadi.

✕ Chin yashash saodati

Uch yarim yilda mamlakatimizda ham, jahonda ham keskin o'zgarishlar kuzatildi. Ta'bir joiz bo'lsa, biz yashayotgan davr shiddati ortsa ortmoqdaki, susayish bilmayapti. Bu dunyoning ko'hna tegirmoni yuqori bosim bilan ishlashga o'tdi. Shundanmi, biroz tin olib, o'zimizga bir qur nazar tashlashga, qayoqqa qarab ketayotganimizni o'ylab ko'rishga imkon topolmayotgandekmiz.

Bosh axborot hamkorimiz

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O'ZBEKISTON TALABASI

Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko'chasi 14-uy. "Invest Book" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi 12-B uy, 29.05.2026-yilda chop etishga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: @uzb_talabasi

Jamoat kengashi

Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM

Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O'RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub SHAHOIDDINOV
Iqbol QO'SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV

Muassis

"INTEGRATION CENTR
UMID" MCHJ

Direktor

Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir

Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar:

Otash YASHIN
Aziz ABDUMALIK

Jurnal tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner

Rahmatjon YUNUSOV

YOUTH



Mundaraja

PREZIDENT FARMONI O'ZGARTIRAYOTGAN FAOLIYAT	03
OTFIV: MAY SARHISOBI	09
“LAHZANI TUTIB QOL, YASHAB O'T LAHZANI...”	16
SUN'IY INTELEKT: INSONLARNING TAFAKKURI OJIZLASHADIMI?	20
ILHOMLANTIRISH ILINJIDA	24
JAHON CHEMPIONATIGA YO'L OLGAN “OQ BO'RILAR”	26
RANGLAR ORTIDAGI HAYOT	35
ADOLAT, SHUBHA VA INSON TABIATI	44
REKTOR BAXTIYOR MAHKAMOV: “JAMOAVIY FIKR VA OCHIQLIKNING NATIJADORLIKDAGI ULUSHI YUKSAK”	48
OQSHOM	54
GITLERNING REJASINI BARBOD QILGAN 101 O'ZBEK	62
“O'ZIMNIKI BO'LGAN YO'LDAMAN...”	66



J

urnalning nishona sonida mazkur nashr qanday ehtiyojlar sabab dunyo yuzini ko'rayotgani bayon qilindi. Oradan uch yarim yil o'tdi, qo'lingizda 36-son turibdi. Maqsad-u muddaoga qay darajada erishdik, yutug'-u kamchiliklarimiz nimalardan iborat bo'ldi – tahririyatning sarhisobi bor, albatta! Ammo xolis bahoni o'qirmanlar berishi tayin. Shukurki, yillar mobaynida yaxshi e'tiroflarni, jo'yali takliflarni qabul qildik, ko'nglimiz tog'dek o'sdi. Va – yana talabalar, professor o'qituvchilar, qalamkashlar maqolalari, ijod namunalari jurnalimiz sahifalaridan o'rin olishini istab minglab maktublar yo'lladi. Buni jamoamiz uchun yutuq deb bildik, ming qulluq dedik.

CHIN YASHASH SAODATI



Uch yarim yilda mamlakati-mizda ham, jahonda ham keskin o'zgarishlar kuzatildi. Ta'bir joiz bo'lsa, biz yashayotgan davr shiddati ortsa ortmoqdaki, susayish bilmayapti. Bu dunyoning ko'hna tegirmoni yuqori bosim bilan ishlashga o'tdi. Shundanmi, biroz tin olib, o'zimizga bir qur nazar tashlashga, qayoqqa qarab ketayotganimizni o'ylab ko'rishga imkon topolmayotgandekmiz. Pirovardida, ko'zlagan manzili aniq, ahdidada sobitlarga havas bilan boqamiz – qandingni ur!

Vatandan olisga, xorijiy yurtlarga o'qishga ketgan talabalar bizga sof tuyg'ularga yo'g'rilgan maktublar bitishadi, unda qiyos, tahlil, taklif, mulohazalarini bayon qilishadi. Barida ham xalqimiz ilm-u urfon bilan yuksalishi orzusi, bu yo'lda kamarbastalik ishtiyoqi aks etgan. Yurt ichida ham shu maqsad bilan yashayotgan yoniq yurakli yoshlar ko'p. Dolg'ali zamonda mashaqqatlarni yengishga iroda topib, tirikchilik to'rlaridan xalos bo'lib, hayoti mazmunini fidoyilikda ko'rayotgan bu navqiron avlod mamlakatni taraqqiy ettiradi. Shu asnoda tiriklik mohiyatini, chin yashash saodati nima ekanini hammamizga anglatadi.

Jonajon o'qirmanlar va yozarmanlar!

Hamon hamnafaslik baxtidan mahrum emas ekanmiz, ikkinchi choragi dunyoning ko'hna tegirmoniga yuqori bosim berayotgan asrimizning aziz onlarini g'animat bilaylik. Jurnalimiz sahifalarida bedor qalblar gurungi qo'r olsin. Tafakkur va faoliyat uyg'unligi naqadar zururligini har sonda, har bir sahifada bir-birimizga eslatib turaylik!

Gaibrohiyev



PREZIDENT FARMONI O'ZGARTIRAYOTGAN FAOLIYAT

2026

-yil 26-may kuni Prezidentimiz tomonidan PF-98-sonli “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi farmon imzolandi.

Mazkur farmon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo’nalishlari uchun ilg’or yechimlarni yarata oladigan yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish, ilmiy kengashlar faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, izlanuvchilarni tayyorlashda ustuvorlik mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, “O’zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosiga qaratilgan.



Ayrim doktorantlarga bazaviy stipendiyaning 1.7 baravari miqdorida oshirilgan stipendiya to’lanadi

“O’zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo’nalishlaridan kelib chiqib, ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo’nalishlari tasdiqlandi:

- ✔ raqamli va axborot texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar tahlili va raqamli yechimlarni ishlab chiqish;
- ✔ atom va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shu jumladan, vodorod texnologiyalari, energiya tejamkorligi va energiyani saqlash tizimlari;
- ✔ agroinnovatsiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi, urug’chilik, seleksiya, gen texnologiyalari;
- ✔ tibbiyot va biotexnologiyalar, jumladan, biomeditsina, genetika, farmatsevtika, telemeditsina va yuqumli kasalliklarning oldini olish;
- ✔ suv resurslaridan oqilona foydalanish va iqlimga barqarorlikni ta’minlash, jumladan, cho’llanishning oldini olish va iqlim o’zgarishiga moslashish;
- ✔ yangi materiallar va ilg’or ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, nanotexnologiyalar, additiv ishlab chiqarish, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar;
- ✔ seysmik xavfsizlikni ta’minlash.



2026-yil 1-sentabrdan boshlab davlat byudjeti mablag'leri hisobidan tayanch doktorantura va doktoranturada kadrlar tayyorlashda:

⊕ doktoranturaga umumiy qabul kvotasining kamida 60 foizi ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga ajratiladi;

⊕ differensial stipendiya tizimi joriy etilib, ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul qilingan doktorantlarga bazaviy stipendiyaning 1,7 baravari miqdorida oshirilgan stipendiya to'lanadi;

⊕ ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul qilingan doktorantlarga tadqiqot ishida zarur bo'ladigan asbob-uskuna va boshqa tovarlarning xaridi uchun har oy bazaviy stipendiyaning 30 foizi miqdorida qo'shimcha mablag' doktorant tahsil olayotgan oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotga yo'naltiriladi;

⊕ tayanch doktorantura bosqichining birinchi o'quv yilida sohaviy maxsus fanlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozish, statistika va ma'lumotlar tahlili kabi fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi.

✔ Ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul kirish imtihoni o'rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida amalga oshiriladi. Bunda taqdimotga qo'yiladigan talablar oliy ta'lim va ilmiy tashkilot tomonidan mustaqil belgilanadi.

✔ Ilmiy rahbarga doktorantning ixtisosligiga mos fan tarmog'ida ilmiy tadqiqot tajribasiga ega bo'lish talabi joriy etiladi.

✔ Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilishda tegishli fan yo'nalishlarida milliy sertifikatga ega bo'lgan talabgorni mutaxassislik fani bo'yicha imtihondan ozod etib, unga maksimal ball berish tartibi bekor qilinadi.

✔ 2027-yil uchun qabuldan boshlab ilmiy rahbarlik (maslahatchilik) uchun oylik to'lov o'rniga tayanch doktoranturaga qabul qilingan stajyor-tadqiqotchi va o'z vaqtida himoya qilgan doktorant uchun bir martalik rag'batlantiruvchi to'lov to'lanadi. Bunda:

⊕ Xirsh indeksi bo'yicha ko'rsatkichi 5 dan kam bo'lgan ilmiy rahbarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 40 baravarigacha miqdorida;

⊕ Xirsh indeksi bo'yicha ko'rsatkichi 5 dan yuqori bo'lgan ilmiy rahbarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 80 baravarigacha miqdorida to'lanadi.

Ilmiy darajalar uchun chet tilidan imtixon topshirish bekor qilinadi



Farmonga ko'ra, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashda loyihaviy yondashuv joriy etiladi:

✔ Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini amaliy tadqiqot loyihasi doirasida olishni nazarda tutuvchi "Loyiha doirasida ilmiy daraja" dasturi yo'lga qo'yiladi.

✔ Dastur doirasida ilmiy loyihalarni amalga oshirishning quyidagi tartibi o'rnatiladi:

+ Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ustuvor ilmiy ixtisoslilar bo'yicha muddati uch yildan ko'p bo'lmagan tadqiqot loyihalari uchun har yili bir marta tanlov e'lon qilinadi;

+ tadqiqot loyihasida ishtirok etuvchi doktorant loyiha rahbari tomonidan tanlov asosida qabul qilinadi hamda loyiha rahbari bir vaqtning o'zida doktorantning ilmiy rahbari hisoblanadi;

+ doktorant tadqiqot loyihasi bajarilayotgan tashkilotning izlanuvchisi hisoblanadi va unga tayanch doktorantura uchun belgilangan miqdorda stipendiya to'lanadi;

+ tadqiqot loyihasi davrida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilgan tadqiqotchi loyihasining ilmiy hisoboti ekspertizadan o'tkazilmaydi;

+ Dastur ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ajratilgan mablag'lar va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan hisobidan moliyalashtiriladi;

+ Dastur doirasida tayyorlanadigan doktorantlar soni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tayanch doktoranturaga har yili ajratiladigan qabul kvotasini shakllantirishda hisobga olinmaydi.

Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan reytingi past ilmiy kengashlar faoliyati tugatiladi



Farmonga muvofiq ilmiy darajalar berishda 2027-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartiblar bekor qilinadi:

+ chet tili fanidan malakaviy imtihon topshirish, mustaqil izlanuvchilar bundan mustasno;

+ Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya mavzularini ro'yxatdan o'tkazish va dissertatsiya himoyasi to'g'risida e'lon berish;

+ dissertatsiyani yetakchi tashkilotda muhokamadan o'tkazish;

+ ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun tayyorlangan dissertatsiya natijalari yuzasidan monografiya e'lon qilish;

+ dissertatsiya avtoreferatini chop etish;

+ dissertatsiya ilmiy natijasi amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida xulosa olish;

+ Oliy attestatsiya komissiyasining fan tarmoqlari bo'yicha ekspert kengashi tomonidan dissertatsiyani ilmiy ekspertizadan o'tkazish;

+ himoya qilingan dissertatsiya bo'yicha ilmiy kengash qarorini Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlash;

+ ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun jalb qilingan chet ellik fuqaroning xorijda olgan ilmiy darajasi to'g'risidagi hujjatlarini nostrifikatsiya qilish. Bunda ilmiy daraja to'g'risidagi hujjat uning O'zbekistondagi faoliyati davomida to'g'ridan-to'g'ri tan olinadi.



2027-yil 1-yanvarga qadar Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya himoyasi to'g'risida e'lon berilgan va dissertatsiya himoyasini o'tkazgan izlanuvchilarga ilmiy darajalar mazkur Farmon kuchga kirgunga qadar amalda bo'lgan tartibga muvofiq beriladi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlar faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha reyting tizimi joriy etiladi.

Bunda:

- ✓ ilmiy kengashlar tomonidan ma'qullangan dissertatsiyalar tanlov asosida mustaqil, jumladan, xorijiy mutaxassislarning ekspertizasidan o'tkazilib, reyting natijalarida aks ettiriladi;

- ✓ reyting Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan yagona avtomatlashtirilgan elektron axborot portalida reyting mezonlari va baholash natijalarini aks ettirgan holda internet tarmog'i orqali barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq holda yuritiladi;

- ✓ reyting natijalariga ko'ra samaradorligi past bo'lgan ilmiy kengashlarga nisbatan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi choralar qo'llanadi:

- +

ilmiy kengashning raisi va kotibini muayyan muddatga ilmiy kengashlar faoliyatidan chetlashtirish;

- +

ilmiy kengash faoliyatini tugatish;

- +

oliy ta'lim va ilmiy tashkilotda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy kengash tashkil etishni muayyan muddatga cheklash;

- ✓ Oliy attestatsiya komissiyasiga ilmiy kengashlar tomonidan ma'qullangan ilmiy ishlarni tanlov asosida tekshirish va asoslarni ko'rsatgan holda ularning qarorini bekor qilish vakolati beriladi.

Ilmiy kengashlar dissertatsiyalar ekspertizasining xolis va sifatli o'tkazilishi, ilmiy ishlarda ko'chirmachilikni aniqlash hamda qabul qilgan qarorlarining asosligiga mas'ul etib belgilanadi.

Tadqiqot jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb etish tartibi o'rnatiladi.

Unga ko'ra:

- ✓ oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda ilmiy darajali kadrlarni sanoat hamkorlari bilan birgalikda tayyorlash bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi "Amaliy doktorantura (PhD)" dasturi amalga oshiriladi, bunda:

- +

dissertatsiya mavzusi sanoat hamkorining talabidan kelib chiqib belgilanadi hamda doktorantga tadqiqot mavzusiga mos bo'lgan ilmiy va amaliy rahbarlar biriktiriladi;

- +

"Amaliy doktorantura (PhD)" dasturiga izlanuvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilot tomonidan unga ajratilgan Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan tayanch doktorantura qabul kvotasini mustaqil qayta yo'naltirish orqali qabul qilinadi;

- +

doktoranturaga kirish imtihonlarini o'tkazish tartibi sanoat hamkori bilan kelishilgan holda oliy ta'lim va ilmiy tashkilot tomonidan belgilanadi;

Oliy attestatsiya komissiyasi Fanlar akademiyasi tizimiga o'tkaziladi



+ tadqiqot loyihasi sanoat hamkori bilan hamkorlikda moliyalashtiriladi.

Bunda oliy ta'lim va ilmiy tashkilotning majburiyatlari davlat byudjetidan oliy ta'limdan keyingi ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi;

✓ yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlarining foyda solig'i bazasi ularning ilmiy loyihalarni sanoat hamkori sifatida moliyalashtirishga sarflagan mablag'larini 150 foiz miqdorda chegirgan holda aniqlanadi;

✓ ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida yaratilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan foyda ushbu realizatsiya boshlangan kundan boshlab uch yil davomida foyda solig'idan ozod etiladi.

● Oliy attestatsiya komissiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridan Fanlar akademiyasi tizimiga o'tkaziladi.

Endilikda:

✓ Oliy attestatsiya komissiyasi oliy malakali ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi, ilmiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va mazkur sohada davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organ hisoblanadi;

✓ Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy daraja va unvonlarga qo'yiladigan malaka talablarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;

✓ Oliy attestatsiya komissiyasi Fanlar akademiyasiga faqat tashkiliy-boshqaruv jihatidan bo'ysunadi, o'ziga yuklangan vazifalarni kollegiallik asosida Fanlar akademiyasidan to'liq mustaqil holda amalga oshiradi;

✓ Oliy attestatsiya komissiyasining tuzilmasi Fanlar akademiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

✓ Oliy attestatsiya komissiyasi raisi Fanlar akademiyasi prezidenti tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga belgilangan tartibda tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bunda:

+ Oliy attestatsiya komissiyasi raisi 5 yil muddatga tayinlanadi;

+ ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq raislik lavozimiga tayinlanishi mumkin emas;



2026-yil 1-avgustga qadar barcha dissertatsiya himoyasi jarayonlari, jumladan, ilmiy ish va avtoreferatni taqdim etish, retsenzent va opponentlar fikrlarini yuborish, himoya jarayonlarini rejalashtirish va ilmiy ishni baholash jarayonlari yagona onlayn tizim orqali amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Oliy attestatsiya komissiyasi raisi 5 yil muddatga tayinlanadi



OTFIV: MAY SARHISOBI

1 1-may kuni “Toshkent traktor zavodi” MCHJda Toshkent davlat agrar universiteti bilan hamkorlikda agrar soha va muhandislik yo‘nalishidagi oliy ta‘lim tashkilotlari rahbarlari uchun “Agromuhandislik sohasida dual ta‘lim: hamkorlik va ilg‘or tajribalar almashinuvi” mavzusida o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.

Seminarida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov, “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv raisining o‘rinbosari Davron Hidoyatov hamda respublika bo‘yicha 20 ga yaqin oliy ta‘lim tashkilotlari rektorlari va soha mutaxassislari ishtirok etdilar.

Ishtirokchilar dastlab zavod tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari va ularni ishlab chiqarish jarayoni, dunyoga mashhur “Claas” kombaynlari yig‘uv jarayoni va TDAU talabalari uchun yaratilgan dual ta‘lim tizimining amaliy natijalari bilan yaqindan tanishdilar.

E‘tiborli jihati shundaki, ayni paytda zavodda dual ta‘lim asosida tahsil olayotgan talabalarga to‘liq ijtimoiy paket taqdim etilmoqda. Jumladan, bepul transport va issiq tushlik, maxsus forma, 3 million so‘mga yaqin oylik maosh.

Ishtirokchilar tomonidan ushbu ijobiy tajribani boshqa oliygozlarda ham keng joriy etish va dual ta‘lim tizimining istiqbollari muhokama qilindi.

Asosiy tadbirni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov kirish so‘zi bilan ochib berar ekan, agrar ta‘lim tizimida dual ta‘lim modeli o‘z samarasini berayotganini alohida ta‘kidladi.

Seminarida “Toshkent traktor zavodi” MCHJ bilan agrosanoat sohasi uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim tashkilotlari o‘rtasida talabalarni amaliyotga jalb qilish va dual ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

Bunday hamkorlik oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, ularning o‘qishni tamomlagan zahoti tayyor mutaxassis sifatida ish boshlashlarini ta‘minlashga qaratilgan strategik harakatdir.

Kelishuvga ko‘ra, talabalar o‘quv vaqtining bir qismini bevosita zavod sexlarida, zamonaviy texnologiyalar va “Claas” kabi dunyoga mashhur brendlari yig‘uv liniyalari-da o‘tkazadilar. Har bir talabaga ishlab chiqarish jarayonida tajribali muhandis-mutaxassislar murabbiy sifatida biriktiriladi.





Uchrashuv natijasida qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, akademik mobillikni oshirish, kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shma markazlar tashkil etish, Germaniya kompaniyalarini ta'lim jarayoniga keng jalb qilish kabi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, xalqaro mehnat bozoriga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, jumladan Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun kadrlar tayyorlashda ta'lim standartlarini uyg'unlashtirish va til tayyorgarligini kuchaytirish masalalari ham muhokama qilindi. Uchrashuv konstruktiv ruhda o'tib, O'zbekiston va Germaniya o'rtasida ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda ikki tomon uchun manfaatli ekanligi ta'kidlandi.

2

2026-yil 2-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov hamda Germaniya Federativ Respublikasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi parlament davlat kotibi Yoxann Zaaxoff boshchiligidagi delegatsiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Mazkur muloqot Germaniya delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida, jumladan, Samarqand shahrida o'tkazilayotgan Osiyo taraqqiyot bankining 59-yillik yig'ilishi arafasida tashkil etildi. Uchrashuvda ikki davlat o'rtasida oliy ta'lim, fan va ayniqsa, kasbiy ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Vazir ta'lim jarayonlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliy ko'nikmalarga asoslangan o'qitish tizimini joriy etish va "ta'lim-fan-ishlab chiqarish" integratsiyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganini qayd etdi. Uchrashuvda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari alohida o'rin egalladi. Bugungi kunda O'zbekistonda 598 ta texnikum faoliyat yuritib, qariyb 487 ming nafar yoshlar 300 dan ortiq yo'nalishlar bo'yicha tahsil olmoqda. Germaniya mazkur sohada O'zbekistonning muhim strategik hamkorlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Xususan, Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda KfW taraqqiyot banki ishtirokida qator yirik loyihalar amalga oshirilmogda. Jumladan, KfW banki ko'magida kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish loyihasi amalga oshirilmogda. Ushbu tashabbus doirasida ta'lim infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, zamonaviy o'quv-ishlab chiqarish bazalari yaratilmogda. Tomonlar Germaniyaning dual ta'lim tizimi tajribasini O'zbekistonda joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, "Ausbildung" modeli elementlarini tatbiq etish orqali ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanayotganini qayd etdilar.





3 2-may kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov rahbarligida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi "Yangi O'zbekiston" universitetida "Rektorlar maktabi" dasturini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda mazkur qaror asosida "Yangi O'zbekiston" universitetida joriy etilayotgan "Rektorlar maktabi" dasturining mazmun-mohiyati, uni amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar atroflicha muhokama qilindi. Qayd etilganidek, ushbu dastur oliy ta'lim muassasalari uchun zamonaviy, strategik fikrlaydigan, ilmiy va boshqaruv ko'nikmalariga ega rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga qaratilgan. Dastur doirasida tinglovchilar akademik, moliyaviy, innovatsion boshqaruv, sun'iy intellekt va raqamlashtirish yo'nalishlarida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Yig'ilishda dasturga nomzodlarni saralash, o'quv jaryonini samarali tashkil etish, shuningdek, uning natijadorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlanishicha, har yili dasturga 80 nafar tinglovchi qabul qilinishi belgilangan bo'lib, ular orasidan eng yaxshi natija ko'rsatgan 40 nafargacha ishtirokchi xorijiy nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, vazir barcha mas'ullarga qaror ijrosini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash, dastur doirasida tayyorlanadigan kadrlar salohiyatini amalda namoyon etish bo'yicha aniq vazifalar yukladi. Yig'ilish yakunida belgilangan topshiriqlar ijrosini tizimli nazoratga olish va har bir bosqichda aniq natijadorlikka erishish zarurligi ta'kidlandi.



7-may kuni Toshkent davlat transport universitetida "Yoshlar kuni" munosabati bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov talaba-yoshlar hamda Mirobod tumanidan birlashtirilgan yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Muloqotda vazir Qo'ng'irotboy Sharipov davlatimiz rahbarining joriy yilning 24-fevral kuni yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvida belgilab berilgan muhim vazifalarga to'xtaldi. Ta'kidlandiki, bugungi kunda yoshlarni xorijiy tillar va zamonaviy kasbhunarga o'rgatish, ularning istiqbolli startap loyihalarini moliyalashtirish vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Suhbat davomida o'zbekistonlik yoshlarning xalqaro fan olimpiadalari, IT-texnologiyalar va sport maydonlarida erishayotgan tarixiy yutuqlari, shuningdek, yosh tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni alohida e'tirof etildi. Xususan, 14 mingdan ziyod ishtirokchilarni birlashtirgan "Kelajak muhandislari" xalqaro festivali yoshlarni ilm-fan va yuksak texnologiyalar olamiga olib kirishda muhim platformaga aylangani qayd etildi.

So'ng talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar va innovatsion takliflari bilan faol ishtirok etdilar. Xususan, yoshlar tomonidan universitetda robototexnika laboratoriyasini tashkil etish, aviatsiya yo'nalishining boshlang'ich kurslaridayoq maxsus simulyatorlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish hamda "Work and Travel" dasturi doirasida xorijda malaka oshirish tizimini kengaytirish kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Vazir har bir murojaatga ochiq va batafsil javob berib, bildirilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan universitet rektori hamda vazirlik mas'ullariga aniq vazifalar belgilab berdi.

"Bizning asosiy maqsadimiz - har bir yoshning o'z iqtidorini namoyon etishi uchun munosib sharoit yaratish va ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishlariga ko'maklashish", - dedi Qo'ng'irotboy Sharipov.



H YOUTH



5 14-may kuni “O‘zbekiston energetika haftaligi – 2026” doirasida Energetika vazirligi tizim korxonalari hamda oliy ta‘lim muassasalari yoshlari ishtirokida navbatdagi “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi.

Unda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotbay Sharipov hamda Energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov, shuningdek, tizim korxonalari va aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari qatnashdi.

Ochiq muloqot shaklida o‘tgan uchrashuv davomida yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollar, taklif va tashabbuslarini bildirishdi. Ayniqsa, energetika sohasida yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash, ularning kasbiy rivojlanishi, amaliyot va bandlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Tadbirda bildirilgan taklif va tashabbuslar tinglanib, ularni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda tegishli yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha mas‘ul-larga topshiriqlar berildi.

Ta‘kidlanganidek, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot qilish, ularning fikr va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash Energetika vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

6 Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universitetida “Rahbar va yoshlar kuni” doirasida Qo‘ng‘irotbay Sharipov hamda universitet rektori Bahodir Mirzayev ishtirokida talaba-yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

Uchrashuvda yurtimiz oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta‘lim sifati va ilm-fan salohiyatini yuksaltirish, innovatsion muhitni rivojlantirish hamda zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari xususida atroflicha fikr almashildi. Muloqot davomida talabalarning startup va innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, xorijiy tillarni puxta o‘rganish, sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish, ilmiy faollikni oshirish, yoshlar bandligini ta‘minlash kabi dolzarb yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratildi.

Talaba-yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollar, taklif va tashabbuslari bilan faol ishtirok etib, ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar.



7 2026-yil 16-may kuni TDSHU huzuridagi Konfutsiy institutida “Xitoy tili ko’prigi – 2026” xalqaro tanlovi finalchilari va g’oliblarini taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi.

Tadbir doirasida “Ipak yo’li bizni bog’laydi – Men va Xitoy” qisqa metrajli videolar tanlovi g’oliblarini taqdirlash hamda Elchixonada stipendiyalarini topshirish marosimi ham yuqori saviyada tashkil etildi.

Tadbir TDSHU huzuridagi Konfutsiy institutining katta tadbirlar zalida bo’lib o’tdi. Unda xitoy tilini o’rganayotgan iqtidorli talabalar, professor-o’qituvchilar, Xitoy madaniyat markazi hamda hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori I.To’xtasinov ham ishtirok etib, tanlovda yuqori natijalarga erishgan talabalarni samimiy tabrikladi hamda ularning ustozlari va ota-onalariga minnatdorlik bildirdi.

“Xitoy tili ko’prigi – 2026” xalqaro tanlovi O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida TDSHU huzuridagi Konfutsiy instituti, SamDChTI huzuridagi Konfutsiy instituti hamda Xitoy madaniyat markazi hamkorligida tashkil etildi.

Tanlovning dastlabki bosqichlarida respublika bo’yicha 67 nafar talaba ishtirok etdi. Saralash va yarim final bosqichlari yakuniga ko’ra, mamlakatimizning 7 ta yetakchi oliy ta’lim muassasasidan 15 nafar eng iqtidorli talaba final bosqichiga yo’llanma oldi.

O’zDJTU talabalari – GRAN-PRI sohibasi Nafisa Hamidullayeva hamda 1-o’rin sohibasi Shahrizoda Hamroyeva Xitoy Xalq Respublikasida bo’lib o’tadigan XXV Butunjahon “Xitoy tili ko’prigi – 2026” tanlovida O’zbekiston nomidan ishtirok etish huquqini qo’lga kiritdilar.

Ularga Xitoyga 1 oylik safar va musobaqada qatnashish xarajatlari to’liq qoplab beriladi.

Tadbir davomida g’olib va sovrindorlarga diplom, esdalik sovg’alari hamda maxsus Elchixonada stipendiyalari topshirildi. Shuningdek, “Ipak yo’li bizni bog’laydi – Men va Xitoy” videolar tanlovi g’oliblari ham tantanali ravishda taqdirlandi.

Ushbu xalqaro loyiha yoshlar o’rtasida xitoy tilini o’rganishga bo’lgan qiziqishni oshirish, madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.



8 Toshkent shahrida joriy yilning 18-20-may kunlari “Musiqqa ta’limi: jahon miqyosida yagona maydon sari” mavzusida yirik xalqaro forum bo’lib o’tdi. Unda, 200 nafarga yaqin xorijiy va mahalliy ishtirokchilar qatnashdi.

Uch kun davom etgan forumda 20 ga yaqin (Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Xitoy, Koreya, AQSH, Fransiya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Vengriya Tojikiston va Armaniston) davlatlardan nufuzli olimlar, 20 dan ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasalari rektorlari, shuningdek, prorektorlar, professorlar va PhD olimlar, dekanlar, etnomuzikologlar, tadqiqotchilar, madaniyat markazlari rahbarlari, o’qituvchilar, talabalar, shuningdek, OAV vakillari ishtirok etdi.

Mazkur xalqaro forum mamlakatimizda musiqa va madaniyat ta’limini yangi bosqichga olib chiqish, innovatsion va raqamli yondashuvlarni keng joriy etish, xalqaro akademik hamkorlikni mustahkamlash hamda yosh iste’dodlarni qo’llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Forumning ilk kunida “Madaniyat ta’limida sun’iy intellektning ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham tashkil etildi.



Ushbu konferensiyada madaniyat va san'at ta'limi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, o'quv jarayoniga sun'iy intellekt asosidagi kreativ platformalarni musiqa kompozitsiyasi, vizual dizayn va media san'at yo'nalishlarida integratsiya qilish bo'yicha fikr almashildi.

Bundan tashqari, SI orqali milliy musiqa cholg'ularini o'rgatishda avtomatik tovush tahlili, maqom va baxshichilik ijrolarini raqamli arxivlash, teatr merosini virtual formatda saqlash hamda madaniyat ta'limiga ixtisoslashgan interaktiv platformalarni yaratish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Konferensiya yakunida 10 bandan iborat konferensiya rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Xalqaro musiqa ta'limi forumida 20 ga yaqin memorandum imzolandi

“Musiqa ta'limi: jahon miqyosida yagona maydon sari” xalqaro forumi doirasida Turkiy davlatlar, MDH hamda Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyurgan oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida Rektorlar forumi tashkil etildi.

Forumda O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, qo'shma ijodiy loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-uslubiy nashrlar tayyorlash, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda talabalar almashinuvini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir yakunida hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida 20 ga yaqin hamkorlik memorandumlari imzolandi.



Samarqand zaminida yoshlar va ta'lim sohasidagi eng nufuzli tadbirlardan biriga start berdilar. Sammit “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tashabbusi, Harvard Project for Asian and International Relations (HPAIR) va Istiqbolli Ta'lim maktabi hamkorligida tashkil etilgan.

9 18-may kuni Samarqandda Markaziy Osiyoda ilk bor “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida “Orzudan imkoniyatga: Garvard Samarqandda!” shiori ostida Garvard yetakchi yoshlar sammiti o'z ishini boshladi.

Jahonga mashhur Garvard universiteti professori va iqtidorli talabalari qadim



10 Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil” dasturi doirasida oliygohlar professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlarining yurtimizdagi tarixiy muzeylar, muqaddas qadamjolar va diqqatga sazovor maskanlariga tashrifi tashkil etilmoqda.

Navbatdagi sayohatchilar guruhi — qoraqalpog'istonlik talaba-yoshlar poytaxtimizning tarixiy hamda zamonaviy maskanlariga tashrif buyurishdi.

“Toshkent City” hududida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Muloqot chog'ida mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim sifatini oshirish hamda talabalarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish, startap va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy kasb va texnologiyalarni egallashi uchun yaratilayotgan sharoitlarga alohida to'xtalib o'tildi.

Uchrashuv yakunida talabalar tomonidan bildirilgan taklif, tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha yechim va tavsiyalar berildi.

11

2026-yil 21–23-may kunlari Buxoro davlat texnika universiteti-da “Global raqobatbardoshlik uchun O‘zbekiston – Turkiya oliy ta‘lim hamkorligini rivojlantirish” mavzusidagi O‘zbekiston–Turkiya rektorlari IV forumi o‘tkazildi.

Forumning ochilish marosimida Turkiya Respublikasi Oliy ta‘lim kengashi Ijroiya qo‘mitasi a‘zosi, delegatsiya rahbari Erol Arjakliog‘lu, Innovatsion rivojlanish agentligi direktori Asror Norov, Buxoro viloyati hokimi o‘rinbosari Baxtiyor Odilov hamda universitet rektori Sadoqat Siddiqova ishtirok etib, forum qatnashchilarini qutladilar.

Forumda O‘zbekiston va Turkiyaning 60 ga yaqin oliy ta‘lim tashkilotlari rahbarlari, rektorlar, prorektorlar, professor-o‘qituvchilar hamda xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

Buxoro davlat texnika universitetida o‘tkazilgan O‘zbekiston–Turkiya rektorlari IV forumi doirasida plenar sessiya tashkil etildi. Unda ikki mamlakatning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari ishtirok etib, global raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta‘lim sifatini oshirish, innovatsion hamkorlik va akademik integratsiya masalalari yuzasidan ma‘ruzalar taqdim etdilar.

Ma‘ruzalarda zamonaviy oliy ta‘lim tizimida xalqaro hamkorlikning o‘rni, ilm-fan va innovatsiyalar integratsiyasi, qo‘shma ta‘lim dasturlarini kengaytirish, akademik mobillikni rivojlantirish hamda sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Plenar sessiya ishtirokchilari O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari oliy ta‘lim sohasida yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ta‘kidlab, universitetlar o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha fikr almashdilar.

Forum yakunida O‘zbekiston va Turkiya oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida 50 dan ortiq memorandum va hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

Ushbu hujjatlar akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish, qo‘shma ta‘lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish hamda professor-o‘qituvchilar va talabalar mobillicini rivojlantirishga xizmat qiladi.



12

FinTech va EdTech yo‘nallishlari bo‘yicha ideaton va xakatonlar natijasida 227 ta jamoa akseleratsiya bosqichiga saralandi. Dastur doirasida 1 000 nafardan ortiq ishtirokchi, 20 dan ortiq real sanoat muammosi, 25 nafar SQB biznes mentori va 500 million so‘mlik sovrin jamg‘armasi jalb etildi.

Tadbirda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari Sardor Rajabov ham ishtirok etib, mamlakatda innovatsion ekotizimni rivojlantirish, yoshlar startup tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ta‘lim sohasida raqamli yechimlarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanini ta‘kidladi.

Ideaton va xakatonlardan saralangan FinTech hamda EdTech startaplari endilikda 12 haftalik intensiv akseleratsiya dasturida rivojlantiriladi.

Namangan viloyati Norin tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda bo'lib o'tgan so'nggi qo'ng'iroq tadbiri. 25-may. Manba: Norin tuman ixtisoslashtirilgan maktabi

Buyuk Britaniyaning Manchester shahridagi Platt Fields bog'ida Qurbon hayiti namozini o'qishga shaylanayotgan musulmonlar. 27-may. Muallif: Temilade Adelaja



Nyu-York shahridagi Ozodlik haykali ortida ko'rinayotgan to'lin oy. 30-may. Muallif: Lokman Vural Elibol


Indoneziyaning Jakarta chekkasidagi Bogor shahrida Qurbon hayiti arafasida gavjumlashayotgan mol bozori. 21-may. Muallif: Ajeng Dinar Ulfiana

Everest cho'qqisiga chiqayotgan alpinistlarning uzun karvoni. 18-may. Muallif: Purnima Shrestha


tutib qol,

AQSh prezidenti Donald Tramp va Xitoy raisi Si Szinpin Pekindagi Osmon ibodatxonasini ziyorat qilish paytida birga turishibdi. 14-may. Muallif: Evan Vuchchi ↘

Muqaddas Makka shahrida har yili o'tkaziladigan haj ziyoratida masjidul-ul-Haramni tavof qilib, Ka'bani aylanib chiqayotgan ziyoratchilar. 24-may. Muallif: Ibrohim Abu Mustafo ↘



Musulmon ziyoratchilar Saudiya Arabistonining muqaddas Makka shahri tashqarisida, yillik haj ziyorati paytida quyosh chiqishi mahal Rahmat tog'ida duo qilishmoqda. 26-may. Muallif: Ibrohim Abu Mustafo ↘



Oq uyning Janubiy maysazorida ulkan metall arena qad rostlamoqda, u yerda AQSh mustaqilligining 250 yilligi munosabati bilan qafas janglari kechasi bo'lib o'tadi. 27-may. Muallif: Kayli Kuper ↘

yashab o't lahzani..."

Bangladeshdagi Qurbon hayiti arafasida Gabtoli chorva bozorida qop ustida uxlayotgan qizaloq.
27-may.
Muallif: Muhammad Ponir Husayin



Ukrainaning alohida mexanizatsiyalashgan brigadasining artilleriyachisi Donetsk viloyatidagi front chizig'ida Rossiya pozitsiyalariga qarab o'ziyurar gaubitsasidan o'q uzmoqda.
27-may.
Muallif: Anatoli Stefanov

Poyezdning ikki vagoni orasida o'zi va qopini amallab tutib borayotgan bangladeshlik ayol.
11-may.
Muallif: GMB Akash



Italiyalik tennischi Yannik Sinner Fransiya ochiq chempionatida argentinalik Xuan Manuel Serundologa qarshi ikkinchi raunddagi o'yinda tanaffus vaqtida olingan tasvir. Sinner pley-offga chiqishga bir o'yin qolganida hammasi barbod bo'ldi. Setda 5:1 hisobida oldinda bo'lgan Sinner ketma-ket 18 ochko yo'qotdi. U o'zining birinchi Fransiya ochiq chempionligini qo'lga kiritishga harakat qilayotgan edi, bu unga karyerasidagi "Katta dubulg'a"ni taqdim etardi.
28-may.
Muallif: Stefani Lekok



Massachusetts shtatining Kembrij shahridagi Garvard universitetida bo'lib o'tgan 375-bitiruv kechasida ishtirok etayotgan Garvard universiteti politsiya departamentining jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha iti Sasha.
28-may.
Muallif: Taylor Koster

Eronlik juftlik
Tehronda
"Qurbon qilingan
juftlikning to'yi"
deb nomlangan
ommaviy to'y
marosimida harbiy
mashinada yetib
kelmoqda.
18-may.
Muallif: Majid
Asqaripur
↗



Kiyevda
Rossiyaning
Ukrainaga hujumi
paytida raketa
va dron hujumi
sodir bo'lgan joyda
o'tirgan mahalliy
kishi.
24-may.
Muallif: Stringer
↘



Kenyaning
Nayrobi shahrida
global ta'minot
bosimi bilan
bog'liq yoqilg'i
narxlarining
oshishi sababli
jamoat transporti
operatorlarining
ish tashlashi
paytida
namoyishchini
fuqarolik
kiyimidagi
politsiya xodimlari
hibsga olmoqda.
18-may.
Muallif: Tomas
Mukoya
↖



Nyu-York ko'chalaridan birida parvozga
oshiqayotgan ko'plab qushlar yonidan
o'tib ketayotgan erkak.
18-may.
Muallif: Jeena Moon
↖



Kiyim-kechak
reklamasi oldida
uxlayotgan
bangladeshlik
yigit.
11-may.
Muallif: GMB
Akash
↖



SUN'IY INTELEKT:

INSONLARNING TAFAKKURI

O'ZLASHTIRISHIMIZ?

Biz texnologiya rivojlanishi o'zining avj pallasiga chiqayotgan zamonda yashayapmiz. Yuz yillar ilgari odamlar maktub yozish uchun qalamni siyohga botirishi kerak edi. Yozilgan maktub turli yo'llar bilan, haftalab yo'l bosib manzilga yetib borardi. Bugun esa biz bir necha tugma bosish orqali fikrlarimizni boshqa qit'aga soniyalar ichida yetkazamiz. Bu, shubhasiz insoniyat yutug'i hisoblanadi. Ammo har bir qulaylikning salbiy tomoni bor. Sun'iy intellekt texnologiyalari ham kundan-kunga rivojlanib, aql bovar qilmas natijalarni ko'rsatmoqda. Kimdir bu texnologiyani "ChatGPT" deydi, kimdir "Siri" yana kimdir esa "Alisa" va hokazo. Ularning nomi boshqacha, ammo mohiyat bir xil. Bu texnologiyalar insonlarning mehnatini yengillashtirish va samaradorligini oshirish hamda vaqtini tejash

maqsadida ishlab chiqilgan. Ilgari biror mavzuni o'rganish uchun soatlab kitob varaqlash kerak bo'lardi. Bugun esa "qisqacha tushuntirib ber", "xulosa chiqarib ber", "shu mavzuda 500 so'zli insho yoz" – deyishning o'zi kifoya. Aql ishlatish, tafakkur qilish, izlanish kabi xususiyatlar esa borgan sari fon ostiga o'tib boryapti.

Bugun ayrim talabalar vazifalarni bajarishda fikrlamaydi, ijod qilmaydi, faqat topshiriqni yechish haqida o'ylaydi. Ayrim o'qituvchilar esa dars rejasini tuzayotganda izlanmaydi, faqat ko'rsatkichni to'ldirish haqida



lashtirish orqali insonning strategik va ijodiy fikrlashiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. Biroq SI'dan noto'g'ri foydalanish, masalan, faqat tayyor javoblarga tayanish, mustaqil tahlil va izlanishdan voz kechish insonning fikrlash salohiyatini zaiflashtirishi mumkin. Umumiy qilib aytganda sun'iy intellekt talablarni fikrlashdan qoldirmaydi. Aksincha, uni qanday maqsadda va qanday uslubda ishlatish fikrlashga ta'sir qilishi mumkin. Texnologiyadan ongli va maqsadli foydalanish fikr salohiyatini rivojlantiradi. Buning uchun SI'dan to'g'ri foydalanishga doir talabalarga tushuntirish kurslari o'tish lozim" - deydi mutaxassis.

o'ylaydi. Bu dangasalik emasmi? Dangasalik faqat jismoniy mehnatdan qochish emas, bu fikrlashdan qochishdir. Bugungi kunda esa aynan fikrlash mehnatining o'rnini sun'iy tizimlar egallamoqda. Sun'iy intellekt faqat savolga javoblarni emas, ijodni ham "sodda yo'l" bilan taqdim etadi. U rasm chizadi, she'r yozadi, musiqa yaratadi. Odamlar esa bu "qulayliklar"dan doimiy ravishda foydalanib boradi. Ammo ijod insoniyatning eng chuqur, eng noyob qobiliyatlaridan biridir. Uni mashina zimmasiga topshirish bu nafaqat dangasalik, balki o'zligimizdan kechish hisoblanadi. Mashina sizning o'ringizga rasm chizadi, she'r yozadi, fikr yuritadi... lekin hech qachon sizning o'ringizga orzu qilmaydi. Asta-sekinlik bilan biz nafaqat ishlashdan, balki savol berishdan, so'rashdan, shubhalanishdan, inkor qilishdan, bir so'z bilan aytganda, tafakkurdan qochyapmiz. Har qanday savolga javob bor, har qanday fikrga dalil topiladi. Ammo bu dalillar orasida ongli tanlov bormi? Inson miyasi bu - mushak. Uni ishlatmasangiz, u zaiflashadi. Bugun inson fikrlashni texnologiyaga topshirayotgani, o'z tafakkur mushagini zaiflashtirayotgani ayni haqiqatdir.

"Sun'iy intellekt inson hayotini yengillashtiruvchi, ko'plab sohalarida yordamchi bo'lib xizmat qilayotgan texnologiya. Uning ijobiy yoki salbiy ta'siri esa odamning undan qanday foydalanishiga bog'liq. To'g'ri yondashilsa, SI inson tafakkurini cheklamaydi, aksincha, yangi g'oyalar yaratishda, murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Takrorlanuvchi ishlarni avtomat-

Shu bilan birga, bu texnologiyalarni to'g'ri ishlatganlar har tomonlama foyda ko'radi. Tizimni boshqarayotgan, unga buyruq berayotgan, tanlov qilayotgan ongli insonlar sun'iy intellektni vosita sifatida ishlatib, o'z darajasini oshiradi. Loqayd, tayyor mahsulotga tobelikda yashayotgan insonlar esa fikrlash o'rniga, o'zini xuddi texnikaning qaramligidan xoli insondek his qiladi. Sun'iy intellekt bu - texnologiya. Har qanday texnologiya kabi u ham inson xizmatida bo'ladi. Lekin inson uni qanday ishlatishini o'zi mustaqil belgilaydi.

Hozirgi zamonning eng yirik paradokslaridan biri shuki, insoniyat tafakkur mevasining eng yuqori cho'qqisiga chiqqani sayin, uning o'zi tafakkurdan voz kechishga moyil bo'lib bormoqda. Bunga eng yaqqol misol - sun'iy intellektning kundalik hayotimizga ildiz otgan holati, uning sezdirmay inson o'rnini egallayotgan roli. Bir qarashda bu qulaylik, yengillik, vaqt tejash, resurslarni optimallashtirishdek tuyuladi.

**"Topaman-ku
baribir" illati
miyada
paydo bo'lmoqda**

Ammo bu bir qancha bahsli savollarni yuzaga chiqarmoqda. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, inson ongining faolligi sun'iy intellekt vositalari bilan bevosita bog'liq holda susaymoqda. Masalan, Minnesota universiteti olimlari olib borgan tadqiqotda ishtirokchilar ikki guruhga bo'linib, muammolarni yechishda mustaqil fikrlash va SI yordamidan foydalandi. Natijada SI dan foydalanganlar masalani tezroq bajargan bo'lsa-da, keyingi o'xshash topshiriqlarda mustaqil fikrlash qobiliyatlari ancha zaiflashgani aniqlandi. Bu esa sun'iy intellekt muammoni yechishi mumkin, lekin fikrlashni o'rgatmaydi degan fikrni mustahkamladi. Yana bir qiziqarli dalil "Google effekti" deb nom olgan hodisada namoyon bo'ldi. Tadqiqotchilar (Sparrow va boshqalar) fikriga ko'ra, inson miyasi nimanidir internetda mavjud deb bilsa, uni eslab qolishga intilmaydi. Ya'ni, xotiramiz ham "qulaylik"dan erkalikka o'rgan-yapti. Eslab qolmaslik, eslatmaga tayanish, mustaqil fikrlash o'rniga "topaman-ku baribir" degan osonlik illati miyada paydo bo'lmoqda. Bu holat

faqat shaxsiy hayot bilan cheklanib qolmaydi. MIT Sloan Review tomonidan yirik kompaniyalar orasida o'tkazilgan tadqiqotda ishchilarning SI bilan ishlash tajribalari o'rganildi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish samaradorligi oshdi, ammo ijodiy fikrlash va tashabbus ko'rsatish darajasi pasaydi. Xodimlar o'zlarini kerakmas his qila boshlashdi. Negaki, endi g'oya kerak emas, faqat buyruq va algoritim jarayonni nazorat qiladi.

"Sun'iy intellekt mavzularni chuqur o'rganish, murakkab mavzularni soddalashtirib tushunish va mustaqil bilim izlashga yordam beradi. Masalan, uning yordamida dars bo'yicha qo'shimcha manba, til o'rganish vositalari, hatto individual dars rejaları olish mumkin. Bu esa ta'limni erkin, qulay va tezkor qiladi. Sun'iy intellekt insonlarni fikrlashdan qoldiradi degan fikrga kelsak, bu texnologiyadan qanday foydalanishga bog'liq deb o'ylayman. Agar u faqat tayyor javob manbai sifatida ishlatilsa, albatta, fikrlash darajasi sustlashadi. Ammo savol berish, tahlil qilish va xulosa chiqarish vositasi sifatida qaralsa, fikrlashni rivojlantiradi" - deydi suhbatdosh talaba.

Nevrologik jihatdan esa, inson miyasi "kognitiv mushak" sifatida ish tutadi. Uni doimiy ravishda mashq qildirib turmasak, zaiflashadi. 2023-yildagi tadqiqotda sun'iy intellekt modellarini ko'p ishlatadiganlar murakkab tafakkur talab qiluvchi vazifalarda qiynalayotgani aniqlandi. 2024-yilda esa

Insonlar tobora sun'iy intellektga qaram bo'lib bormoqda

bu ko'rsatgicha yanada oshib, insonlarning tafakkur qilish darajasi pasayganligi aniqlangan. Ta'lim sohasida ham holat shubhasiz jiddiy. Bugun ko'pchilik talabalar sun'iy intellekt modellariga "najotkor" sifatida qaraydi. Topshiriqlar, vazifalar va jamiki mashg'ulotlarni sun'iy intellekt orqali bajarib, mavzuga doir o'zining qarashlarini bir chetga surib qo'ymoqda. Hatto eng achinarlisi, ayrim ustozlar ham talabalar uchun mo'ljallangan topshiriqlarni sun'iy intellekt yordamida tuzib beradi. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: "Biz sun'iy intellektni boshqaryabmizmi yoki u bizni?"

Sun'iy intellekt mavzusi bugunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Katta texnologik gigant kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan modellar insonlarning ish o'rnini egallashi hatto inson omilini butunlay yo'q qilishi taxmin qilinadi. Ana shunday qiyin bir jarayonda insonlarning sun'iy intellektga muhim qarorlarni qabul qilishda suyanishi, ba'zi holatlarda butunlay uning zimmasiga yuklab qo'yishi kishini o'ylantirib qo'yadi. "Sun'iy intellekt





Agar biz sun'iy intellektni maqsad emas, vosita sifatida qabul qilsak, unga bizni fikrlashdan ozod qiladigan emas, fikrlashni chuqurlashtiradigan omil sifatida qaralsa, demak bu texnologiyadan samarali foydalana olamiz. U holda sun'iy intellekt insonni zaif emas, aksincha kuchliroq, maqsadlariga tezroq yetuvchi, ilmda va ijodda samaraliroq qilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt insoniyat uchun xavf emas, imkoniyatdir. Ammo har qanday imkoniyat kabi u ham me'yor va mas'uliyatni talab qiladi. Inson tafakkuri sun'iy intellektdan ustundir. Ana shu ustunlikni asrash, saqlash va yanada mustahkamlash esa bizning eng muhim vazifamizdir.

insonlarni fikrlashdan qoldiradimi?" savoli bilan mutaxassisga yuzlandik:

"Sun'iy intellekt insonning mehnatini osonlashtirish uchun ishlab chiqarilganini ta'kidlash lozim. Bugun biz foydalanayotgan modellarning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Endilikda modellar imkonsiz deb baholangan vazifalarni ham bajarmoqda. Bu uning rivojlanayotganidan darak beradi. Ammo insonlar tobora sun'iy intellektga qaram bo'lib bormoqda. Bu asosan yosh qatlamga tegishli. Eng oddiy masalalarni ham sun'iy intellekt orqali bajarish va kundalik hayotda me'yordan ortiq foydalanish, albatta, fikrlash qobiliyatining pasayishini keltirib chiqaradi. Har qanday ishda ishda me'yor bo'lgani kabi sun'iy intellektdan foydalanishda ham me'yorga rioya qilish kerak. Aks holda bu jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin".

Zamon bizdan faqat mehnat emas, fikrlash uslubimizni ham o'zgartirishni talab qilmoqda. Sun'iy intellekt o'zgarishlar ichida eng chuqur iz qoldirayotgan hodisalardan biridir. U inson tafakkurining mahsuli, aql bilan yaratilgan, ammo o'z aqlimizni sinovga solayotgan vosita sifatida maydonga chiqdi. Bu vosita shunchaki algoritmlar yig'indisi emas, aksincha, taraqqiyot yo'lida insoniyat qo'lga kiritgan eng kuchli qurollardan biridir. Sun'iy intellekt insonni dangasa qilmaydi. Inson o'z tafakkurini unga topshirib qo'ysa, fikrlashga erinishni odat qilsa, natijada tafakkur faoliyatida susayish yuzaga kelishi mumkin. Ammo bu holat sun'iy intellektning o'ziga emas, balki inson undan qanday foydalanayotganiga bog'liqdir. Shunday ekan, masala bu texnologiya-ning borligida emas, balki uni boshqaruvchi ongning yetukligidir.

Muammo texnologiyada emas, uning boshqaruvchisida



Otabek MUZAFFARZODA

ILHOMILANTIRISH ILINJIDA

Bugungi global kitobxonlik maydonida har bir yangi asar nafaqat ijodiy mahsulot, balki muallifning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ichki falsafasining ifodasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Traces of the Heart” zamonaviy yoshlar orasida o‘ziga xos o‘rin egallab borayotgan asarlardan biridir.

Ushbu kitob bugungi kunda xalqaro nashr jaryoniga kirgan, keng auditoriyaga mo‘ljallangan asar sifatida shakllanmoqda. U Amerika va Hindiston nashriyot tizimlarida ko‘rib chiqilmoqda hamda dunyoning yirik kitob savdo platformalari orqali global o‘quvchilarga yetkazish bosqichida turibdi.

Muallif va uning akademik yo‘li

Asar muallifi – **Sarvinoz Jo‘rayeva Alijon qizi**. U hozirda Londonda joylashgan **University of Greenwich** universitetida **Law (huquq) yo‘nalishida tahsil olmoqda**.

Sarvinoz nafaqat akademik sohada, balki ijodiy va ilmiy yo‘nalishda ham faol yosh mualliflardan biridir. Uning maqolalari bugungi kunga qadar **dunyoning 7 dan ortiq mamlakatida turli xalqaro platformalar va ilmiy jurnallarda chop etilgan**. Bu esa uning fikrlash doirasi keng, global muhitga moslashgan va xalqaro maydonda o‘z ovozigacha ega ijodkor ekanini ko‘rsatadi.

Muallifning akademik huquqiy bilimlari va ijodiy qarashlari uyg‘unlashgan holda “Traces of the Heart” asarining shakllanishiga zamin yaratgan.

Ichki kuch va inson rivoji

“Traces of the Heart” zamonaviy yosh kitobxon uchun yo'naltirilgan motivatsion va psixologik ruhga ega adabiy asar hisoblanadi. Kitobning asosiy maqsadi – insonni ichki jihatdan qo'llab-quvvatlash, unga hayotiy ishonch berish va o'z yo'lini topish jarayonida ilhomlantirishdir.

Asarda markaziy o'rin egallagan tushunchalar quyidagilardan iborat:

ishonch va o'ziga ishonchni shakllantirish;
umid va yangi imkoniyatlarni ko'ra olish;
hayotiy qiyinchiliklarda sabr va bardosh;
ichki rivojlanish va o'zini anglash;
motivatsiya va maqsad sari harakat;
ruhiy barqarorlik va ichki tinchlik.

Bu elementlar kitobni oddiy badiiy matndan ko'ra ko'proq – **hayotiy yo'riqnoma va emotsional qo'llanma** darajasiga olib chiqadi.

Asar o'quvchini tashqi dunyodan ko'ra ichki dunyosiga qarashga, o'z his-tuyg'ularini tushunishga va hayotiy yo'lini ongli ravishda tanlashga undaydi.


Zamonaviy yoshlar uchun dolzarblik

Bugungi yoshlar tez o'zgarayotgan global muhitda yashamoqda. Stress, bosim, raqobat va kelajak noaniqligi ko'plab yoshlar uchun ichki savollarni yuzaga keltiradi. “Traces of the Heart” ana shu muhitda o'quvchiga ruhiy tayanch vazifasini bajaradi.

Kitob yosh kitobxonga shuni eslatadi:

qiyinchiliklar vaqtinchalik;
har bir inson o'z yo'lini topa oladi;
ichki kuch har qanday tashqi to'siqdan ustun;
eng muhim narsa – o'ziga ishonchni yo'qotmaslik.


Shu jihatdan asar faqat adabiy emas, balki **psixologik va motivatsion ahamiyatga ega matn** sifatida ham qaralishi mumkin.



Xalqaro nashr

“Traces of the Heart”ning xalqaro nashr jarayoniga kirishi uning global noshirlik maydonidagi o'rnini mustahkamlovchi muhim bosqichdir. Kitobning Amazon va Barnes & Noble kabi yirik platformalarda taqdim etilishi uning keng auditoriyaga yo'naltirilganini va professional nashr standartlariga mos ekanini ko'rsatadi.

Bu jarayon adabiyotning geografik va madaniy chegaralardan mustaqilligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki insoniy hislar va ichki tajribalar universal bo'lib, ular turli millat vakillari uchun birdek tushunarli va yaqin bo'lishi mumkin.



Xulosa

“Traces of the Heart” yosh avlod uchun ilhom, ishonch va ichki kuch manbai bo'lgan asardir. Muallif Sarvinor Jo'rayeva Alijon qizining ushbu kitobi uning akademik bilimlari va ijodiy qarashlari uyg'unlashgan holda shakllangan global loyihadir.

Asarning xalqaro maydonga chiqishi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kitobxonlik endi chegaralar bilan emas, balki g'oya, his va insoniylik bilan o'lchanadi.

G'olib HAYDAROV



JAHON CHEMPIONATIGA YO'L OLGAN

“OQ BO‘RILAR”



2026-yilgi Jahon Chempionati o‘yinlariga O‘zbekiston milliy terma jamoasining 26 nafar futbolchisi tanlab olindi. Fabio Kannavaro boshchiligidagi “Oq bo‘rilar”ni dastlabki guruh bosqichida Portugaliya, Kongo DR va Kolumbiya terma jamoalari bilan o‘yinlar kutib turibdi. Quyida O‘zbekiston terma jamoasi takibidagi futbolchilar bilan qisqacha tanishib olish mumkin.

DARVOZA- BONILAR



O'tkir Yusupov. 1991-yil 4-yanvarda Qozog'istonning Sayram tumanida tug'ilgan. O'tkir Namanganning "Navbahor" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasi asosiy darvozaboni. Bo'yi 1,85 m. O'tkir Yusupov kattalar safida debyut o'yinlarini 2012-yildan "Mash'al" safida boshlagan. 2014-2016-yillarda esa "Nasaf" darvozasiga posbonlik qildi. 2016-2018-yillar u faoliyatini Farg'onaning "Neftchi" klubida davom ettirdi.

2018-yil "Qo'qon-1912", 2019-yilda esa "Navbahor"da mahorat ko'rsatdi. 2024-2026-yillarda Eronning "Foolad" jamoasi safida o'ynagan O'tkir tag'in Navbahorga qaytadi. Yusupov 2023-yilgi Qatarda o'tkazilgan AFC Osiyo kubogida asosiy darvozabon sifatida ishtirok etgan va 5 ta o'yinda o'ynagan. U 2025-yil 6-iyunda "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Transfermarkt futbolchining taxminiy bozor bahosini 500 ming yevro etib belgilagan (Bu haqiqiy transfer summasidan yuqori ham, past ham bo'lishi mumkin). Oxirgi marta Yusupov Eron klubiga 300 ming yevroga transfer qilingan edi. U Erondan qaytib kelishini "Jahon chempionatiga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rib, yaxshi formada borish uchun" deya izohlagan.

Botirali Ergashev. 1995-yilning 23-iyunida Namanganda tug'ilgan. "Neftchi" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasi darvozaboni. Bo'yi 1,87 m. U turli yillar davomida "Paxtakor", "Navbahor", "Dinamo", "Qo'qon-1912", "OKMK" klublarida darvoza qo'riqlagan. Botirali Ergashev O'zbekiston milliy terma jamoasi safidagi debyut o'yinini 2019-yil 19-mayda Eronga qarshi o'rtoqlik o'yinida o'tkazgan. Unga ham "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni berilgan. "Soccerway" sayti uning taxminiy bozor narxini 397 ming yevro, Transfermarkt esa 500 ming yevro etib belgilagan. Botirali bu yilgi mavsumda darvoza daxlsizligi bo'yicha ham peshqadam bo'lib turibdi - 8 ta "clean sheet".



Abduvohid Ne'matov. 2001-yil 20-martda Jizzaxda tug'ilgan. "Nasaf" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasi darvozaboni. Bo'yi 1,83 m. "Nasaf"da 35, terma jamoada 12-raqam ostida o'ynaydi. 2019-yilning 26-aprel kuni Abduvohid qarshiliklar safida Olmaliqning "OKMK" jamoasiga qarshi professional debyut o'yinini o'tkazgan. "Nasaf" jamoasi bilan birgalikda uch marta O'zbekiston Kubogi sohibi, ikki marta O'zbekiston Superkubogida g'olib bo'lgan. Ne'matov O'zbekiston milliy terma jamoasidagi debyutini 2020-yilning 3-sentabr kuni Tojikistonga qarshi o'rtoqlik o'yinida o'tkazgan, o'shanda O'zbekiston 2:1 hisobida yutgan. Ne'matov 2024-yili Osiyo Kubogining eng yaxshi darvozaboni bo'lgan. U 2025-yil 6-iyunda "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

"RONALDU
RONALDU

BILAN
BILAN

FUTBOLKA
FUTBOLKA

ALMASHAMIZ
ALMASHAMIZ



HIMYOYACHILAR

Abduqodir Husanov. 2004-yilning 29-fevralida Toshkentda tugʻilgan. Angliyaning “Manchester City” klubi va Oʻzbekiston milliy terma jamoasi safida himoyachi sifatida toʻp suradi. Otasi Hikmat Hoshimov ham futbolchi boʻlib, hozirda “Bunyodkor” akademiyasida murabbiy. Abduqodirning oʻzi “Bunyodkor”da 18 yoshgacha boʻlgan yoshlar toifasida oʻynagan.

U faoliyatini 2022-yildan Belarus Respublikasining “Energetik BGU” klubida boshlab, 2023-yili Fransiyaning “Lans”ida davom ettiradi. Abduqodir mashhurlik choʻqqisiga chiqishi 2025-yili Angliyaning “Manchester City” klubiga oʻtishi bilan boshlandi. Oʻshanda uning transfer narxi 40 mln yevro etib belgilangan. Hozirga qadar Husanov hisobida FA Cup, League Cup, AFC U-20 Asian Cup sovrinlari bor.



Farruh Sayfiyev. 1991-yil 17-yanvarda Samarqandda tugʻilgan. Fargʻonaning “Neftchi”, Oʻzbekiston milliy terma jamoasining himoyachisi. Laqabi Fara. Boʻyi 1,83 m. U futboldagi professional faoliyatini 2012-yildan “Nasaf” tarkibida boshlagan. Keyin “Paxtakor”, undan keyin “Navbaho” va hozirda “Paxtakor”da toʻp suradi. Farrux “Nasaf” tarkibida Oʻzbekiston kubogi va Superkubogi sohibi boʻlgan. “Paxtakor” bilan bir necha bor Oʻzbekiston chempionati gʻolibi, Oʻzbekiston kubogi, Superkubogi va Liga kubogiga erishgan.

2025-yil “Neftchi” bilan Oʻzbekiston chempionati chempioni boʻldi. Sayfiyevning taxminiy bozor narxi 225 ming yevroni tashkil qiladi. Soʻnggi yillarda futbolchi koʻplab tanqidchilar nishonida boʻlib turibdi. U oʻtgan yili jamoa murabbiyi Fabio Kannavaro haqida fikr aytib, “mashgʻulotlarda u bizga koʻp narsa oʻrgatyapti – toʻp bilan oldinga chiqish, hujumni tuzish, pozitsiyada toʻgʻri turish. Kannavaro oʻzi himoyachi boʻlgani uchun bu borada juda katta tajribasi bor” degan edi.



Hojiakbar Alijonov. 1997-yil 19-aprelda Toshkentda tugʻilgan. Toshkentning “Paxtakor” klubi va milliy terma jamoada oʻng qanot himoyachisi. Oʻyinda oʻng oyoqda ustunlik qiladi. Boʻyi 1,80 m. U 2019-yildan beri terma jamoa safida. Alijonov butun faoliyati davomida “Paxtakor” sharafini

himoya qilib kelayotgan sodiq futbolchilardan biri. U shu kungacha klub safida 150 martadan ortiq maydonga tushib, jami 8 ta gol kiritgan. Hojiakbar 2019-yil 7-iyun kuni KXDRga qarshi oʻrtoqlik uchrashuvida milliy terma jamoadagi ilk oʻyinini oʻtkazgan. U milliy terma jamoa safida gol urgan 107-futbolchi sifatida tarixga kirgan. 2025-yil noyabr oyida urgan goli uchun “Eng chiroyli gol” muallifi deb topilgan. 2025-yilda MOFA millatlar kubogi sohibi boʻlgan. “Paxtakor” bilan bir necha bor Superliga va Oʻzbekiston va Liga kubogini qoʻlga kiritgan. Klub bilan 2027-yil oxirigacha shartnomasi bor. 2026-yil boshida Eronning “Persepolis” klubiga oʻtishi kutilgan edi, moliyaviy kelishmovchiliklar sabab bu transfer amalga oshmay qolgan. Transfermarkt futbolchining taxminiy bozor bahosini 1,30 mln yevro etib belgilagan.





Rustam Ashurmatov. 1996-yil 7-iyulda Farg'onada tug'ilgan. Tehronning "Istiqlol" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasi himoyachisi. Bo'yi 1,82 m. Ashurmatov professional faoliyatni 2015-yilda "Bunyodkor" safida boshlaydi va 5 ta golga mualliflik qiladi. 2018-2022-yillarda Janubiy Koreyaning "Gvanju" va "Gangvon" klublarida to'p surgan Rustam jami uchta gol uradi. Undan keyin 1 yil "Navbahor"da, 2 yil Rossiyaning "Rubin" klubida, va nihoyat 2025-yildan "Istiqlol" safida maydonga tushib keldi. Ashurmatov 2017-yildan buyon futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi o'yinchisi. U O'zbekiston yoshlar terma jamoalari safida 2013-yilgi FIFA U-17 Jahon chempionati, 2015-yilgi FIFA U-20 Jahon chempionatida ishtirok etgan. 2018-yilgi U-23 Osiyo chempionatida 23 yoshgacha bo'lgan futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi bilan so'nggi turnirda g'olib chiqqan va final o'yinida gol urgan. Transfermarkt uning taxminiy bozor narxini 750 ming yevro etib belgilagan. Ashurmatov 2026-yilgi Jahon chempionati haqida bergan intervyusida "Portugaliya, Kolumbiya va Kongo terma jamoalari uchun biz maydonda o'ziga xos "boshog'riq" bo'lishga va kuchli qarshilik ko'rsatishga harakat qilamiz", degan edi.

Abdulla Abdullayev.

1997-yil 1-sentabrda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida tug'ilgan. Birlashgan Arab Amirliklarining "Dibba" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasi himoyachisi. Futbolchi sifatida professional debyutini 2015-yilda "Bunyodkor-2" jamoasida o'tkazgan, "Bunyodkor"ning o'zida 2017-yil. Abdullayev, shuningdek, "OKMK", Amirlikning "Khor Fakkan" klubida va "Paxtakor" safida ham o'ynagan. Futbolchining taxminiy bozor bahosini 500 ming yevro deb aytishadi.



Sherzod Nasrullayev. 1998-yilning 23-iyulida Qashqadaryo viloyati Koson tumanida tug'ilgan. Qarshining "Paxtakor" hamda terma jamoa safida himoyachi sifatida o'ynaydi. Bo'yi 1,80 m. Chap oyoqda yaxshi to'p uzatadi. Sherzod Nasrullayev O'zbekiston U21 jamoasi safida ilk bor 2018-yil 4-sentabrda Tokjistikonga qarshi o'rtoqlik o'yinida debyut qilgan. O'zbekiston U23 jamoasi safida ilk bor 2019-yil 11-oktabrda Janubiy Koreyaga qarshi o'rtoqlik o'yinida ishtirok etgan. Sherzod Nasrullayev O'zbekiston milliy terma jamoasi safida ilk bor 2022-yil 27-yanvarda Janubiy Sudanga qarshi o'rtoqlik o'yinida maydonga tushgan. Nasrullayev bir necha bor O'zbekiston Kubogi va Superkubogi sohibi bo'lgan. Transfermarkt futbolchining taxminiy bahosini 1,20 mln yevro etib belgilagan.



**BAQTRILARGA
RAOIBLARGA
"BOSHOG'RIQ"
BO'LISHGA
HARAKAT
HARAKAT
QILAMIZ!**



Avazbek O'Imasaliyev. 2000-yil 27-martida Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida tug'ilgan. Hozirda Olmaliqning "OKMK" klubi va milliy terma jamoa himoyachisi. Bo'yi 1,85 m. U faoliyati davomida "Neftchi", "Lokomotiv", "Bunyodkor" klublarida ham to'p surgan. Avazbek dastlabki sovrini - O'zbekiston Superkubogini 2019-yilgi "Lokomotiv" safida qo'lga kiritgan. O'Imasaliyev 2025-yilda O'zbekiston milliy futbol terma jamoasiga chaqirilgan. 2025-yilgi MOFA Millatlar Kubogida debyut qilgan. U joriy mavsum Superligada 1 ta, shu kungacha 15 ta gol urgan qayd etilgan.



Jahongir O'rozov. 2004-yil 18-yanvar kuni Jizzaxda tug'ilgan. Bo'yi 1,90 m. Jahongir 2024-yil avgustidan "Dinamo" himoyasida bo'lib kelyapti. Ungacha futbolchi 2022-2023-yillarda "Bunyodkor"da, 2023-2024-yillar oralig'ida Turkiyaning "Eyupspor" (Bunyodkordan 300 ming yevroga sotilgan) safida to'p surgan. 2024-yilgi mavsum yozgi transfer kunlarida "Eyupspor" Jahongirni yetarli o'yin amaliyotiga ega bo'lmayotganligi sababli Samarqandning "Dinamo" jamoasi ijaraga bergan, degan gaplar ham bor. Jahongir O'rozov 2023-yili AFC U-20 Osiyo kubogi chempioni va Turkiya Birinchi ligasi g'olibi ham bo'lgan.



Behruz Karimov. 2007-yil 7-avgustda Namangan viloyati Kosonsoy tumanida tug'ilgan. Hozirda Termizning "Surxon" klubi himoyachisi. Bo'yi 1,79 m. Faoliyatini 2024-yili O'zbekiston Superligasining "Olimpik" klubida boshlagan. 2025-yilda "Surxon" klubiga o'tgan. Karimov 2026-yil mart oyida O'zbekiston terma jamoasiga chaqirilgan. U 2025-yilgi mavsumda "Surxon" tarkibida "Andijon"ga 2 ta, "Neftchi" darvozasiga 1 ta gol kiritgan.

YARIM HIMOYA-CHILAR



Akmal Mozgovoy. 1999-yil 2-aprelda Qarshida tug'ilgan. Abu-Dabining "Paxtakor" klubi va O'zbekiston milliy terma jamoasida yarim himoyachi pozitsiyasida o'ynaydi. Futbolchi 2018-2025-yillar "Nasaf" safida o'ynab, 16 ta (UZPFL ma'lumoti) golga mualliflik qilgan. 2025-2026-yillarda Amirliklarning "Baniyas" klubida o'ynab, 11 marta maydonga tushgan. Mozgovoy bir necha bor O'zbekiston Kubogi, Superligasi va Superkubogi sohibi bo'lgan. Joriy mavsumda "Dinamo" va "Buxoro"ga qarshi o'yinlarda sariq kartochka olgan. Mozgovoy ham "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirlashgan. Futbolchi "Ronalduga qarshi o'ynash hammaning orzusi. Kolumbiya ham kuchli terma jamoa, tarkibida zo'r o'yinchilar bor. Menimcha, kuchli guruhga tushdik", deya fikr bildirgan edi "K" guruhidagi o'yinlar haqida. U hatto Krishiyanu bilan futbolka almashish istagini ham yashirmagan.

Otabek Shukurov. 1996-yilning 22-iyunida Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida tugʻilgan. Amirliklarning “Baniyas” klubi va Oʻzbekiston milliy terma jamoasi yarim himoyachisi. Boʻyi 1,82 m. 2014-yilda Muborakning “Mashʼal” jamoasi tarkibida professional futboldagi faoliyatini boshlagan. 2014-yilning 21-iyunida “Metallurg Bekobod” jamoasiga qarshi oʻyinda debyut qilgan. Undan keyin Shukurov “Bunyodkor”, “Buxoro”, “Al-Sharjah”, “Fatih Karagumruk”, “Kayserispor” va “Al-Fayha” futbol klublarida toʻp surdi. 2025-yildan beri Otabek “Baniyas”da oʻynamoqda. Futbolchi 2016-yilning 14-fevralida Livanga qarshi oʻyinda Oʻzbekiston milliy terma jamoasida debyut qilgan. Otabek Shukurov Oʻzbekiston respublikasi “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti va “Oʻzbekiston iftixori” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



Jamshid Iskanderov. 1993-yili 16-oktyabrda Urganch shahrida tugʻilgan. Fargʻonaning “Neftchi” klubi va Oʻzbekiston milliy terma jamoasi tarkibida oʻynaydi, ampulasi yarim himoyachi. Jamshid 2011-yilning 28-mayida Oʻzbekiston oliy ligasidagi ilk debyutini Samarqandning “Dinamo” futbol klubi tarkibida boshlagan. Futbolchi 2012-2018-yillarda “Paxtakor”da oʻynadi (20 ta gol), 2019-2020-yillarda “Lokomotiv”da oʻynab, 6 ta gol urdi, 2020-2021-yillarda Janubiy Koreyaning “Seongam” klubida harakat qilib, raqiblari darvozasini ikki bor ishgʻol qildi, 2022-2024-yillarda “Navbahor” safida 18 ta golga mualliflik qildi. Iskanderov 2025-yildan buyon “Neftchi” safida oʻynab kelmoqda. Joriy mavsumda uning hisobiga 2 ta gol yozilgan.



Odiljon Hamrobekov. 1996-yil 13-fevral Naman-gan viloyati Shoʻrqoʻrgʻon shaharchasida tugʻilgan. Eronning “Traktorsozi” klubi va Oʻzbekiston milliy terma jamoasi yarim himoyachisi. Boʻyi 1,78 m.

“Nasaf” klubi tarbiyalanuvchisi. 2019-yilgi mavsumda “Paxtakor” jamoasi Hamrobekovni “Nasaf” jamoasidan ikki yarim milliard soʻmga xarid qiladi. Odiljon futbolchilik faoliyati davomida 2021-yildan Amirliklarning “Shabab Al Ahli” klubida, keyin yana “Paxtakor”da, 2024-yildan “Navbahor”da oʻynadi. Hamrobekov 2025-yildan boshlab to hozirgacha Eronda oʻynab kelayotgan edi. Futbolchi 2018-yilning yanvar oyida Oʻzbekiston U23 terma jamoasi bilan Osiyo chempionatida Osiyo chempioni boʻlgan va musoboqada sheriklariga eng koʻp pas bergan. Oʻshanda u Osiyo chempionatining eng yaxshi futbolchisi deb topilgan. Hamrobekov 2017-yildan Oʻzbekiston terma jamoasi oʻynay boshlagan. Transfermarkt futbolchining taxminiy bozor bahosini 1 mln yevro etib belgilagan.



Dostonbek Hamdamov. 1996-yil 24-iyul kun Toshkent viloyati Bekobod tumanida tug‘ilgan. Hozirda “Paxtakor” klubida o‘ynaydi. O‘ng qanot vingeri va hujumkor himoyachi. Bo‘yi 1,78 m. Dostonbek faoliyati davomida “Bunyodkor” (2012-2018), “Anji Maxachqala” (2018-2019), “Paxtakor” (2019-2021), “Al-Nassr”da to‘p surdi, Shuningdek, Amirliklarning “Hatta” va Qatarining “Al-Sailiya SC” klublarida ijara asosida o‘ynadi. 2013-yil oxirida Hamdamov O‘zbekiston U-17 terma jamoasi bilan Birlashgan Arab Amirliklarida bo‘lib o‘tgan 2013-yil U-17 Jahon chempionatida ishtirok etib, saralashning barcha to‘rtta o‘yinida maydonga tushdi. 2015-yilda Yangi Zelandiyada bo‘lib o‘tgan U-20 Jahon chempionatida qatnashdi. U guruhning birinchi o‘yinida Gondurasga qarshi o‘yinda gol urdi. Dostonbek 2019-yil Qirg‘izistonga qarshi o‘tkazilgan xalqaro o‘rtoqlik o‘yinida 3:1 hisobida g‘alaba qozonib, milliy terma jamoadagi ilk golini kiritgan. Futbolchi 2015-yil Osiyoning eng yaxshi yosh futbolchisi bo‘lgan.



Jaloliddin Masharipov. 1993-yilning 1-sentabrida Urganchda tug‘ilgan. Eronning “Istiqlol” klubi va O‘zbekiston milliy terma jamoasi yarim himoyachisi. Bo‘yi 1,73 m. Masharipov professional faoliyatini Toshkentning “Paxtakor” klubida boshlagan. 2017-yilda ijara asosida Toshkentning “Lokomotiv” klubida o‘ynadi. 2020-yilgi mavsumda O‘zbekistonning eng yaxshi futbolchisi deb topilgan. 2021-yil boshida Saudiya Arabistonining “An-Nassr” klubi bilan shartnoma imzolaydi. Dastlabki yarim yilni BAAning “Shabab Al-Ahli” klubida ijara asosida o‘tkazadi. “An-Nassr”ga Kristianu Ronaldu kelganida Masharipov u bilan birga to‘p surgan ilk o‘zbek futbolchi bo‘ldi. Jaloliddin 2023-yilda Gretsiyaning “Panserraikos” jamoasiga o‘tadi. 2024-yil fevralidan Eronning “Istiqlol” klubi safida to‘p surayotgan edi. Futbolchi 2016-yildan buyon O‘zbekiston milliy terma jamoasida. U ko‘pincha chap qanotdan markazga yorib kirib, xavfli vaziyatlar yaratadi. Masharipov bir necha bor “Paxtakor” va “Lokomotiv” bilan O‘zbekiston chempioni, “An-Nassr” bilan Saudiya Arabistoni vitse-chempioni, shuningdek, BAA Prezidenti kubogi sohibi bo‘ldi. “Kelajakda murabbiy bo‘laman. Faoliyatim davomida ko‘plab mutaxassislar bilan ishladim. Ayrim mutaxassislarni kamsitmaganda ayta olamanki, aqlim ulardan kam emas”, - degan edi Masharipov.



Oston Urunov. 2000-yil 19-dekabrda Navoiyda tug‘ilgan. Eronning “Persepolis” klubi va O‘zbekiston milliy terma jamoasida hujumkor yarim himoyachi sifatida o‘ynaydi. Bo‘yi 1.81 m. Oston “Paxtakor” akademiyasida tahsil olgan. 2018-yilda u O‘zbekiston Superligasining eng yaxshi yosh futbolchisi deb topilgan. 2019-yilgacha “Navbahor”da o‘ynagan Oston 2020-yil boshida Rossiya Premyerligasining “Ufa” klubi bilan shartnoma imzolaydi. O‘shanda uning transfer summasi 200 000 yevroni tashkil qilgan. 2020-yil avgustida 1 mln yevro bilan Moskvaning “Spartak” klubiga o‘tadi. Urunov 2024-yil 7-fevralda Eronning “Persopolis”iga kelib qo‘shilguncha Rossiyaning bir necha klublari safida o‘ynab qoldi. 2025-yil Eron Pro ligasi futbolchilari orasida 2 mln yevro bilan Oston eng qimmat o‘yinchiga aylandi. Oston Urunov O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasidagi debyutini 2019-yil 2-iyun kuni Turkiyaga qarshi o‘rtoqlik o‘yinida o‘tkazgan. U 2022-yil 11-iyun kuni Osiyo Kubogi saralash o‘yinida O‘zbekiston milliy terma jamoasi safidagi ilk golini kiritadi.



Aziz G'aniyev. 1998-yilning 22-fevral kuni Jizzax shahrida tug'ilgan. BAA Pro-ligasining "Al-Bataeh" klubi va O'zbekiston milliy futbol terma jamoasi yarim himoyachisi. Bo'yi 1,80 m. 2014-yilgi mavsumda O'zbekiston chempionatidagi debyutini "Nasaf" tarkibida "Olmaliq"ga qarshi o'yinda o'tkazgan. G'aniyev 2020-2024-yillar Arab Amirliklarining "Shabab Al-Ahli" klubida o'ynagan. Futbolchi 2017-yilning iyulidan 2020-yilning yanvarigacha O'zbekiston U23 safida 24 ta o'yin o'tkazib, 4 ta gol urgan. Aziz G'aniyev 2017-yili Birlashgan Arab Amirliklariga qarshi o'rtoqlik o'yinida O'zbekiston terma jamoasi safida debyut qilgan. Oxirgi marta Transfermarkt uning taxminiy bozor bahosini 2 mln yevro etib belgilagan.



Sherzod Esanov. 2003-yil 1-fevralda Navoiyda tug'ilgan. Markaz yarim himoyachisi. 23 yoshli futbolchi "Buxoro" klubida to'p tepadi. "Buxoro" gacha Esanov "Chig'atoy", "Andijon", "Olimpik", "Akron", "Dinamo Brest" kabi klublar safida ham o'ynab keldi. Sherzod Esanov 2022-yil O'zbekiston Pro ligasi va 2023-yilgi AFC U-20 Osiyo Kubogi g'olibi hisoblanadi. Transfermarkt'da uning bahosi 450 ming yevro. Masalan, 2022-yili "Andijon"daligida bu qiymat 100 ming yevro bo'lgan.

ORZUM
ORZUM

"BARSELONA"
"BARSELONA"DA

O'YNASH
O'YNASH

Abbosbek Fayzullayev. 2003-yil 3-oktabrida Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida tug'ilgan. Istanbulning "Başakşehir" klubi yarim himoyachisi. Bo'yi 1,67 m. Abbasbek 2021-yilgacha "Paxtakor" klubi o'rinbosarlar tarkibida harakat qiladi va 21 ta o'yin o'tkazib, 8 ta gol kiritadi. Shundan so'ng murabbiylar shtabi tomonidan asosiy jamoaga jalb etiladi. Futbolchi 2023-yilda "SSKA Moskva" klubiga 500 ming yevroga transfer qilinadi. Shu yili 24-sentabrda "Rostov"ga qarshi o'yinda klubdagi birinchi golini uradi. Fayzullayev 2021-yil 30-oktabrda Bangladesh U-23 jamoasiga qarshi o'rtoqlik oyiniga terma jamoadagi debyutini o'tkazgan. Abbasbek 2023-yilda jahonning eng yaxshi yosh futbolchisi nomiga ham nomzod bo'lgan. 2024-yilda esa OFK tomonidan erkaklar orasidagi eng yaxshi yosh futbolchi deb topilgandi. 2025-2026-yilgi mavsumda Abbasbekning "Başakşehir"dagi hozirgi natijasi – 20 ta o'yin, 3 ta gol, 3 ta assist va 4 ta sariq kartochka.

Transfermarkt Abbasbekning bahosini 7 mln yevro etib belgilab turibdi. Abbasning orzusi "Barselona"da o'ynash ekanligi sir emas.



Eldor Shomurodov. 1995-yil 29-iyunda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Turkiyaning "Başakşehir" klubi hamda O'zbekiston milliy terma jamoasi hujumchisi. Bo'yi 1,90 m. Eldor 2015-yilda "Mash'al"dan Toshkentning "Bunyodkor" jamoasiga o'tadi. Futbolchi "Bunyodkor" bilan O'zbekiston kubogi finalchisiga aylandi. 2017-yil iyul oyida Shomurodov Rossiyaning "Rostov" klubiga o'tdi. 2019-2020-yilgi mavsumda Eldor Rossiya chempionatining 28 ta uchrashuvida 11 ta gol urdi. 2020-yil oktabrda Shoma Italiyaning "Jenoa" klubi bilan shartnoma imzoladi. 30-noyabrda esa A Seriyaning "Parma" ga qarshi o'yin ikkinchi yarmida "Jenoa"dagi ilk golini uradi. 2021-yil yozida Shomurodov 18 million yevro bilan "Roma"ga transfer qilindi. Dastlabki mavsumda 5 ta gol urdi va UEFA Konferensiyalar Kubogida g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, Shomurodov 2023-2024-yillar oralig'ida "Spezia" va "Cagliari"da ijara asosida o'ynadi. Eldor 2025-yil Italiyaning Roma klubidan Turkiyaning "Başakşehir" klubiga ijara asosida o'tdi va klub uni 2026-yilda to'liq sotib oldi. Eldor Shomurodov O'zbekiston milliy terma jamoasidagi debyut uchrashuvini 2015-yil 3-sentabr kuni Jahon chempionati-2018 saralash turniri doirasidagi Yaman terma jamoasiga qarshi o'yinda o'tkazdi. Parij-2024 Olimpiya o'yinlarida O'zbekistonning ilk golini urgan futbolchi sifatida tarixga kirgan. 2019 va 2021-yilda Eldor O'zbekistonning eng yaxshi futbolchisi deb e'tirof etilgan. Shu bilan birga, u O'zbekiston terma jamoasi tarixidagi eng yaxshi to'purar hisoblanadi.




Igor Sergeyev. 1993-yil 30-aprelda Toshkentda tug'ilgan. Eronning "Persepolis" klubi hujumchisi. Bo'yi 1,85 m. Sergeyev faoliyati davomida "Paxtakor" (2011-2018), Amirliklarning "Al-Dhafra" klubi (2018), "Paxtakor" (2018-2021), Qozog'istonning "Aktobe" (2021) va "Tobol" (2021-2023) klublari, Taylandning "BG Pathum United" (2023-2024) klubi va yana "Paxtakor" (2025-2026) klublarida maydonga faol harakat qildi va 150 taga yaqin gol urdi. Sergeyev 2015 (24 ta gol) va 2025-yilda (20 ta gol) O'zbekiston Superligasi to'purari bo'lgan. Shuningdek, 2025-yilda MOFA millatlar kubogi eng yaxshi to'purari, O'zbekiston kubogi eng yaxshi to'purari, O'zbekiston Superligasi ramziy terma jamoasi a'zosi bo'lgan ham Sergeyevning o'zi. Shu yili uni ham "O'zbekiston iftixori" bilan taqdirlashgan.



Azizbek Omonov. 1997-yil 30-oktabrda Navoiy viloyati Zarafshon tumanida tug'ilgan. Samarqandning "Dinamo" klubida qanot yarim himoyachisi va hujumchisi. Bo'yi 1,73 m. Chap oyoqda yaxshi o'ynaydi. Faoliyati Toshkentning "Lokomotiv" jamoasida boshlangan. Shu kungacha Azizbek Omonov Tehronning "Istiqloq", Qarshining "Nasaf", Amirliklarning "Khor Fakkan", Farg'onaning "Neftchi", Toshkentning "Bunyodkor", Buxoroning "Buxoro" klublari safida maydonga tushdi. Joriy mavsumda Azizbekning hisobida 4 ta qol qayd etilgan. Omonovning bozor narxini Transfermarkt sayti 500 ming yevro deb baholagan. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 700 ming yevrogacha chiqqan edi.





Har bir xalq, har bir millat faqat o'ziga-gina mansub bo'lgan qadimiy urf-odatlarini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish jarayonlarida badiiy san'atning o'rni va mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, taraqqiyotga, barqarorlikka erishishda ma'naviy tafakkurning yuksakligi asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda urf-odalarimizni, qadriyatlarimizni asrab-avaylashda mo'yqalam sohiblarining ham munosib o'rni bor. Ana shunday vatanparvar rassomlardan biri Akmal Nurdir.


Akmal Nur ijodida ishq-muhabbat, vafu va sadoqat asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida ichki tug'yon, atrof-muhitda bo'layotgan munosabatlar, quvonch va anduh bilan bog'liq histuyg'ular, tabiatni sevish, muhabbatli oila, hayotning muqaddasligi keng tasvirlanadi. Uning ijodiy ishlari Shveysariya, Niderlandiya, Germaniya, Belgiya, Italiya, Avstraliya, AQSH, Isroil, Marokash, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston muzeylarida, xususiy kolleksiyalarda saqlanadi. Akmal Nur O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi va akademiya raisi, O'zbekiston xalq rassomi, davlat mukofoti laureati, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibidir. U 2024-yili Yaponiya imperatorining "Chiqayotgan quyosh" ordeni, "Oltin nurli bo'yin tasmasi" ordeni bilan mukofotlangan.

RANGLAR ORTIDAGI HAYOT

“Tasvir va tasavvur” ruknining bu galgi mehmoni Akmal Nur.

Bolalik deganda Yangiqo‘rg‘on tumanidagi qishlog‘imiz yodimga tushadi. Tumanimiz asosan paxta yetishtiriladigan joylardan iborat edi. O‘quv yili boshlanishi bilan paxta terishga chiqardik. Uyimizda 10-15 ta qo‘yimiz bo‘lardi. Darsdan so‘ng, o‘rtoqlarim bilan dalada qo‘y boqardik. Uyga bir etak o‘t bilan qaytardik. Qishlog‘imizdagi katta soydan baliq tutishni yaxshi ko‘rardim. 7-sinfni tugallash arafasida ona tili va adabiyot fani darsidan imtihon topshirishim kerak edi. Ammo erda tongdan o‘rtog‘im bilan baliq ovlashga ketdik. Shunchalik berilib ketibmanki, o‘rtog‘im imtihonga borishimiz kerak, deganiga ham ahamiyat bermabman. U meni kutmay, maktabga ketib qolibdi. Baliqlarning ko‘pligidan zavqlanib o‘tiraveribman. Bir mahal imtihon yodimga tushdi-yu, uyga shoshdim. Qarmoq va baliqlarni uyga tashlab, maktab tomon yugurdim. Borsam, katta zalda 3 ta – “A”, “B” va “V” sinflarni qo‘shib insho yozdirishayotgan ekan. Eshikdan sekingina mo‘ralab, o‘qituvchimga qaradim. O‘qituvchimiz Hakimaxon aya meni ko‘rdi-yu, “Nuriddinov, keldingizmi, nega quruq qo‘l bilan keldingiz? Siz kelsangiz, baliqxo‘rlik qilamizmi, deb ishtaha saqlab o‘tirgandik-ku”, dedilar. Men esa boshimni egib turaverdim...

Mayni eplolmadim, doiradan voz kechdim



Do‘konda juda chiroyli qarmoq ko‘rib qolgandim. Dadamga olib bering, desam, hozir emas, keyinroq, dedilar. Mushuk shaklidagi pul jamg‘aradigan idishimiz bo‘lardi. Shunchalik sotib olgim kelgandan, idishning pul solishga mo‘ljallangan teshigini pichoq bilan kattalashtirib, ichidan ozroq pul olib, do‘konga yugurgandim. Dadam qarmoqni ko‘rib, qayerdan olganimni so‘raganlarida, “Olib bering, desam, olib bermadingiz. Pulni olishga majbur bo‘ldim”, dedim. Otam chuqur xo‘rsinib, “Bu o‘g‘irlik hisoblanadi”, dedilar va men bilan ancha paytgacha ochilib gaplashmadilar...

Ba‘zan o‘ylab qolaman: insonga qo‘yiladigan ism ham taqdirni belgilashi mumkinmi deb. Tug‘ilganim xabarini eshitganida rahmatli buvim radioda Akmalxon va Boboxon Subhonovlarning ashulasini eshitib o‘tirgan bo‘ladi. O‘shanda chaqaloqning ismini Akmal qo‘yinglar, kelajakda san‘atkor bo‘lsin deya niyat qilgan ekan. Rassomlik tuyg‘usi ham qo‘shiq kabi yurakdan oqib chiqmasa, qiyin. Qolaversa, elimizda suyak suradi degan gap ham bor. Otam rahmatli uyda bizga Navoiy g‘azallarini ohangga solib, yod o‘qib berardi. Hatto sakson yoshida ham bu odatini kanda qilgan emas. Uzun tunlari dasturxon boshida o‘tirib, g‘azal tinglardik. Otam hech qachon o‘tirib g‘azal o‘qimagan. U kishining tik oyoqda turganini ko‘rib, xijolat bo‘lib o‘tiring desak ham baribir bilganidan qolmasdi. O‘ylashimcha, bu avvalo ijodga, so‘ngra hazrat Navoiyga yuksak mehrdan bo‘lsa kerak. Hozirgacha otam buncha g‘azalni qanday yodladi ekan deb hayron bo‘laman.

Otamning san'atga qiziqishi ham kuchli edi. Shu ishtiyoq bolamga ham ko'chsin deganmi, yosh bola chog'im menga nay sotib olib berdi. O'sha zamonlar yashash hozirgiday to'kin-sochin bo'lmagan. Oilamizda faqat otam ishlab pul topgan. Katta ro'zg'orning yuki yelkasida bo'lgan. Ya'ni, u kishiga bolasi uchun nay sotib olib berish oson bo'lmagan. Olti bolaning yeb-ichishi, ust-boshidan bir-ikki so'm orttirib, erka farzandiga nay sotib olishi katta jasorat bo'lgan. Nay tufayli oilamizda hech kim och yoki kiyimsiz qolib ketmagan albatta. O'shanda nay chalishni o'rganishga astoydil bel bog'ladim. Asror amakim va u kishining o'g'li Ahror akamga shogird tushdim. Asror amakim o'sha kezlar dutor chalib, qo'shiq aytardi. Ota-bola kaminaga nay chalishni o'rgatish uchun rosa harakat qildi. Ammo xudo yuqtirmasa qiyin ekan, bu ishni eplolmadim. Oradan yana bir qancha vaqt o'tib, otam doira olib keldi. O'zimcha bir muddat taraqa-turuq qilib doira chalayotgan kishi bo'lib yurdim. Ochig'i, ozgina qo'lim kelishganday bo'ldi ham. Baribir professional doirachi bo'lishga ko'zim yetmay, undan ham voz kechdim.

**Kuy
chalsam
xayollarim
bir o'zanga
tushadi**



Yoshim sal ulg'aygach, maxsus musiqa maktabiga qatnay boshladim. U yerda rubob chalishni o'rgandim. Xayriyat, bu ish qo'limdan keldi. Hozir ham dam olish maqsadida unda-bunda rubob chertib turaman. Kuy chalayotganda tutqich bermas xayollarim bir o'zanga tushayotgandek bo'ladi. Bu xotiralarni eslashdan maqsadim shulki, har bir inson musiqa ilmidan ozmi-ko'pmi xabardor bo'lishi lozim. Musiqaga oshno qilgan otamdan bir umr qarzdorman. Illo, musiqa bilan tasviriy san'atni bir-biridan sira ajratib bo'lmaydi. Ular bir-birini to'ldirib turadi. Bir donishmand aytgan ekan – ranglar jilosini eshitish, musiqani ko'ra bilish darkor. Badiiy akademiya tarkibidan musiqani chiqarib yuborishlariga yo'l qo'ymadim. Bu dargohda musiqa ham, rangtasvir ham bo'lishi shart deb hisoblayman.



Rassomlik iste'dodi ham qondan o'tgan bo'lsa kerak deb o'ylayman. Onamning otasi Eshondadaxon bobom rasm chizib turarkan. Bu 1920 – 1930-yillarga tegishli gap. Aslida bobom haydovchilik qilib kun ko'rgan. Ishdan qaytayotib u kishi har kuni mahallamizdagi sandiqchilar rastasini oralab kelarkan. Sandiqchilar esa sandiqqa naqsh solish uchun har xil ranglardan foydalanadi. Ulardan qolgan-qutgan ranglarni bobom so'rab olib, uyga kelgach, karton qog'ozga rasmlar chizarkan. Bobom juda ko'p surat chizgan. Biroq e'tiborsizlik tufayli ko'plari yo'q bo'lib ketgan. Ayrimlari Namanganda bo'lgan suv toshqini mahali oqib ketgan. Bobom chizgan suratlardan faqat bir donasini hamon uyimda saqlayman.

Shu o'rinda bir gapni ma'lumot sifatida aytib o'tishni istardim. Bobom chizgan o'sha surat muhabbat haqida. Uni ko'rgan rassom borki, menga bering deb so'raydi. Nimaga? Chunki mazkur suratda sharqona va haqiqiy o'zbekona ruh balqib turadi. Shu kungacha yaratgan asarlarimning aksariyati muhabbat mavzusida ekanini san'at ixlosmandlari yaxshi biladi. Mana nima uchun bu mavzuga bot-bot murojaat qilaveraman. Chunki bu menga bobomdan qon orqali o'tgan.

Yaxshiyam bizda Xorazm san'ati bor

Bolaligimda doim adabiyot o'qituvchisi bo'lishni orzu qilardim. Rassom bo'lish xayolimga ham kelmagan. Lekin qadrdon o'rtog'im No'monjon bilan maktabimizda tashkil qilingan rasm va naqqoshlik to'garagiga qatnardik. Mashg'ulotlarda ilk ustozim Ibrohim Mamadaliyevdan naqqoshlikning nozik sirlarini o'rganar edim... 14-15 yoshimda o'qituvchi bo'lish niyatidan qaytib, naqqosh bo'laman, degan to'xtamga keldim.

Bilarsiz, ilgari uylar, choyxonalar shifti naqsh bilan bezalar edi. Shundoq bosh ko'tarsangiz, betakror rang va xayol kabi cheksiz buralib ketgan chiziqlar dun-

yosiga oshno bo'lardingiz. Yuqoridan ko'ksingizga go'zallik quyilib turardi. Afsuski, hozir ko'pchilik naqqoshlik san'atining bu yo'nalishi haqida hatto tasavvurga ham ega emas. Ba'zida o'sha davrlarda yashagan odamlar ham bu san'atni allaqachon unutib yubordimikan degan xayollarga boraman. Bu millatimiz uchun katta yo'qotish bo'ldi deb o'ksinaman. Chunki xalq amaliy san'atining betakror turlaridan biri bo'lmish naqshda millatning qalbi mujassam.





Nega deysizmi? O'zbek millatining ko'nglida siniq chiziqlar yo'q. Naqshlarda barcha chiziqlar bir-biri bilan uzviy ravishda go'zal bog'lanib ketadi. Shu holat o'zbekning xarakteriga ham ko'chgan. Kesib gapirmaymiz, shartta hal qilmaymiz... O'ylarimiz, fikrlarimiz bir-biriga ulanib, chirmashib boraveradi. Balki shu fe'limiz sababdir, qiyinchilikni ham, og'ir gaplarni ham ichga yutib ketaveramiz. Bu ishimiz ko'p hollarda foydadan ko'ra zarar keltirishi esa boshqa masala.

Shunday g'amgin o'ylar bosib kelganda o'zinga yaxshiyam biz juda katta xalqmiz, yaxshiyam bizda Xorazm san'ati bor deb tasalli beraman. Xorazm san'ati butkul boshqa falsafa ustiga qurilgan. Unda aniq geometrik shakllar bor va ko'p. Unda go'zallik qalbdagi shiddat, fe'ldagi keskinlik bilan yonma-yon yuradi. Xorazmliklarning fe'li ham shunga mos. Ularning aksariyati dilidagi gapni dangal aytib, masalaga joyida keskin nuqta qo'yadi. Ba'zan ko'pchiligimizga ayni shu xislat yetishmasligi oqibatida ko'p ishlarimiz o'lda-jo'lda qolib ketayotganga o'xshaydi.

Bo'z bola paytim naqqosh bo'laman deb yurgan kezlarimda ko'p vaqtimiz paxta dalasida o'tardi. Yomg'irdan keyin g'o'zaning tagi qotib qolardi. Biz uni qatqaloq, deb atardik. Bir kuni ketmon bilan

**"O'g'lingiz
hayvonlarning
rasmini chizib
yuradimi?"**



g'o'za tagini yumshatayotgan paytimda, o'rtog'im No'monjon yugurib kelib, "Akmal, tez daladan chiq. Birga Toshkentga o'qishga boramiz", dedi. Hayron bo'lib qoldim. Uyga kelsam, shovqin-suron. Onam, "O'g'lim hech qayerga bormaydi, hali yosh bola-ku. Bizdan uzoqda holi qanday kechadi?" deb asabiylashib o'tirgan ekanlar. Otam esa, "Bu o'g'il bola. Xudo xohlarsa, katta odam bo'ladi. Ana, No'monjon ham birga boradi", deya zo'rg'a ko'ndirganlar...

Shunday qilib, otam, men va No'monjon Toshkent tomon yo'l oldik. P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtiga hujjat topshirish vaqtida O'zbekiston xalq rassomi, akademik Nig'mat aka Qo'ziyoyev chizgan rasmlarimdan ayrimlarini ko'rib,

"Sen rangtasvirga topshirasan", dedilar. Maktabdagi ustozim, naqshda bitta chiziqdan chiqmasdan chizish judayam muhim, deya uqtirgandi. Nig'mat aka rasmlardagi aynan shu jihatlarga ahamiyat bergan ekan. Hujjatlarni topshirib, otam bilan tamaddi qilish maqsadida o'qish yaqinidagi oshxonaga kirdik. Yonimizga oppoq kiyingan bir odam kelib, "Ko'rinishingizdan vodiylikka o'xshaysiz. Nima sababdan bu yerda yuribsizlar?", deb so'radi. Otam, "O'g'limni rassom-

likka o'qitmoqchi edim", dedilar. U kishi esa otamga, "Ay-ay, cha-toq ish qilibsiz-ku. Shu ham kasb-mi, o'g'lingiz ertaga kim bo'ladi, hayvonlarning rasmini chizib yuradimi? Undan ko'ra, boshqa bir sohaning egasi bo'lsa bo'lmay-dimi?", degandi. Otam ishonuv-chan odam edilar. Ikkilanib, savol nazari bilan menga qaradilar. Men esa, "Yo'-o'-o'q", deya o'rnimdan turib, oshxonadan chiqib ketdim. Ortimdan chiqqan otam meni ko'ndirishga rosa uringanlar. Lekin men faqatgina shu yerda o'qiyman, deb oyoq tirab olgan-man.

O'qishga qabul imtihonini zo'rg'a "3" bahoga topshirgan-man. O'rtog'im No'monjon esa Toshkentga kelganidan so'ng, fikri o'zgarib qoldi. "Men bu yerda o'qimayman, menga yoqmadi", dedi. Sababini surishtirsam, unga rassomlarning soch-soqol o'stirib yurishlari ma'qul kelmagan ekan. Qanchalik tushuntirishga urin-may, fikrida qat'iy turib oldi. "Yaxshisi, sportchi bo'laman", dedi. Toshkentga kelib o'qishimga sababchi bo'lgan o'rtog'im qish-log'imizga qaytib ketdi. No'mon-jon erkaroq bo'lgani uchunmi, xohishiga qarab ish ko'rardi. Men esa qaytib borishni o'zimga uyat bilganimdan shu yerda o'qishga qat'iy qaror qildim. Shunday iqtidorli bolalar bilan o'qirdimki, ko'pchiligi taniqli rassomlarning farzandi edi. Ularning chizayotgan rasmlari oldida mening chizgan-

"Yaxshisi, boshqa joyda hunar o'rgan"



larim hech narsa emasligini anglaganman. Bir oy o'qiganimdan so'ng, domlamiz meni chetga chaqirib, "Ko'rinishingdan aqlli, tushunadigan bolaga o'xshaysan. Sen bu yerga adashib kiribsan. Yaxshisi, boshqa joyda hunar o'rgansang, yaxshi bo'lardi...", dedi. Nima qilishimni bilmay, uzoq o'yladim. O'sha paytda otamning do'sti Ravil Shakirovning uyida yashardim. Uyga qaytib, hamma narsalarimni yig'ishtirdim. Kechki poyezd vaqtini kutib o'tirsam, Ravil aka kelib qoldilar. U kishi juda bilimdon, o'qimishli odam edilar. Nima gapligini bilgach, "Bu nimasi endi?! Narsalaringni joyiga qo'y. Hammasi o'z qo'lingda, qobiliyat bilan birga mehnat ham kerak. Qachonki, o'z kuchingga ishonsanggina buni uddalaysan", dedi. O'sha kundan boshlab o'z ustimda tinimsiz izlandim...

O'qish yakunida qo'limga imtiyozli diplomni tutqazar ekan, o'qituv-chim Ivan Sokolov, "Uch yil avval Akmalga bu yerdan ketib, boshqa joyga borib ta'lim olishini tavsiya qilganman. Mana, u bugun qanday inson bo'lib yetishdi. Men o'sha aytgan gaplarimdan afsusdaman. Akmalidan xursandman", degan edi. Keyin menga oliygohga yo'llanma berishdi.



O'zimizni ham, nafsimizni ham tiyib olishimiz kerak

Oliy o'quv yurtida nonushta qilmasak-da, biz talabalar har kuni ertalab tabiatni kuzatib, etyud chizardik. Qo'limizdagi chizgan rasmimizni ko'tarib, to'g'ri darsga borardik. Paxta terish mavsumida talab qilingan kilogrammni ortig'i bilan terardim-u, darhol rasm chizishga tushardim. Bir kunda 100-150 talab etyudlar chizardim. O'qish davomida talabalarni Moskva va Sankt-Peterburgga amaliyot o'tash uchun yuborishardi. Ammo yo'lkira xarajatlarini o'zimiz to'lashimiz kerak edi. Hamma kursdoshlarimning ketish uchun o'tlanayotganini ko'rib, qishlog'imga bordim. Gapni nimadan boshlashni bilmay, kalovlanib turdim. Chunki oilamiz ahvolini yaxshi bilardim-da. Onam nima gapligini bilganlaridan so'ng, "Otangda ham hozir pul yo'q edi-ku. Endi nima qilamiz?!", deya o'yga toldilar. Chamasi, ikki soatlardan so'ng qo'shnimiznikidan kelgan onam menga bir dasta pul tutqazdilar. Bilsam, quloqlaridagi buvimdan qolgan oybaldoqli tilla sirg'ani sotibdilar. Pulni olishga oldim-u, onamni shunday ahvolga solib qo'yganim uchun o'zimdan xafa bo'ldim. Va, endi uydagilardan pul so'ramayman, deya ahd qildim. Ko'p yillar davomida ijarada yashadim. Olgan stipendiyam ijara puli bilan bo'yoqlargagina yetardi. Amallab yetkazishim ham mumkin edi-yu, ammo bo'yoq sotib olishga "ko'zim och" edi. Qo'limga pul tushishi bilan darhol bo'yoqlar sotiladigan do'konga yugurardim...

Men ko'proq insonning ko'ngil ekologiyasi bilan shug'ullanaman va asarlarimda ham shuni tasvirlashga harakat qilaman. Agar ko'ngil ekologiyasi toza bo'lsa, atrof-muhit ham shunga yarasha bo'ladi. Biz, avvalo, o'zimizni tarbiyalashimiz kerak. Tabiatga ham shu tarbiyadan kelib chiqib munosabat ko'rsatamiz. Afsuski, oxirgi paytlarda tarbiyamiz ko'proq salbiy tomonga qarab ketdi. Tarbiyamiz sabab atrof-muhitimiz ham shunga yarasha bo'lib qoldi, shunday katta-katta muammolar kelib chiqyapti. Biz o'zimizni ham, nafsimizni ham tiyib olishimiz kerak.

1990-yillarda ba'zi odamlarning gapiga kirib O'zbekistondan ko'chib ketmoqchi ham bo'lgan edim. Ketolmaganman. Nimaga? Ildizim shu zamindan kuch olayotganini anglash bunga yo'l bermagan. Ketsam, havoda muallaq qolishimni tushunganman. Maktabda saboq bergan muallimlarimdan juda minnatdorman. Ularning beminnat mehnati beqiyos. Adabiyot va san'atga moyillik uyg'otgan ham ular aslida. Ayniqsa, adabiyot o'qituvchining ta'siri katta. Ko'p she'r yodlatgan. Hozir ham o'sham she'rlar yodimdan chiqqani yo'q. Adabiyot insonga axloqiy tarbiya beradi. Kitob mutolaasi katta ta'sir kuchiga ega. Afsuski, hozir ko'pchilik kitob o'qishdan yiroqlab ketdi. Odamlar planshet, smartfon va gadjetlarning quli bo'lib qoldi. Hamma axborotni shulardan olishga odatlandi. Menimcha, bu ketishda yaqin yillarda odamlar yozishni ham unutib yuborsa kerak. Oxirgi paytlarda Chingiz Aytmatov asarlariga qayta-qayta murojaat qilyapman. Chunki yozuvchida hayotga, odamlarga nisbatan chuqur mushohadalar bor. Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Farida Afro'z, Zebo Mirzo she'rlarini o'qiyman. Ular mening ishlashimga turtki beradi, holat uzatadi. Bir paytlari ularni ijodiy ustaxonaga chaqirib, to'plardim. U davrlarni juda qo'msayman. Kimdir



she'r o'qirdi, qo'shiqchi do'stlarimiz yangi qo'shig'ini kuylardi. Boshqa soha vakillari ham kelardi. Maqsad esa san'at edi. Vaqtim kamaygani sabablimi, bu go'zal dunyomizni yo'qotib qo'ydim. Ular ham yo'qotishgan bo'lsa kerak. Vaqti kelib bu davrani qaytarish niyatidaman. Ulug' shoirlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar bilan ko'p suhbatlashganmiz. Abdulla aka umrining oxirgi yillarida ayollari aravachada poliklinikaga olib kelganlarida uchrashib qolgandik, o'shanda menga bir gap aytgan edilar: "Akmaljon, xalq sizni ijodkor sifatida biladi. Oxirigacha shunday bo'lib qoling. Qolgan narsalar sizga vafo qilmaydi". Shu paytda yonimizga taniqli rejissyor Shuhrat Abbosov kelib: "Abdulla akangiz to'g'ri aytyaptilar, Akmaljon. Mana, bir necha kundan beri yotibman. Hech kimga keragim yo'q", dedilar. Shunday odamlar tirikligida qadriga biz yetdik, goho yo'q. Ko'plarimiz doim poyezd o'tib ketgandan keyin nog'ora qoqamiz. Tirikligida e'tibor bermaymiz, mashhurligini, daholigini ayta olmaymiz.

O'zbekiston xalq rassomi Ne'mat Qo'ziboyev, Rahim Ahmadov singari ustozlarning ma'ruzalarini tinglab, ko'p bilim oldik. Shu bilan birga, o'qigan kitoblarimizdan ham ko'p narsa o'rganganmiz. Dunyoni anglash, dunyo falsafasini o'rganish uchun ko'p mutolaa qilib turgan odam kam bo'lmaydi. O'zimizning buyuk yozuvchi va shoirlarimizdan tortib, dunyo nazmi va nasrining eng go'zal asarlaridan odam ko'p narsalarni topadi.



Ba'zan ko'nglingizga mos kelmagan asarlarni o'qimaganingiz ham durust ekan. Dostoyevskiyning "Telba" romanini o'qib, o'zim tentak bo'lib qolishimga bir baxya qolgan. So'ngra uning asarlarini o'qishni yig'ishtirdim. Romantik bo'lganim uchun Mopassan, Balzak, Herman Hesse, Stendal, Shekspir, Chingiz Aytmatovlarning asarlarini sevib o'qiyman. Ularning asarlaridagi toza ruh ko'proq o'ziga maftun etadi.

Navoiy bobomizning asarlarini ham sevib mutolaa qilaman. Ijodimda ham eng ko'p murojaat qilgan asarlarim "Layli va Majnun" va "Farhod va Shirin" dostonlari. "Lisonut-tayr" asarini ham qayta-qayta o'qib turaman. Asardagi falsafa, obraz, ifoda mudom o'ziga rom etadi. Qisqasi, badiiy asarlar rassomning shakllanishiga, ijodda o'ziga xos yo'lini topishiga, dunyoqarashi va fantaziyasi o'sishiga katta yordam beradi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini o'qigan kishi Zaynabni salbiy qahramon deb hisoblaydi. Asar asosida olingan kinofilmida ham shunga kata urg'u berilgan. Aslida unday emas, Zaynab ham o'zining baxti uchun kurashgan mushtipar bir ayol. Kim baxti, oilasi uchun kurashmaydi? Faqat Zaynab o'zining o'ziga borib qo'lga zahar oladi. Bor-yo'q aybi shu uning. Shuning uchun ham xayolimdagi Zaynab obrazini yaratganman.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish ham juda foydali. U yerda rassom xalqning orzusidagi ko'plab obrazlarni topishi mumkin. Dostonlardagi ohanglardan quvonch va qayg'uni, dard va sitamni his qiladi odam. Xalqimizning orzu-umidlarini ko'radi.




Badiiy asar – ijodkorning farzandi

Kitoblar hayotdagi chinakam ustozlarim bo'lgan. Talabalik chog'larim institutdagi bir qolipga tushib qolgan o'qituvchilarning fikrlariga qo'shilmaganim uchun o'qishdan haydab yubormoqchi ham bo'lishgan. Holbuki, men shularga o'xshab qotib qolishni sira istamasdim, doim o'zgacha fikrlashga intildim. O'zimcha yangilik qilmoqchi bo'lardim. Endilar o'ylasam, asl ijodkorni qolipga solib bo'lmas ekan. Qolipga tushgan ijodkor o'ladi. Bugun ham institutlarda bir qolipni ushlab kelayotgan o'qituvchilar bor. Ular bilib-bilmay shu yo'l bilan tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

* * *

Badiiy asar - u she'r bo'ladimi, proza bo'ladimi, ijodkorning farzandi. Ma'lum yillar xuddi ona farzandini to'qqiz oy ko'tarib yurib, niyatlar qilib, azoblar bilan dunyoga keltirgani kabi holatlardan o'tib, asar yaratiladi. Men bozorchi rassomlar haqida aytmayapman. Ularni yomonlash niyatim ham yo'q, tirikchilik qilishyapti. Yozuvchi-shoirlar ko'ngil bitiklarini yozib qo'yishadi va yozganlari doim ular bilan birga yashaydi. Lekin rassom uchun qiyin, chunki u yaratgan asarlarning egasi boshqa bo'ladi. Muzeylarda tursa mayli, lekin ko'plab shaxsiy kolleksiyalarda qanday sharoitga tushishi, taqdiri nima bo'lishi noma'lum. U sizning yurak qo'ringiz mahsuli axir. Ammo u kimning qo'liga tushadi, bir puldor odammi yoki olibotarningmi? Shu o'ylar sabab rassom farzandi bilan judayam-judayam qiynalib vidolashadi. Menimcha, farzandlarim kabi aziz asarlarimni juda yaxshi ko'rsam kerak, ular qing'ir-qiyshiqmi, xirami, juda zo'r chiqmaganmi, baribir men uchun qadrlil, mening ma'lum lahzalardagi ko'ngil holatlarim ifodasi. Ko'nglimga nima kelsa, chizaman. Suratlar mening hayotim, bosib o'tgan davrlarim, kundaligim.



Orzular amalga oshishi uchun, avvalo, ilm olish kerak

Rassomlik va rahbarlik

Men o'zimda to'laqonli ijodkorni sezmayapman. Ijodni butkul to'xtatmadim, lekin bu kam. Ijodkor hamma narsadan xoli bo'lishi kerak. Shuning uchun ham rassomlarimiz darveshsifat hayot kechirishadi. Lekin bugun suratlar maydoniga hozirgi rassomlarimizning o'zlaridan oldin "men"lari, nafslari kirib keladi. Iqtisodiy mukammallikni birinchi darajada qadrlashadi. Mashhurlikka, unvonlarga ruju qo'yishgan. Qarang, unvonim bor (boshini ko'rsatib), shoxim yo'q. Jahon ko'rgazmalariga boring, unvoningizga qarab emas, qilgan ishingizga qarab baho berishadi. Diplomingiz qizilmi, ko'kmi, qiziq emas. Biz esa shu narsalarga qulmiz. Go'yo qizil diplom olsa, kelajakda buyuk rassom bo'lib qoladigandek. Diplom, unvoningiz bo'lmasin, xalq nazarida bo'ling. Xalq nazari Nobeldan ham katta yutuq, unga erishish esa qiyin ekan. Nazardan qolmaylik.

Yoshlikda hamma orzu, umidli, xayolparast bo'ladi. Bu juda ham yaxshi. Lekin o'sha orzular amalga oshishi uchun, avvalo, o'qish, ilm olish kerak. Chunki biz, ayniqsa, Sharq odamlari dunyoviy ilmlarga ega bo'lgan, dunyoviy ilmlarda katta o'zgarishlar qilgan allomalarning avlodimiz. Ming afsuski, hozir ancha uzilib qoldik. U darajani yo'qotib qo'ydik. Ota-bobolarimizga xulq-atvorimiz, yurish-turishimiz, atrofimizdagi insonlarga bo'lgan mehr-oqibatimizni tiklashimiz kerak. Kitob o'qishdan, ilm olishdan aslo to'xtamang. Yoshlik zavqi sizlarni hech qachon tark etmasin!

Aziz ABDUMALIK gurunglashdi.

KINO OLAMIDA

"12

jahldor erkak" ("12 angry men") 1957-yil amerikalik kinorejissyor Sidney Lumet tomonidan suratga olingan jahon kinematografiyasi tarixidagi muhim va eng ta'sirli asarlardan. Bir qarashda oddiy sud jarayoni haqida hikoya qilgandek tuyuladigan bu film, aslida, inson tafakkuri, adolat, stereotiplar, mas'uliyat va fuqarolik burchi haqida chuqur falsafiy mulohazalarni o'zida mujassam etadi. Eng qiziq jihati, 1,5 soatlik voqealar deyarli bitta xonada bo'lib o'tadigan bu kartina tomoshabinni boshidan oxirigacha o'ziga mahkam bog'lab qo'yadi. Chunki unda voqealar rivoji, tasvir uslubi juda mukammal va puxta ishlangan. Aynan shu jihati ham uni kino tarixidagi eng buyuk asarlardan biriga aylantirgan desak ajab emas. Shu o'rinda, barcha voqealari bitta xona ichida bo'lib o'tadigan bir necha muvaffaqiyatli filmlar mavjud. Ehtimol, o'zbek kinorejissyori Zulfiqor Musoqov ham o'zining shedevrilaridan biri - "Kasallik tarixi"ni "12 jahldor erkak"dan ilhomlanib suratga olgandir. Tag'in kim bilsin.

Adolat,

SHUBHA VA INSON
TABIIATI





Film mazmuni (diqqat, spoyler bo'lishi mumkin)

Kino qotillikda ayblanayotgan kambag'al o'smir yigitning sud jarayonidan boshlanadi. Sud yakunlangan va endi hukm chiqarish navbati hakamlar hay'atiga kelgan. O'n ikki nafar hakam alohida xonaga kirib, ayblanuvchining aybdor yoki aybsiz ekanligi bo'yicha yakuniy qarorga kelishi kerak. Qonunga ko'ra, agar hakamlar hay'ati yigitni aybdor deb topsa, u o'lim jazosiga hukm qilinadi. Demak, ularning qarori inson hayoti va o'limi o'rtasidagi tarozi hisoblanadi. Dastlabki ovoz berishda o'n ikki hakamning o'n bir nafari yigitni aybdor deb hisoblaydi. Faqat birgina 8-raqamli hakam boshqacha fikr bildiradi. U yigitning mut-

laqo aybsiz demaydi, biroq mavjud dalillar insonni o'limga hukm qilish uchun yetarlicha ishonchli emasligini ta'kidlaydi. "Kelinglar, yana bir bor tekshirib ko'raylik", deydi u. Shundan so'ng film qizg'in tusga kira boshlaydi, har bir daqiqa tobora keskinlashib boradi. Bir kishining shubhasi butun guruhni yana bir bor dalillarni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Biroq bu shunchaki xamirdan qil sug'urgandek oson kechmaydi. Filmning markazida voqealar emas, balki insonlar turar edi. Har bir hakam o'ziga xos xarakterga ega: kimdir jahldor, kimdir loqayd, birovi o'zini hammadan aqlli deb hisoblaydi, yana kimdir boshqalarning fikriga ergashadi, boshqasi esa shaxsiy hayotidagi muammolarni sud ishiga aralastirib yuboradi. Shuning uchun ham qarshi ovoz



Inson hayoti xavf ostida bo'lsa, biz qanchalik ehtiyotkor bo'lishimiz kerak?

bergan hakamni tinglash, unga ishonish, bir yoqadan bosh chiqarishni bu xarakteri turfa kishilar o'zlariga munosib ko'rmaydilar. Film davomida boshqalardan farqli ravishda 8-raqamli hakam baland ovozda gapirmaydi, xonadagilarga bosim o'tkazmaydi va o'zini qahramon sifatida ko'rsatishga urinmaydi. Uning quroli faqat savollar va mantiq, fikrlashdan qo'rqmaslik edi. Boshqalar ishni tezroq tugatib uyiga ketishni istayotgan bir paytda u inson hayoti masalasiga befarq qaray olmaydi. Natijada film davomida u nafaqat dalillarni, balki boshqa hakamlarning qarashlarini ham asta-sekin o'zgartira boshlaydi. Birinchi bo'lib uning fikrlarini ma'qullagan hakamlardan biri shuncha harakatning chipakka chiqishidan qutqarib qoladi (Bundan insonlar ham ikkinchi raqamli qahramon, aslida). 8-hakam bunga chin dildan ishongan, umid qilgan edi, shuning uchun ham qayta ovoz berishni so'raydi.

Film davomida har bir hakamning ichki dunyosi ochilib boradi. Masalan, ayrim qahramonlar o'z oilasidagi muammolar tufayli ayblanuvchiga nisbatan nafratini yashirmaydi. Boshqalari esa shunchaki ko'pchilikka qo'shilib ovoz berganini tan oladi. Shu tariqa film inson qarorlarining ortida ko'pincha mantiq emas, balki hissiyotlar yashirinishi mumkinligini ko'rsatadi. Tomoshabin shu nuqtadan bu film shunchaki qotillik haqida emas, balki insonlarning qanday fikrlashi to'g'risida ekanini anglay boshlaydi. Aslini olganda, "12 jahldor erkak" inson psixologiyasining mohirona tasviri hisoblanadi. Mashhur kino tanqidchisi Roger Ebert mazkur film haqida fikr bildirar ekan, "Inson hayoti xavf ostida bo'lsa, biz qanchalik ehtiyotkor bo'lishimiz kerak? Filmning buyukligi aynan shu savolni tomoshabinga majburan o'ylatishidadir", deydi. Uningcha, filmning eng muhim g'oyasi ayblanuvchining aybdor yoki aybsizligidan ham kattaroq – "Shunchaki muhokama qilmasligimiz kerakmi?"



8-raqamli hakam rolini o'ynagan Henry Fonda o'smirning qotillikda qo'li bor-yo'qligini boshqa hakamlarga tushuntirish uchun hatto tor xonada qotillik kartinasi jonlantirishga ham harakat qiladi. Biroq jahldorlarning bunga toqat qilolmayotganini ko'rib, tomoshabin sifatida o'zingizni o'ng'aysiz his qilasiz, asabiylashasiz. Nahot haqiqatning oydinlashuvi uni qaror toptiruvchilarni shu qadar bezovta qilsa!?

Rejissyor film davomida kameradan juda mahorat bilan foydalangani. Dastlab xonadagi kadrlar keng va erkin ko'rinadi. Ammo bahslar kuchaygan sari kamera qahramonlarga tobora yaqinlashadi. Natijada tomoshabin ham xonadagi bosim va taranglikni his qila boshlaydi. Bu usul filmning psixologik ta'sirini yana-da kuchaytiradi. Dialoglar mukammal, har bir qahramonning aniq xarakteri bor, stereotip va xurofotlar fosh qilinadi, minimal vositalar bilan maksimal drammatizm yaratiladi va eng asosiysi, bitta xona ichida ham tomoshabinni hayajonda ushlab turish mumkin ekan, deb o'ylab qolasiz. Film suratga olinganiga

yetmish yildan oshgan bo'lsa-da, unda ko'tarilgan masalalar bugun ham dolzarb. Adolat nima? Ko'pchilik doimo haq bo'ladimi? Odamlar stereotiplardan xoli qaror qabul qila oladimi? Bir insonning fikri butun guruhni o'zgartira oladimi? Shubha va tanqidiy fikrlash qanchalik muhim? Bu savollar har qanday davr va jamiyat uchun ahamiyatli. "12 jahldor erkak" faqat kino sifatida emas, balki tanqidiy fikrlash, guruh psixologiyasi va adolat haqida o'quv material sifatida ham qo'llab kelinadi. Filmni tomosha qilib shuni tushunish mumkin, odamlar har doim ham dalillar asosida qaror qabul qilmaydi. Ko'pincha ularning qarashlariga hissiyotlar, qo'rquvlar, stereotiplar va shaxsiy tajribalar ta'sir qiladi. Filmning eng kuchli signallaridan biri ham shu, insonlarning oldindan shakllangan fikrlari qanday qilib adolatga xalaqit berishini ko'rsatishidir. Shuning uchun ham ba'zi hakamlar ayblanuvchini kambag'al mahalladan chiqqani sabab aybdor deb

**Ozgina shubha bo'lsa,
insonni o'limga yuborish
mumkin emas**

hisoblaydi. Ular aniq dalillarga emas, shaxsiy qarashlariga tayanadi. “12 jahldor erkak”ning markaziy g’oyasi juda oddiy, ammo nihoyatda muhim. Biror insonning taqdiri hal qilinayotgan paytda shoshqaloqlik qilish mumkin emas. Film adolat faqat qonunlarga amal qilish bilangina emas, balki haqiqatni izlashga bo’lgan samimiy intilish bilan ham bog’liq ekanini ko’rsatadi. Yakka qarshi chiqqan hakamning asosiy pozitsiyasi – “agar ozgina bo’lsa ham shubha mavjud bo’lsa, insonni o’limga yuborish mumkin emas”. “12 jahldor erkak” oddiy sud dramasi bo’libgina qolmay, adolatning mohiyati, inson ongining murakkabligi va mas’uliyat haqida yozilgan kuchli falsafiy asar. U tomoshabinga haqiqat har doim ham ko’pchilik tomonida bo’lmasligini, ba’zan esa bitta insonning jasorati butun vaziyatni o’zgartirib yuborishi mumkinligini ko’rsatadi. Film, shuningdek, har qanday hukm chiqarishdan oldin dalillarni sinchkovlik bilan tekshirish va shaxsiy hissiyotlarni chetga surish zarurligini eslata-di. Shu sababli u nafaqat kino ixlosmandlari uchun, balki adolat, jamiyat va inson tabiati haqida chuqur o’ylashni istagan har bir kishi uchun ko’rilishi shart bo’lgan filmlardan biri. Uning kuchi shundaki, film tugagach ham u yuzasidan tug’ilgan savollar tomoshabin ongida uzoq vaqt davomida yashab qoladi.

Agar o’tgan davrda yaratilgan qaysidir asar bugungi kunda ham qiziq va qadrli tuyulayotgan bo’lsa, demak jamiyat muammolari, insonlarning eskicha fikrlashida yaxshi tomonga o’zgarish bo’lmagan hisob. Siz-u biz yashab turgan jamiyatda ham filmdagiga o’xshash mantiqsizliklar yo’q emas axir. Tanishdir, notanishdir, kimdir og’ir vaziyatga tushib qolganda unga hech bo’lmaganda dalda berish o’rniga uning o’zini aybdor qilishni afzal ko’ramiz. Chunki bu eng oson ish. Mulohaza qiladigan, to’g’ri qaror qabul qiladiganlar esa negadir oramizda ko’rinaver-

maydi. Kim bilandir arzimmas narsa uchun tortishayotganimizda oddiy mulohaza usulini tanlash, sog’lom bahslashish o’rniga nega yoqalashamiz va kim kuchli bo’lsa, o’sha g’olib degan o’yda bo’lamiz? Deylik, ijtimoiy tarmoqda qaysidir mavzu yuzasidan bahslashayotganda nega mavzu qolib, uni ko’targan kishining shaxsiy chegaralarini buzib kiramiz, kamsitamiz? Aqlimiz yetmagan joyda qo’pollik bilan qarshi tomonni mot qilmoqchi bo’lamiz. Yana bir misol: bir xil fikrni aytgan ikki mavqe egasiga munosabatimiz qanday bo’ladi? Albatta, ikki xil.



Nega shunday? Nega odamlarning jamiyatdagi o’rnini millati, ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki hal qiladi, nimaga bildirgan fikri, salohiyat va qobiliyati emas? “12 jahldor erkak”ni ko’rib bo’lganinigizdan keyin miyangiz tinimsiz ishlab chiqara boshlaydi. Harholda, bundan xursand bo’laving.

Otash YASHIN

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOVIIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

REKTOR

REKTOR

REKTOR



REKTOR BAXTIYOR MAHKAMOV:
**“JAMOAVIY FIKR VA OCHIQLIKNING
NATIJDORLIKDAGI ULUSHI YUKSAK!”**

- Uzoq yillik tarixga ega otaxon universitet bugungi davr talablariga to'la javob bera olyaptimi? Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kechagi ta'lim va bugungi o'zgarishlarni nimalarda ko'rasiz?

- TATU 70 yillik tarix, tajriba va an'analarga ega bo'lgan, mahalliy va global mehnat bozori uchun minglab malakali AKT muhandislarini tayyorlab bergan, mamlakatimizning yetakchi universitetlaridan biridir. Bugungi kunda biz ushbu boy tajribani zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib, universitetning ta'lim, tadqiqot, xalqarolashtirish hamda soha korxonalarini bilan integratsiyani yangi bosqichga olib chiqmoqdamiz.

So'nggi yillarda universitetda sezilarli transformatsiya amalga oshirildi. Jumladan, zamonaviy laboratoriyalar soni 23 tadan 65 taga oshirildi, Inkubatsiya va akseleratsiya markazi, Oliy muhandislik maktabi, FabLab va Living-Lab tashkil etildi. Shuningdek, so'ngi yillarda ta'lim dasturlarimiz TOP-300 talik universitetlar bilan benchmarking qilindi, AQShning nufuzli ABET, Yevropaning eng taniqli ASIIN, EuroInf kabi xalqaro tashkilotlari tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazildi, Coursera platformasi ta'lim jaryoniga tatbiq qilindi hamda soha korxonalarini bilan integratsiya kuchaytirildi.

Eng muhimi, bugun ta'lim mazmuni o'zgarimoqda. Biz talabalarga faqat nazariy bilim berishni emas, balki ularni amaliy ko'nikmaga ega, kreativ fikrlaydigan va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashni asosiy maqsad qilib olganmiz. Shu bois universitetda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.



- Bugun ta'lim tizimidagi o'zgarishlar davlat tasarrufidagi ko'plab oliy ta'lim muassasalariga ham mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Universitetda vazirlik joriy qilgan o'quv dasturlaridan tashqari, o'zingiz ham yangiliklar kiritganmisiz?

- Albatta. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalariga berilgan akademik va tashkiliy mustaqillik universitetlarning mehnat bozori talablariga yanada tez moslashishiga xizmat qilmoqda. Biz ham ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, ta'lim dasturlarini zamon talablari asosida takomillashtirib boryapmiz.

Xususan, 2021-yildan buyon universitetda bakalavriat yo'nalishlari soni 17 tadan 22 taga, magistratura mutaxassisliklari 28 tadan 31 taga, qo'shma ta'lim dasturlari esa 2 tadan 4 taga yetkazildi. Sun'iy intellekt, kibexavfsizlik, ma'lumotlar ilmi, biznes IT kabi istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha yangi dasturlar joriy etildi.

Shuningdek, ta'limni amaliyot bilan integratsiya qilish maqsadida hamkor korxonalar soni 26 tadan 93 taga oshirildi, talabalar uchun haftalik amaliyot dasturlari yo'lga qo'yildi va korxonalar-universitet ekotizimi shakllantirildi. Bugungi kunda talabalarimizning 97 foizi ish bilan ta'minlanayotgani va bitiruvchilarimizga bo'lgan talabning ortib borayotgani amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol natijasidir.

Bizning asosiy maqsadimiz - talabaga nafaqat diplom, balki zamonaviy bilim, amaliy tajriba va mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikmalarni berish. Shu bois universitetda ta'lim mazmunini ish beruvchilar talabi bilan uyg'unlashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

**Biz har bir iqtidorli
talabada Yangi
O'zbekistonning bo'lajak
muhandisi, olimi yoki
texnologik
tadbirkorini ko'ramiz**



TATU OS Asia reytingida 557-o'rinni egallagan

- "Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim", deyiladi "Temur tuzuklari"da. Har bir rahbarning o'ziga xos boshqaruv usuli, prinsiplari bo'ladi. Siz ham institutda o'z tartib-qoidalarinigizni joriy etganmisiz?

- Men boshqaruvda jamoaviy fikr, ochiqlik va natijadorlikni muhim deb bilaman. Universitetni bir odam emas, butun jamoa rivojlantiradi. Rektorning vazifasi esa shu jamoani umumiy maqsad sari bir-lashtirishdir.

Muhim qarorlarni qabul qilishda fakultetlar, kafedralar, mutaxassislar va talabalar fikrini inobatga olishga harakat qilamiz. Chunki ta'limdagi har qanday qaror qog'ozda emas, auditoriyada, laboratoriyada, talabalar hayotida o'z samarasini ko'rsatishi kerak.

Men uchun yana bir muhim tamoyil - muammoni yashirmaslik. Muammo ochiq aytilsa, unga yechim topiladi. Shu sababli universitetda ochiq muloqot muhitini shakllantirishga alohida e'tibor beramiz. Albatta, Universitetning strategik qarorlarini avval quyida o'rganib, tahlil qilib, xorijiy tajribalar bilan solishtirib, so'ng kengashgan holda - Universitet Kengashida qabul qilamiz.

- Zamonaviy ta'limda kommunikatsiyaning o'rni muhim. Ba'zi universitetlar rektorlari talabalarga "yuqoridan qarashi", hatto talabalar o'z rektorlarini tanimasliklari bor gap.

TATU rektori va talabalarining munosabati qanday, siz talabalarigizga qanchalik yaqinsiz?

- Men uchun talaba universitetning eng asosiy qadriyati. Universitetdagi barcha imkoniyat, sharoit va islohotlar oxir-oqibat talabaga xizmat qilishi kerak. Talaba bilan rasmiy masofa bo'lishi mumkin, lekin insoniy masofa bo'lmasligi zarur. Rektor talabaning muammosini eshitmasa, uning kayfiyatini sezmasa, universitetdagi haqiqiy holatni to'liq anglay olmaydi. Shu bois, TATUda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari, ochiq muloqotlar, talabalar tashabbuslarini eshitish, yashash va o'qish sharoitlarini o'rganish doimiy jarayonga aylangan. Ba'zan bitta talabaning fikri

butun tizimdagi muammoni ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, bugungi raqamli davr imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratganmiz. Talabalar universitet rahbariyati bilan 24/7 muloqot qilish imkoniyatiga ega. Xususan, rektorning maxsus murojaatlar boti faoliyat yuritadi va unga kelib tushayotgan murojaatlar bilan shaxsan tanishib boraman. Talabalar nafaqat ta'lim jarayoni, infratuzilma yoki universitet faoliyatiga oid masalalar, balki o'zlarining ijtimoiy holati, turli hayotiy vaziyatlari va ba'zan oilaviy muammolari yuzasidan ham murojaat qilishadi. Har bir murojaat ortida inson taqdiri va ishonchi turganini chuqur his qilgan holda, ularni diqqat bilan o'qib chiqishga va imkon qadar yechim topishga harakat qilaman.

Shuningdek, har hafta payshanba kuni rektor qabuli tashkil etiladi. Ushbu qabul davomida talabalar o'zlarini qiziqtirayotgan savollar, taklif va muammolarni bevosita rektorga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Eng muhimi, biz talabalar bilan muloqotni bir martalik uchrashuv emas, balki doimiy va ochiq hamkorlik jarayoni sifatida ko'ramiz. Chunki universitet taraqqiyoti talabalarining fikri, tashabbusi va ishonchi bilan chambarchas bog'liq.

- Sharoitlar yaxshilanishi, moddiy-texnik baza mustahkamlanishi ortidan bu imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yoshlar safi ham kengayayotgan bo'lsa kerak. Muvaffaqiyatga erishayotgan talabalarimiz haqida ham gapirib bersangiz.

- Albatta, yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar va infratuzilma talabalarining salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lmoqda. Bugungi kunda TATUda 15 ming nafardan ortiq talaba tahsil olmoqda va ularning ko'pchiligi dasturlash, sun'iy intellekt, kibernetika, robototexnika hamda startap loyihalari yo'nalishlarida yuqori natijalarga erishmoqda.

So'nggi yillarda universitetda 65 ta zamonaviy laboratoriya, jumladan 14 ta Oliy muhandislik maktabi, 13 ta FabLab va 11 ta LivingLab hududi tashkil etildi. Bu maskanlar talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash, innovatsion g'oyalarni real loyihalarga aylantirish imkonini bermoqda.

Natijada talabalarimizning xalqaro tanlovlar, olimpiadalar va ilmiy loyihalardagi ishtiroki tobora kengaymoqda. Bugungi kunda talabalarimiz tomonidan 5 mingdan ortiq xalqaro IT sertifikatlari qo'lga kiritilgan. Eng muhimi, yoshlarda o'z kuchiga ishonch, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlash madaniyati shakllanmoqda.

Talabalarimizning xalqaro maydondagi yutuqlari ham buning yaqqol tasdig'idir. Jumladan, Huawei ICT Competition 2026 Global Final musobaqasida TATU talabalarini ishtirokidagi O'zbekiston jamoasi yuqori natijalarni qayd etib, Network Track yo'nalishida 1-o'rin, Cloud Track yo'nalishida esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Mazkur natija mamlakatimiz IT ta'limi va yoshlarimiz salohiyatining xalqaro miqyosdagi e'tirofidir. Biz har bir iqtidorli talabada Yangi O'zbekistonning bo'lajak muhandisi, olimi yoki texnologik tadbirkorini ko'ramiz. Universitetning asosiy vazifasi esa ularning iste'dodini o'z vaqtida kashf etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

**Maqsad - talabani
ish qidiradigan
emas, mehnat
bozoriga
tayyor mutaxassis
sifatida kirib
boradigan kadr qilib
tayyorlash**



- **Universitetning xalqaro hamkorliklari va yutuqlariga ham to'xtalib o'tsangiz.**

- Bugungi kunda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti nafaqat O'zbekistonning, balki mintaqaning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yetakchi dalar oliy ta'lim muassasalaridan biri sifatida xalqaro maydondagi o'z mavqegini tobora mustahkamlab bermoqda. Hozirda universitetimiz dunyoning 35 dan ortiq davlatidagi 200 dan ortiq nufuzli universitet, ilmiy markaz va texnologik kompaniyalar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Ushbu hamkorliklar natijasida talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik almashinuv, qo'shma ta'lim dasturlari, xalqaro ilmiy loyihalar hamda stajirovka imkoniyatlari kengaymoqda.

So'nggi yillarda 420 nafardan ortiq talabalarimiz xorijiy universitetlarda tahsil olish, amaliyot va almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, 280 nafardan ortiq professor-o'qituvchilarimiz dunyoning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy muassasalarida malaka oshirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda tajriba almashish dasturlarida qatnashdilar.



TATUning xalqaro reytinglardagi natijalari ham yil sayin yaxshilanib bormoqda. Jumladan, 2026-yilda Universitet QS Asia reytingida 557-o'rinni egallagan bo'lsa, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mintaqasidagi eng yaxshi universitetlar orasida 33-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu natijalar TATUning ta'lim sifati, ilmiy salohiyati va xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlarining yuksalib borayotganini tasdiqlaydi. Alohida ta'kidlash joizki, universitetimizning ko'plab ta'lim yo'nalishlari AQSHning xalqaro ABET hamda Germaniyaning ASIIN akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tdi. Bu esa TATUda tayyorlanayotgan mutaxassislar bilim va ko'nikmalari dunyo miqyosidagi talablar va standartlarga to'liq javob berishini anglatadi.

Eng muhimi, erishilayotgan barcha yutuqlar talaba va tadqiqotchilari-miz uchun dunyo miqyosidagi bilim, innovatsiya va imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Shu bois TATU bugun nafaqat bilim beruvchi universitet, balki xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar va innovatsion g'oyalarni yetishtiruvchi zamonaviy ilm-fan markaziga aylanib bormoqda.



– Kadrlar tayyorlashda ta'limni amaliyot bilan uyg'un olib borish juda muhim. Bugun talabalarni sohalar bo'yicha amaliyotga yuborish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarida qanday chora-tadbirlar ko'rilmogda?

– Bugungi kunda IT sohasida muvaffaqiyat kaliti – nazariya va amaliyot uyg'unligidadir. Shu bois TATUda korxon-universitet hamkorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmogda. So'nggi yillarda hamkor korxonalar soni 26 tadan 93 taga yetdi, talabalar uchun haftalik amaliyot dasturlari va stajirovkalar yo'lga qo'yildi.

Natijada talabalarimiz o'qish davridayoq real loyihalarda ishtirok etish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash va kasbiy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu yondashuvning amaliy natijasi sifatida universitet bitiruvchilarining bandlik darajasi 96 foizni tashkil etmoqda.

Bizning maqsadimiz – talabani diplom olgandan keyin ish qidiradigan emas, balki mehnat bozoriga tayyor mutaxassis sifatida kirib boradigan kadr qilib tayyorlashdir.

– Bugun oliy o'quv yurtida professor-o'qituvchilar yetarlimi? Ularning bilim va malakalarini tekshirib turadigan mezon bormi? Ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmogda?

TATUning 175 ta xalqaro universitetlar bilan hamkorligi bor



- Bugun oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar sonidan ko'ra ularning salohiyati va sifat ko'rsatkichlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 600 nafardan ortiq professor-o'qituvchi faoliyat yuritadi. Ularning 320 nafardan ortig'i ilmiy darajaga ega bo'lib, jumladan, 50 nafardan ortig'i fan doktori (DSc) va 270 nafardan ortig'i falsafa doktori (PhD) hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilar faoliyati ta'lim sifati, ilmiy natijalar, xalqaro nashrlardagi maqolalar, ilmiy loyihalardagi ishtiroki hamda talabalar fikri asosida muntazam baholanadi.

Ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida doktorantura va ilmiy maktablar faoliyati izchil rivojlantirilmoqda. Natijada, universitetda ilmiy darajali xodimlar soni 2021-yildagi 176 nafardan bugungi kunda 320 nafarga yetib, qariyb 2 barobarga oshdi. Bugungi kunda universitetda 350 nafardan ortiq doktorant va 330 nafarga yaqin magistrant ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

- Bugungi yoshlar, abituriyentlar juda ziyrak, oliy ta'lim muassasasiga topshirishdan avval uning mavqei, erishgan natijalarini inobatga olishadi. Maqtansa bo'ladigan yana qanday o'zgarishlarni sanab bera olasiz?

- To'g'ri aytasiz, bugungi yoshlar universitet tanlashda nafaqat nomiga, balki undagi imkoniyatlar, yaratilgan muhit va kelajakdagi istiqbollarga e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, TATUda so'nggi yillarda ta'lim sifati va talabalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yangi bosqichga olib chiqildi.

Bugun universitetimizda 15 ming nafardan ortiq talaba tahsil olmoqda. Ular uchun zamonaviy ta'lim muhiti, xalqaro tajriba almashinuvi, ilmiy izlanish va amaliy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratilgan. Xususan, talabalarimiz tomonidan 5 mingdan ortiq xalqaro IT sertifikatlari qo'lga kiritilgani ham yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga intilayotganini ko'rsatadi.



Universitetning xalqaro mavqei ham izchil oshib bormoqda. TATU QS va THE xalqaro reytinglarida qayd etilmoqda, dunyoning 175 ta hamkor universiteti bilan aloqalar olib borilmoqda. Eng katta yutuq esa universitetda yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan, ularni yangi g'oyalar yaratishga undaydigan muhit shakllanayotganidir. Bugungi TATU talabasi bilim oluvchi emas, balki kelajak texnologiyalarini yaratuvchi mutaxassis sifatida tarbiyalanmoqda.

Biz uchun eng katta yutuq - universitetda talabaning faqat bilim oluvchi emas, balki tashabbuskor, innovatsion fikrlaydigan va o'z loyihalarini amalga oshira oladigan yosh sifatida shakllanayotgani.

- Talabalar ham farzandlaringiz qatorida, kelajagiga befarq qarolmaysiz. Ularning maqsadlari, intilishlariga qanot bo'ladigan qanday yoniq so'zlaringiz bor? Suhbatimiz pirovardida rektor sifatida bugungi kun talabalariga nima degan bo'lar edingiz?

- Talabalarimga shuni aytgan bo'lardim: bugungi imkoniyatning qadriga yeting. Sizlar raqamli texnologiyalar butun dunyoni o'zgartirayotgan davrda ta'lim olyapsizlar. Bu jarayonda tomoshabin emas, ishtirokchi bo'lish kerak.

Universitet sizga yo'l ochadi, ustozlar bilim beradi, ota-onangiz ishonch bildiradi. Lekin o'z ustingizda ishlash, izlanish va natijaga erishish - avvalo o'zingizga bog'liq.

Xato qilishdan qo'rqmang, savol berishdan tortinmang, g'oyangizni ayting, sinab ko'ring. Bugun oddiy ko'ringan tashabbus ertaga katta loyiha yoki jamiyatga foydali yechimga aylanishi mumkin.

Men TATU talabalariga ishonaman. Ertangi raqamli O'zbekistonni aynan sizlar qurishingiz kerak. Bilim oling, izlaning, yarating va o'z universitetingiz nomiga munosib bo'ling.

**Innovatsion
fikrlaydigan
talabalar
shakllanayotgani -
eng katta yutuq**

Rektor huzurida Aziz ABDUMALIK bo'ldi



**MODIRA
SODIROVA**

OQSHOM

Metroning N. bekati. Kechgi soat olti.

Chekkadagi o'rindiqlarning birida, sumkamni tizzam ustiga qo'ygancha, yarim soatdan beri seni kutyapman. Kechikkuday bo'lsang, zinhor ketib qolmasligimni iltimos qilgansan — bugun ishxonangda maosh beriladigan kun, o'tgan oy olgan qarzingni qaytarish niyatidasan. Yana qancha hayallashing mumkinligini bilmayman-u, lekin hozircha mo'ljalim — tag'in yarim soat kutib, keyin uyga jo'naverish.

Bekatda odam siyrak. Bu bekatda doim ham shunday. Ora-sira yakkam-dukkan yo'lovchi tushib keladi, ba'zilar o'rindiqlardan joy oladi, ba'zilar tik turgancha kutadi. Dam u, dam bu tomondagi tunnel ichidan guvillab vagonlar chiqib to'xtaydi, "duv" etib to'kilgan olomon birpasda har yoqqa tarqab ketadi — bekat yana siyrak tortib qoladi...

Marmar devorlardagi olovrang, tutunrang, kulrang va yana allaqancha xil tushuniksiz rang dog'larning ajabtovur qorishmasini, boshqa bekatlardagidan farqli — bezaksiz, oq gumbazsimon shiftning tarnovda qotgan bahaybat sumalak bo'laklarini eslatuvchi shisha qandillarini obdan tomosha qilib bo'lganman, u yog'iga xayolimni nima bilan band etishni o'ylagancha tunnel tepasidagi elektron soatga qarab-qarab qo'yaman.

*Tirikdaysan go'yo, bardamsan go'yo,
Hayot ham u qadar ezmas yelkangni...
Xo'sh, qayerdan keldi bu qayg'u?*

V.Soyning qo'shig'idan

Bugun o'ttizinchi may. Bahorning oxirgi kuni. Shuning uchunmi, bilmadim, ertalabdan xayolim parishon. Hech nimada diqqatimni tutib qololmayman, o'ylarim tutun kabi yoyilib ketaveradi... Yuragim esa tosh solib qo'yganday og'ir. O'rindiqning narigi chetida xushro'ygina mallasoch qiz o'tiribdi; kelganimda qay holatda bo'lsa, hozir ham shu — har gal qarshimizda eshiklar ochilganidagina boshini ko'tarib, odamlar orasidan kimnidir izlaydi, so'ng nigohi yana yer chizishda davom etadi.

U ham kutyapti...

Qizning yengsiz, etaklari uzun oqish sidirg'a ko'ylagiga, platforma poshnali qora ag'darma charm tuflisiga juda-juda havasim keladi, ko'ylak bichimini eslab qolishga harakat qilaman. Keyin uning kasb-kori haqida bosh qotiraman — avval, xalqaro yo'llar bo'yicha aeroport nozimi, deb ko'raman, lekin bu taxminim darrov o'zgaradi — nozimlarda ham, xuddi sartarosh va kotibalar kabi, bu qizdagi oqsuyaklarga xos nimadir yetishmaydi... Xorijlik sayyohlar uchun gid-tilmoch... Qo'lida skripka g'ilofi bo'lganida-ku, konservatoriya

talabasi derdim-qo'yardim. O'ylab-o'ylab, oxiri shunday xulosaga kelaman — qiz-fotomodel! Hali biror yerda uning suratiga ko'zim tushmagan bo'lsa-da, shu fikrga mahkam yopishib olaman. Balki, u boshlovchi modelardan — faoliyati hozircha “Modalar uyi”da kiyim namoyish etish bilan cheklangandir. Ertaga esa, xudo biladi — ehtimol “Vogue”ning muqovasida ko'rinib qolar. E-e, kim bo'lmasin, menga o'xshash kunduzi o'qib, kunning ikkinchi yarmida ishlaydiganlardan emasdir, harqalay. Tufflisiga shu qadar havasim keladiki, hatto bir zum bu oygi maoshimga stipendiyamni qo'shib, bitta shunaqa tufli olsammikan, deb ham o'ylayman, biroq qishga etгим yo'qligi, paltom ham eskirib qolganini eslashim bilan bu shirin xayol kapalakday uchadi-ke-tadi. Keyin, bunday tufli kiyganingga yarasha, qolgan ust-boshing ham shunga mos bo'lishi kerak — qizning egnidagi kabi ko'ylak olish uchun esa, mening uch-to'rt oylik maosh-u stipendiyalarim ham ozlik qiladi. Ha, cho'ntagimiz hammavaqt ham didimizga to'g'ri kelavermaydi, degan odam qanchalar haq...

Sen haqingda o'ylay boshlayman. Darrov ma'yus tortaman — avgustda sen turmushga chiqyapsan. Atigi ikki oydan so'ng. Atigi ikki oydan so'ng sen yo'q bo'lasan. Ya'ni, men uchun yo'q bo'lasan — ikkovimiz boshqa-boshqa olamlarda yashay boshlaymiz go'yo. Ehtimol, yana qanchadir vaqt qo'ng'iroqlashib, hatto ba'zi-ba'zida uchrashib ham turarmiz, balki bir umr ham dugonaligimiz yo'qolmas, lekin baribir... hammasi boshqacha bo'ladi endi. Sen turmushga chiqasan — meni bolalik bilan bog'lab turgan so'nggi ip uziladi... Na iloj. “Vaqtga tobemiz barimiz birdek...”

Qo'shni o'rindiqqa besh-olti nafar o'smir qizlar kelib o'tirishadi, darrov o'sha tomon o'girilib, qizlarga boshdan-oyoq razm solib chiqaman — vaqtни o'tkazish uchun bundan yaxshiroq mashg'ulot bormi...

Kishining iqtisodiy ahvolini uning birgina oyoq kiyimidan bilib olish mumkin, deyishadi. Menimcha, bu u qadar to'g'ri emas. Misol uchun, boy odam baxilligi sabab va yo bozor-o'char degan joylarga ketayotib, azbaroyi yaxshi poyafzalini ayash niyatida ham eskiroq, “bundayroq” tufli kiyib olgan bo'lishi mumkin va... aksincha. Mening bir sinfdosh dugonam bo'lardi, u ayni vaqt qo'shnim ham edi, yettinchi sinfdaligimda tog'am menga chet eldan o'sha paytlar endi rasm bo'layotgan “lodka” tufli olib kelgandi, haligi dugonam biror yerga boradigan bo'lsa, har uch kunning birida o'sha tuflini so'rab chiqaverardi. Toza bezor qilgandi o'ziyam. Bermayman desam, xafa bo'lardi tag'in... Mendan tufli, boshqa birovdan ko'ylak, yana birovdan sumka... Hatto atirni ham kimlardandir olib separd. O'sha dugonamni ko'cha-ko'yda ko'rganlar, biror amaldorning qizi deb o'ylasharmidi, balki, vaholanki, uning oilasini o'rtamiyona deb ham bo'lmasdi...

Ro'paramdagi qizlardan to'rttovining oyog'ida bir xil — hozir tijoratchilar Arab amirliklaridan keltirib sotishayotgan qora lak shippak. Qolgan ikkitasi o'zimizning shirkatlar ishlab chiqargan, yozdan ko'ra kuzgi mavsumga mosroq tuflida; birining egnida bundan uch-to'rt yil avval urf bo'lgan “variant” — qora gipyur yubka bilan oq gipyur kofta, narigisida — arzonbaho “varyonka”. Ayni kunda esa quyidagi xil liboslar “moda”ga kirgan: qora rang sun'iy ipakdan kofta-yubka qilinib, o'sha rangli shifondan uzun, keng-mo'l yeng o'rnatiladi, koftaning oldiga tijorat do'konlarida to'lib-toshib yotgan yaltiroq tugmachalardan besh-oltitasi qadaladi: shuningdek, yoqaga shifondan “pirpirak” o'rnatish yoki yubkaning o'zini ham shifondan tiktirish mumkin. Oxirgi paytlar “ipak-shifon” kombinatsiyasi uchun faqat qora emas, oq, pushti, binafsha, hatto sariq ranglar, guldor, yo'lbars terisi nusxali matolar ham qo'llanilyapti. Yana bir usul: yo'l-yo'l yo xol-xol va yo rang-barang geometrik shakllar tasviri tushirilgan ipakdan kostyum-yubka qilib qo'ya qolinadi — bu yana ham arzon tushadi. Savdo rastalari turli-tuman sun'iy ipag-u shifonlarga to'lib-bitgan — odamlarning cho'ntagiga eng to'g'ri keladigani ham bugun shu-da; matoning boshqa turlari nisbatan ancha qimmat, tayyor kiyim-kechakning narxi haqida-ku, gapirma ham bo'ladi.



Shunday qilib, bu yil bahorgi mavsumda, qizlarning o'rtabaqaga mansub qismi taxminan bunday ko'rinishga ega: egnida "ipak-shifon"ning bir turi, oyoqda qora lak shippak, qo'lda Turkiyada ishlangan sun'iy charm sumka... Mana, qarshimdagi qizlarning uchtasi ham o'shanaqa "ipak-shifon"dan kiygan, biri esa yangilik ixtiro qilib, namozshomgulli atlasning yengiga qizil shifon o'rnatib olibdi... "Varyonka"li qiz hammani og'ziga qarab nimalarnidir tinmay bidirayapti. Bir tomondan, bunday qizlarning tirishqoqligiga qoyil qolish kerak — engilning "kamtargina"ligiga sir boy bermay, qaytaga uning o'rnini boshqa "mayda detal"lar bilan to'ldirishga urinishadi, ya'ni: sochlar hafsala bilan jingalak qilinadi, yuz-ko'z obdan bo'yaladi: qo'lda qanday bo'lmasin, ishlab elektron soat, ko'zda arzonligina oftob to'sg'ich ko'zoynak, turkcha sumkaning o'rniga "Marlboro" yoki "Camel" shirkati tamg'asi bosilgan yelim xalta ham o'taveradi, agar topilsa, shaqir-shuqur jez zirak-munchoqlardan ham taqib olishadi — tamom-vassalom, shunaqa narsalarning "foni"da "varyonka"ning eskiligi ham, tuflining yedirilganligi ham unchalik bilinmay keta-veradi. Biroq "varyonka"lining qo'lidagi sumka qimmatbaho — timsah terisidan yasalgan, ko'riboq ko'nglimdan "o'ziniki emas", degan o'y o'tadi, darrov anavi sinfdosh dugonamni xotirlayman... Yo'q, kiyim-bosh odamning moddiy ahvolidan ko'ra ham uning shaxsiyati haqida ko'proq xabar bersa kerak... Shu payt, to'rva-xaltasining og'irligidan yonboshiga egilib, inqillab-sinqillab bizning o'rindiq sari kelayotgan to'lagina ayolga ko'zim tushadi, endi diqqat-e'tiborim u tomon ko'chadi. Ayol kela solib, zildek sumkasini "gurs" etib yerga qo'yadi, oyoqlarini kerib o'tirib oladi-da, dastro'moli bilan terlab ketgan yuz-bo'ynini arta boshlaydi. Sumkasining tutqichlari ikki yonga og'ib, ichidagi tunuka moy bo'yoq idishlar ko'rinib qoladi... Bu ayolni taniyman — eski hovlida turgan kezimiz bizning mahallada manzil shifokori edi. Egniga tor kelib qolgan g'ijim krepdeshin ko'ylagiga, poshnalari qiyshayib ketgan sarg'ish tuflisiga noxush nazar tashlayman. Taram-taram yorilgan tovonlari, kir, o'siq tirnoqlarini ko'rib esa batamom ta'bim tirriq bo'ladi. Bu kishi shifokor emish tag'in... O'zim ham anchadan beri tirnoqlarimga qaramay qo'yganimni eslayman. Ilgari tirnoq pardoqlamay sira ko'chaga chiqmasdim. Hammasi shunday mayda-chuydalardan boshlansa kerak — bu ketishda hademay, yonimdagiga o'xshash — bozorlarda og'ir to'rva-xaltalar ko'tarib terlab-pishib yuradigan, ust-boshi palapartish ayollarning biriga aylanib qolishim hech gap emas. Ey xudoyim, mana shunisidan biram qo'rqamanki...

Tunnel ichidan guvillab vagon chiqib keladi. Ayol tizzalariga tayanib og'ir qo'zg'oladi... O'rindiqda yana mallasoch qiz ikkovimiz qolamiz. Sendan hamon darak yo'q...

Xayollarim aylanib-aylanib ishxonaga — universitet radiosiga qaytadi. Ertaga og'ir kun. Besh para dars, beshinchi para soat uchda tugaydi, ishga roppa-rosa ikki soat kechikib boraman. Keyin bir emas, to'rtta fakultet orasida zir yugurib, dekanlardan bu yilgi kirish imtihonlariga tayyorgarlik haqida intervyu olib ulgurishim kerak — kelgusi eshittirishga ketadi. Uyga borgach esa, ehtimol yarim kechga dovur muk tushib dars tayyorlarman — indinga birinchi parada "Maxsus kurs" bo'yicha seminar. Ertalab yana o'qishga yugur, undan chiqib ishga... Yana ham muharririmiz yaxshi, kunda-kunora kech qolib kelishlarimga indamaydi — aytgan ishini vaqtida bitkazib bersam bo'lgani. Ochig'i, bizning ser-soql Maratga "muharrir" degan nom uncha "o'tirishmaydi". O'zi ham u qadar "muharrir" emas-da. Marat — biznesmen. Shaharning qayeridir yelim xalta ishlab chiqaradigan kichik korxonasi bor. Rektorat binosining ikkinchi qavatida joylashgan torgina xonamiz ham rasmangina universitet radiosi, aslida u Maratning korxonasi uchun idora sifatida xizmat qiladi, kelib-ketuvchilar orasida ham talaba-yu dotsentlardan ko'ra Maratning tijoratchi tanish-bilishlari ko'proq. Asosiy ishni to'liq stavkada ishlovchi Alfiya degan tatar qiz ikkovimiz bajaramiz, Marat faqat yo'l-yo'riq ko'rsatib, eshittirish matnini tekshirib, tahrir qilib berib turadi. Marat — xunukkina yigit. Bo'yi uzun, yelkalari turtib chiqqan, yuzidagi husnbuzarlarni yashirish uchun soqol-mo'ylab qo'yib yuradi. Lekin kiyinishni boplaydi, tagida yap-yangi "o9"i bor, topish-tutishi joyida. Shu bois rektoratdagi jamiki turmushga chiqmagan kotiba-yu hisobchilar Maratni "ilintirish" payida.

Alfiya — yaxshigina "olib-sotar"; undagi latta-puttalarni ko'rish bahonasida qizlar birlari olib, birlari qo'yib xonamizga kirib kelaverishadi, kirib kelaverishadi... Marat ularning niyatini biladi, ostonada qizlardan birovi ko'rinishi bilan darrov qovoq uyib oladi... Biroq yaqindan beri iqlimda o'zgarish sezila boshladi. Ikki oycha avval, oq shim, zangori kofta kiygan kalta sochli bir qiz tush payti Alfiyani yo'qlab kelgandi. Marat qizni boshdan-oyoq kuzatib qolganini ko'rib, Alfiya ikkovimiz darhol ko'z urishtirib olgandik. Qiz chiqib ketishi bilanoq Marat Alfiyadan uning kimligini so'rganida esa "voy" deb yuborishimga oz qoldi. Rektoratdagi qanchadan-qancha undan ko'ra yoshroq, chiroyliroq qizlarni nazarpisand qilmagan odam... Hammaning didi har xil-da. Masalan, menga, qizning yuzi qarimsiq va sovuq ko'ringandi. Alfiyaning aytishicha, kadrlar bo'limiga yaqinda ishga kelgan u qiz rektorning jiyani ekan, iqtisod fakultetida sirdan o'qirkan.

Qiz o'sha bir kelganicha qorasini ko'rsatmay ketuvdi, lekin o'tgan hafta, adashmasam, kunora Alfiyani so'rab kiradigan bo'lgandi. U har kirganida, Marat

o'zini garchi parvo qilmaganday tutsa-da, yuragi to'kilib ketguday bo'layotgani ko'zlaridagi besaranjomlik, qovushmagan xatti-harakatlaridan shundoq sezilib turardi. Kecha Alfiyani "turtkilab" ko'ruvdim, "hech kimga aytmaslik" sharti bilan bir sirni ochdi.

Qiz xonamizga birinchi marta "tashrif" buyurganidan o'n kunlarcha o'tib, Maksning (Alfiyaning xolavachchasi, Maratning firmasida ishlaydi) tug'ilgan kunida, kayfi oshib qolgan Marat Alfiyaga yorilibdi... Poytaxtga endigina kelgan kezlari, (Marat asli poytaxtlik emas, S. viloyatining qaysidir shahridan) ertalablar universitetga qatnayotib, ko'pincha tramvayda maktab libosidagi haligi qizga ko'zi tushar, o'shandanoq uni "yoqtirib" qolgan ekan... Bir ilojini topib, qiz bilan "tanishtirib" qo'yishni Alfiyadan o'tinib so'rabdi. Qulay payt kelishini poylab yurgan Alfiya, avvalgi hafta qizning serqatnov bo'lib qolganidan dadillanib, ilmoqli gap tashlab ko'rgan ekan xonimposhshaning joni-poni chiqib ketibdi. Keyin nima debdi deng... Oyning boshi Alfiya betob bo'lib ikki-uch kun ishga kelmay qolganida, Marat tushmagur, kadrlar bo'limiga borib, qizdan besh-olti bet "zarur" bir nimani mashinkada ko'chirib berishni iltimos qilibdi. (Ish bahona, diydor g'animat-da — yo'qsa kotiba degani qavatimizning o'zidayoq to'lib yotibdi.) Qiz darrov ko'chirib beribdi ham... "Endi radiolaringni yelkamning chuquri ko'rsin, — debdi u Alfiyaning gapini eshitib. — Faqat anavi qishloqi oliftalaringga ayt, marhamat qilib, mashinka haqini to'lab qo'ysin. Men unga tekin xizmatkor emasman. Yo hammani o'ziga o'xshab bebiliska pul topyapti, deb o'ylaydimi?

Ana to'laydi, mana to'laydi, deb shuncha kutdim, meni ko'rib zora esiga tushsa, deb xonasiga shuncha kirib-chiqyapman... Bu kishim bo'lsalar nima xayolga boribdilar. Soqol bosgan basharasiga qarasam ko'nglim ozadi-yu... "Voy xudo, voy xudo... Alfiya qizning aytganlarini shundoqligicha yetkazguday bo'lsa, Maratning aft-angori ne tusga kirishini tasavvur qilyapman... Bechora Marat! Chindan ham o'zicha nima xayollarda yurganiykin-a...

Yonginamdan "adidas" sport kiyimidagi, sochini tap-taqir oldirgan novcha yigit o'tib ketadi, qo'lidagi yopiq shamsiyadan suv tomchilayotganini ko'raman. Tashqarida yomg'ir yog'yapti... Mallasoch qiz "uh" tortib boshini xiyol ortga tashlaydi. Bo'ynidagi ingichka tilla zanjirga ko'zim tushadi, yana seni eslayman — yaqinda sen ham shunga o'xshash zanjir sotib olganding. Albatta, birjaning maoshi redaksiyaniki kabi emas...

Onam ham anchadan beri boshqa tuzukroq yerga, masalan, senga o'xshab birorta birja-mirjaga o'tib ishlashimni maslahat berardi. Men esa, dorilfununni bitirishimga oz qolgani, keyin bir yo'la to'liq stavka bilan o'shanaqa birjalardan biriga borishim mumkinligini aytib, ishni paysalga solaman. Aslida o'zimning ketgim yo'q. Turkcha qahva hidi o'rmashgan tinchgina xonamizga, kundalik yumushlarimga, ba'zan Alfiya, Marat uchovimiz o'tirib, bir piyola choy ustida o'tgan-ketganlardan g'iybatlashishlarimizga... umuman, shu yerning muhitiga juda qattiq o'rganib qolganman. Erta-indin o'qishim bitgach, baribir bu yerdan ketishim kerakligini o'ylasam, halitdan yuragim zirqiraydi. Dunyoda menchalik muqimtabiat kimsa bormikan o'zi...



Bugun odatdagiday, o'qishdan chiqib, rektorat binosining marmar zinapoyalaridan ko'tarilayotgan edim. Birdan qulog'imga Viktor Soyning tanish qo'shig'i chalindi. Qo'shiq bizning xonadan eshitalardi. Ko'nglim shunday orziqdi — bundan to'rt yil avval, radioga ishga yangi kelgan paytlarim yodimga tushib ketdi... O'shanda Viktor Soy rosa mashhur bo'lgan kezlar, xonamizdagi magnitofonda ham faqat uning kasetalari aylanardi. Unda muharririmiz boshqa — har kuni yarim soatgina ko'rinish berib, keyin g'oyib bo'lib ketadigan bir rus dotsenti; Marat esa yaqinida o'qishni bitirgan, hozirgiga qaraganda soddaroq, sergaproq, hazillashgina yigit edi. Hali butunlay "biznesmen"ga aylanib ulgurmagan — faoliyati faqat "yirik chayqovchilik" doirasida; ba'zan bizga adabiyotdan "ma'ruzalar" ham o'qib turardi hatto. "Ee-hhh... — derdi u chuqur nadomat bilan, — Katta adabiyotning vaqti o'tdi endi..." ("Katta adabiyot" deganida romanlarni emas, san'at darajasidagi butun adabiyotni nazarda tutadi.) XXI asrda Katta adabiyot qirilib bitmish tamaddundan yodgor tosh lavha kabi bo'lib qoladi go'yo. XXI asr kishilarida esa, lavhadagi yozuvni o'qish uchun qobiliyat ham, imkoniyat ham, xohish ham topilmaydi. Tosh lavha, o'lik tillar maftuni bo'lmish juda ozchiliknigina qiziqtirishi mumkin... Meni aytdi dersiz, yangi asrda odamlar oldi-qochdi romanlarni-da o'qishmaydi, e-e, ular nima, bora-bora hatto gazeta o'qimay qo'yishsa kerak. Faqat... faqat televizor ko'rishadi. "Agar qalamning orqasida non yemoqchi bo'lsang, senga maslahatim, — deydi u, garchi undan maslahat so'ramagan bo'lsam-da, — Gollivud uchun ssenariy yozishni mashq qil". Keyin ssenariy qanday yozilishi kerakligi haqida batafsil tushuntirish bera boshlaydi. Gollivud filmlari orasida eng xaridorgiri, tayinki — "ur-o'ldir" filmlar. (Bularni yumshoqroq qilib, "qochdi-quvdi" desa ham bo'ladi.) Ya'ni, Stallone, Shvartsenegger, Mel Gibson, Bryus Uillis, Stiven Sigal va hokazolar ishtirokidagi, rasman "voqeaband film" deb atalgan — bosh qahramoni mafiya bilan orani ochiq qilayotgan sobiq politsiya ofitseri yo davlat miqyosidagi jinoiy operatsiyani fosh etayotgan xavfsizlik xizmati xodimi, yo haqiqatni yuzaga chiqarish yo'lida jon tikkan, favqulodda ziyrak-zehnli, favqulodda epchil-ud-daburon va ishonarsiz darajada omadli reportyor va yo Jeyms Bond yoki Rembo — xullasi kalom, shuncha otdi-quvdi, ur-o'ldir, yondir-kuydirdan so'ng ham tirik qoladimi-yo'qmi, ishqilib, oxirida albatta g'alaba qozonadigan shaxs bo'lmish filmlar. Biroq, bu yog'liq luqmaga ko'z tikib xomtama bo'lmaganim ma'qul — bunisi Gollivuddagi "nahang"lardan ortmaydi. "Sport — karate" filmlarning ham bozori chaqqon, lekin, bu yerda ham "yorib chiqish" mush-

kul; bir yoqda Stallone va Van-Dammlarning o'zi ssenariy yozib yotgan bo'lsa. Stalloneni yoqtirmasada, Marat "Rocky" seriyalarini Gollivudning eng yaxshi filmlaridan hisoblaydi. (Marat u yoki bu filmning muvaffaqiyati qaysidir darajada uning musiqasiga ham bog'liqligini ta'kidlab o'tadi, masalan, "Rocky V"ning finalidagi qo'shiq, filmning yarmi darajasidagi kuchga ega emish.) Komediya ham yaxshi narsa, ammo bu borada omadim chopishi dargumon — Maratning fikricha, menda umuman yumor hissi yo'q emish. Uning navbatdagi aqlli maslahatiga rioya qilgan holda, dedektiv, sarguzasht-fantastika, drama va yana tarixiy mavzudagi filmlarni ham chetlab o'tganim durust. Shu yerga kelganda u istehzoli jilmayadi: "Kompyuter asrida Gyugo va Dyumaning nomini insoniyat faqat Gollivud filmlari titrida ko'rsa ajab emas. Tabiiyki, original "iste'molchilar" didiga mos ravishda surbetlarcha "takomillashtirilgan" bo'ladi, bechora klassikning ism-sharifi esa, titrda kostyum dizayneridan ham keyinga qo'yiladi". Shunday qilib, uning nazarida menga eng mos keladigani — "psixologik triller". Biroq, ssenariy muvaffaqiyatli chiqishi uchun personajlar orasidan odamxo'r yoki vahshiy sadist joy olishiga aslo zarurat yo'q, deylik, qahramonlarning biri — iqtidorli ruhshunos olim (bu qahramon o'rta yoshlardagi xushsurat ayol bo'laqolgani yaxshi), yana biri — og'ir depressiya holatidagi millioner yo mashhur kinoprodyuser, uchinchisi esa — olimni ta'qib qilayotgan ruhiy xasta o'spirin... Marat birpasda ssenariyning xomaki nusxasini chizib beradi. Yurak qoquvchi vahima, ko'ngil fojiasi, kutilmagan vaziyatlar va... umidsiz sevgi melodramasidan iborat mudhish mozaika... Xudo haqqi, voqealar shu qadar qiziq, kutilmagan yo'nalishlarda rivojlanadi, ayniqsa, filmning oxirgi epizodlari shu qadar ta'sirli, jozibador chiqadiki, beixtiyor hammamiz chapak chalib yuboramiz — go'yo kino ko'rib rosa mazza qilgan odamlarday. Alfyaning ko'zidan yosh dumalaydi hatto. "Eh, agar vaqtim bo'lganidami..." — deydi o'z-o'ziga qoyil qolgan Marat, kaftlarini ishqalagancha... Lekin shu narsaga jiddiy qo'l urmoqchi bo'lsam, hammualliflik qilishga bajonidil rozi.

Marat xayolparast emas — ssenariylarimni kimdir sotib olishini istasam, avvalo o'zim Gollivudga yaqinroq yerga ko'chib borishim lozimligini eslatib o'tishni unutmaydi. Shuningdek, to biror prodyuserning diqqatini tortgunga qadar, balki hatto idish-tovoq yuvuvchi bo'lib ishlab turishimga to'g'ri kelishi, bu lavozimda bir umr qolib ketmaslik uchun esa, "kerakli odamlar"ni xira pashsha misol ta'qib qilmog'im zarurligini ham...

Ma'ruzalarini, Marat har gal, albatta, biror kutilmagan xulosa bilan yakunlardi: "Yangi asrda Katta



adabiyotning bo'lmisligi bir tomondan yaxshi", — derdi, masalan. Chunki Katta adabiyot, ba'zilarning yashash qobiliyatiga salbiy ta'sir o'tkazarmish...

U paytlar Alfiya bilan yarim moyanada Zarina ismli qaddi-qomati nihoyatda kelishgan chechen qiz ishlardi. Zarinaning orzusi — fotomodel bo'lish; shaharda o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarning birorasidan quruq qolmasa-da, negadir hanzu omadi kelmay turardi. Maratning ham orzusi bor edi — Avstraliyaga ketib, bir umr o'sha yerda yashab qolish (Nega endi Amerikaga emas — hayronman). Zarinaning ish stoli tepasida suratli taqvim bo'lardi, suratda daryo qirg'og'iga taqab qurilgan yarim xitoycha uslubdagi shinamgina uy aks etgan, uyning orti — ufqqa qadar cho'zilmish yam-yashil quyuc o'rmon, qirg'oqda esa eshkakli qayiq bog'loqliq edi. Marat agar Avstraliyaga borib katta biznesmen bo'lib ketsa, o'ziga xuddi shunaqa manzarali yerdan xuddi shunaqa uy qurib olishi, hordiq kunlari o'rmonga chiqib yovvoyi o'rdak ovlashi yoki qayiqqa o'tirib daryoda uzoq-uzoq sayr qilishlarini aytib, bizni ham bir zum pushti rang xayollar olamiga olib ketardi... Mabodo, umrining oxirigacha orzusi ushalmay, shu yerlarda o'lib ketguday bo'lsa, murdasini kuydirib, kulini Avstraliya uzra sochib yuborishlarini vasiyat qilib qoldiradigan bo'lar, eng qizig'i, bu vasiyatni u vaqtga kelib, jahon miqyosidagi fotomodel bo'lib yetishgan Zarina bajarishi lozim edi. (Albatta, uy va vasiyat haqidagi gaplar bizni kuldirish uchun-gina aytilardi faqat, ammo o'sha paytlar Marat Avstraliyaga ketishni jiddiy rejalashtirgani rost) Orzular menda ham yo'q emasdi. Ssenariy yozib "Oskar" olishni xayol qilmasam-da, har qalay...

Kechalari esa magnitofonni pasaytirib qo'yib, xotirjam dars tayyorlardim. Tashqarida qish edi, Soyning qo'shiqlarida ham. Ko'zlarim satrlar uzra yuguraverib charchagan mahal, bir dam boshimni ko'tarib derazadan hovliga nazar tashlardim. Hovli yuzi, dov-daraxtlar qalin qorga belangan, tun ham allaqanday ko'kimtir tusda ko'rinardi... Ertalab kun yorishmasidan o'qishga otlanardim, metrodan chiqishim bilanoq rektoratning baland oq binosiga ko'zim tushar, endigina birinchi kurs talabasi bo'lishimga qaramay, shu binodagi xonalarning birida mening ham ish stolim borligi, kursdoshlarim uch-to'rt yillardan so'ng bajara biladigan ishlarni men allaqachon o'rganib ulguranim, o'qishni ham, ishni ham birday eplab borayotganlarimni o'ylab ko'nglim ko'tarilardi. O'sha kezlarda asta-sekin kichik-kichik hikoyalarda mashq qila boshlagandim, bir-ikkitasi bosilib chiqqandi hatto.

Xullas, o'sha qish, hayotimning boshqa hech bir pallasida bo'lmagan chuqur va go'zal ko'ngil oromi ichra yashagandim...

Endi esa u farahlar yo'qolgan, hammaning xayolida faqat tirikchilik tashvishi. Hali ro'zg'or, bola-chaqa degan narsalar paydo bo'lsa, tashvishlar yana ortadi. Orzular yanada uzoqlashadi. Uzoqlashib-uzoqlashib, ko'zimizga ko'rinmay ham ketsa kerak bir kun. Biz esa kundalik ikir-chikirlarga o'ralashib-kuymalashib yuraveramiz-yuraveramiz... Shu tarzda umr ham o'tib ketadi. Mana, nimalarni eslatgandi Soyning qo'shig'i bu gal...

Soat olti-yu qirq... Endi jo'navversam ham bo'ladi. Lekin yana bir oz kutishga ahd qilaman. Keyin yana bir oz. Yana bir oz...

Orqada g'ong'ir-g'ong'ir tovushlar eshitiladi. Boshimni burib, o'n qadamcha narida turgan qizlarni ko'raman. Qizlardan biri — u bizning fakultetni ikki yil avval bitirib ketgandi, hozir adashmasam, televideniya ma'mur edi, shekilli — bosh irg'ab men bilan salomlashgan bo'ladi, men ham xuddi shunday javob qaytaraman. Yonimdagilar ham tanish — sharqshunoslik fakultetining qizlari, har chorshanba beriladigan "Arab tilini o'rganamiz" ko'rsatuvida chiqishadi. Hozir hammalari televideniya kelish-yapti chog'i. Administratorning oyog'ida mallasoch sherigimnikiga o'xshash platforma tuflari. Solishtirib ko'raman — baribir sherigimniki yaxshiroq. Xuddi shu payt mallasoch men tomon o'giriladi. Faqat shu payt... qizning xushro'ygina emas, juda-juda go'zal ekanini payqayman. Ko'zlarining rangi lol qoldiradi, bunaqasini umrim bo'yi ko'rmaganman — na ko'kish, na moviy, va na zangori — lojuvard halqa bilan o'ralgan och nastarin rangida. "Shunda meni uning husni-jamolidan ko'ra ko'zlaridagi hech kimning boshiga tushmagan g'ayritabiiy yolg'izlik anduhi o'ziga rom etdi...". Balki Marat haqdir — adabiyot chindan ham yashash qobiliyatini susaytirar...

Tunnel qaridan guvillab shamol esadi, bir ozdan so'ng qizg'ish chiroqlar ko'rinadi. Qiz sumkacasini yelkasiga osib o'rnidan turadi. Tuyqus, bo'ynidagi zanjirga ilig'liq xochni ko'rib qolaman. Negadir ko'nglim xira tortadi... Qizning qomati juda chiroyli. Bo'yi juda baland — bunaqa bo'y faqat fotomodellarga yarashadi. Beixtiyor men ham taraddudlana-

man. Endi tushunaman — boyadan beri meni bu yerda ushlab turgan ham shu qiz ekan.

Poyezd yaqinlashishi bilan qiz birdan yana o'rindiqqa qaytadi. Nima qilarimni bilmay kalovlanaman... Vagon sari yurmoqchi bo'laman — nimadir yelkamdan bosadi. Yana haykalday qotgan qiz tomon jovdirayman... Eshiklar yopilib, vagon joyidan jiladi... Poyezd ketib bo'lgachgina o'z-o'zimdanda achchiqlana boshlayman. Kim o'zi bu qiz, nega unga bunchalar yopishib oldim? Menga desa, shu yerda tunab qolmaydimi... Nogoh elektron soatga ko'zim tushib kapalagim uchib ketadi — yettidan o'n minut o'tibdi! E-e, kechirasan dugona, kutish bo'lsa — shunchalik bo'lar. Sen ham kechirasan, yaxshi qiz, seni bilmadim-u, ammo mening sabrim ado bo'ldi. Hali uyga borib qiladigan ishlarim qancha...

Lekin naqadar bema'nilik — nari ketish o'rniga, men ham joyimga qaytaman... Qiz nimadir deganday bo'ldi. O'girilib, lablari nimanidir unsiz shivirlayotganini ko'raman. Duo o'qiyotgan kabi go'yo. Keyin u bo'ynidagi xochni paypaslaydi. Birdan qo'li musht bo'lib tugiladiyu siltab xochni uzib oladi... Yo'q, seskanib tushmayman. Faqat o'sha daqiqadan boshlab vujudimda lohaslik sezaman. Nafas olishim qiyinlashadi. Yutinmoqchi bo'laman — tomog'imni shisha sinig'iday bir nima tilib o'tadi. Qulog'im esa tom bitganday...

Tunnel ichida yana chiroqlar ko'rinadi... Tezroq bu yerdan daf bo'lishim kerakligini bilaman, ammo qimirlashga madorim yetmaydi.



Go'yo hamon nimadir yelkamni bosib turganday... Vagonlar kelib ketaveradi, kelib ketaveradi... Yelkamda qo'lning taftini tuyaman. Sen... Darrov yonimga o'tirib, bir nimalarni tez-tez gapirishga tushib ketasan. Ko'rinishing horg'in. Yo menga shunday tuyuladimi... Ora-sira yelka qisib, qo'llaringni ikki yonga yozib qo'yasan — nega kech qolganingni tushuntiryapsan, shekilli? Yuzingda yalinchoq ifoda bilan bosh tebratishlaringdan uzr so'rayotganingni fahmlayman.

Qarshimizda vagonlar kelib to'xtaydi. Sen o'rningdan turib "ketdikmi?" deganday ishora qilasan. Bir amallab qo'zg'olaman, shu ondayoq ko'zim tinib, tiz-zalarim bukilib ketadi. Albatta, buni sezdirmaslikka urinaman. Eng muhimi — qiz tomon qaramaslik... Vagonga chiqayotib o'zimni bo'shliqqa qulab tushayotganday his qilaman, ko'nglim behuzur bo'ladi. Eshiklar yopilgani zahot ko'zimni chirt yumib olaman. Sen betob emasligimni so'raysan. Indamay bosh chayqayman. Poyezd shitob bilan tunnel qa'riga sho'ng'iydi...

Nihoyat yer ustiga chiqamiz. Kun hali yop-yorug'. Mashina yo'lini kesib o'tishimiz bilan, ikki chetini baland akas daraxtlari egallagan qadrton yo'lka boshlanadi. Yomg'irdan so'ng qoramtir tusga kirgan asfaltning u yer-bu yeridagi katta-kichik ko'lmaklarni chetlab-chetlab ilgari odimlaymiz. Qulog'imdagi shang'illash tinib, ustimizga "duv-duv" suv to'kkancha shoxdan-shoxga sakrab yurgan qushlarning "chirq-chirq"ini eshita boshlayman. Birdan sen "Boychechak"ka kirib o'tishni taklif qilasan. "Boychechak" — o'ttiz qadamcha naridagi muzqaymoq kafesi, maktab yillari bu kafega tez-tez kelib turardik. Darrov bosh irg'ab rozilik bildiraman. Tuyqus ko'nglim yorishib ketadi... Kech qolib bo'lsa-da, — sening kelganing, endi shu xushbo'y akaslar ostida birga yurib borayotganimiz, oldinda esa hali "Boychechak" kutayotgani... Hozir shulardan boshqasi haqida o'ylamaslik kerakligini sezaman. Jilmayaman, yuzimga tetik tus berib, o'zimni seni berilib tinglayotganday ko'rsataman, hatto nimalarnidir so'rab ham qo'yaman. Egningdagi yangi — mayda gulli shoyi ko'ylagingga endigina nazarim tushadi. Bu meni bir oz hayron qoldiradi — yangi kiyimlaringni faqat to'ydan keyin kiya boshlasang kerak deb o'ylandim. "Boychechak"ka kirganimizda, oyna yonidagi "doimiy" joyimiz bo'shligini ko'rib sevinib ketasan. Mendan darhol stolni band qilishni so'rab, o'zing peshtaxta tomon yurasan. Kursini derazaga yaqinroq surib, tashqaridagi ko'lmaklarni kuzataman. Bolaligimda, eski hovlida yashagan kezlrimiz, har gal yomg'irdan so'ng hovli yuzida to'planadigan ko'lmaklarni tomosha qilishni

yaqshi ko'rardim. Ko'lmaklarda ko'zni olar darajada ko'm-ko'k osmon, pag'a-pag'a oppoq bulutlar aks etardi; ba'zan ularga yaqinlashishdan cho'chirdim — bexos bir qadam qo'ysam bas, o'sha osmon qa'riga g'arq bo'ladiganday... Yana xomush tortib qolaman. Hech nima haqida o'ylagim kelmaydi. Tezroq uyga ketishni istayman faqat.

Qo'lingda muzqaymoqli likopchalar bilan qaytib kelasan. O'tirishing bilanoq sumkangandan yupqagina konvertni chiqarib stol ustiga qo'yasan. Sanab ko'rishimni iltimos qilasan. "Keragi yo'q" deganday qo'l siltagancha konvertni yashiraman. Ostonada qiy-chuv ko'tarishib bir to'da qizaloq paydo bo'ladi. Ikkovimiz ham g'amgin kulimsiraymiz — "Boychechak", turgan gap, "mishiqlar"ning makoni...

Kafedan chiqqanimizda endigina g'ira-shira qorong'ilik tushayotgan bo'ladi. Yana boyagi yo'lka bilan ortga qaytamiz. Chap tomonda — Nikolay II davrida qurilgan, derazalari baland-baland uylar. Ulardan so'ng Pushkin nomli rus maktabining panjarali devori boshlanadi... Maktab darvozasi yonida qo'l berishib xayrlashamiz. Xayrlashayotib, sen yana bir marta bugungi kechikishing uchun uzr so'raysan. Keyin men muyulishga kirib ketaman, sen tramvay bekati tomon chopasan.

Negadir to'xtayman. O'girilib ortingdan qarab qolaman. Sen chiqib olishing bilan tramvay joyidan qo'zg'oladi. Shu payt birdan... vujudimni nimadir tark etayotgani, bir umrga tark etayotgani — erta tong uyg'ongan mahalim hayotimda nimaningdir o'rni bo'm-bo'sh bo'lishini his qilaman. O, shu qadar aniq his qilaman buni va bu meni shu qadar sarosimaga soladiki, qichqirgancha tobut... ya'ni tramvay ortidan yugurishni ham (garchi bu bilan hech nimani to'xtatib qololmasam-da — hatto... tramvayni) va yo turgan yerimda toshday qotishni ham bilmayman...

Avgustgacha sen bilan yana ko'p bor uchrashamiz, bir gal "Boychechak"ka ham kelib-ketamiz hatto... Tabiiyki, to'yingda ishtirok etaman. Umuman, yoz juda fayzli, osoyishta o'tadi.

Falakning gardishi — kuzda men xorijga jo'nab ketaman. Va shu bilan seni ham, bu o'lkaning yozini ham qaytib ko'rmayman. Lekin o'sha oqshom — N. bekati, mallasoch qiz, sening shoyi ko'ylaging, uzoqlashayotgan tramvay va o'sha tramvay bilan birga yana nimaningdir uzoqlashayotganini ko'nglim sezgani... mana shular bir umr yodimda qoladi... Faqat hech anglab yetolmayman — nima edi u, men bilan vidolashayotgan? Telba ko'ngil azoblarimi? Yoshlik shavqimi yo hayot zavqi... Baxtmidi yo? Yo baxt sog'inchi? Orzularmi, umidlarmi... ilinjlarimi?

Va yo shunchaki... tugayotgan faslning so'nggi oqshomi?..



QITLERNING

REJASINI BARBOD OILGAVIYOI O'ZBEK

B

iz urush yillari haqidagi hikoyalar bilan o'sib-ulg'ayib, tarbiyalanganimiz sababli, u yillar haqida deyarli hamma narsani bilamiz, deb hisoblar ekanman. Bir vaqtlar qalbimizni jarohatlagan o'sha dahshatli urush haqidagi hikoyalar, filmlar va tarixiy yodnomalar bizni shunchalik toblabdiki, natijada qalbimizdagi yaralardan shunchaki chandiq qolib, yana bir mudhish hikoya u qadar og'ir botmaydigandek tuyulgan ekan. Oradan 85 yil o'tib ilgari sodir bo'lgan hodisalarni cheksiz g'am-anduh va ko'zda yosh bilan o'qishga majbur qiladigan sabab topilishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmagan ekanman. Tarix. Bundan 85 yil muqaddam Ikkinchi jahon urushi boshlangan palla. Sir emas, bu mash'um voqea chin ma'noda jahonaro umummilliy falokatga aylangan edi. Garchi O'zbekiston frontdan bir necha chaqirim olisda bo'lsa-da, urush o'chog'idan taralayotgan sovuq xabar yurtimizdagi har bir uyga kirib kelgandi. Ma'lumotlarga ko'ra, mehnatga layoqatli har ikkinchi kishi jangga otlangan.

Bir yuzi bir askar. O'zbek SSRidan Ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar tomonidan Gollandiyaga keltirilgan o'g'lonlar. Ular Amerfort lagerida Gebbels ssenariysi bo'yicha nemis askarlarining ruhini ko'tarish maqsadida muhim qo'g'irchoqlar bo'lishi kerak edi. Biroq bu reja chippakka chiqdi. O'zbeklar ularning nog'oralariga o'ynamadilar.

Urushning dastlabki oylarida yuzdan ortiq hamyurtlarimiz Smolensk ostidagi janglarda nemislar tomonidan asir tushirilgan. Asirlikda nemis fashistlari yosh o'zbek yigitlaridan targ'ibot-tashviqot vositasi sifatida foydalanmoqchi bo'lishadi. Ular sovet harbiy asirlari safidan irqiy xususiyatlariga ko'ra tanlab olingan vatandoshlarimizni uzoq vaqt oziq-ovqatsiz och qoldirishadi. Keyinchalik shu yerga mahalliy qishloq va shaharlarda yashovchilarni olib kelib, ularga hayvon qiyofasiga kirgan sovetlarni namoyish etishga qaror qilishadi va shu bilan birga bu hodisani kinotasmaga tushirmoqchi bo'lishadi. Reja bo'yicha ushbu asirlar bir necha hafta davomida ochlikda saqlanishi, shundan so'ng maxsus suratga

**101 nafar o'zbekistonlik
tarixi shunchaki urush
epizodi emas**



olish maydonida ularning oldida yangi pishirilgan non tashlanishi lozim edi. Ochlikdan o'z qiyofasini yo'qotgan odamzot bunday paytda o'lar-qolariga qaramay o'zini nonga tashlashi tabiiy. Ular bu manzarani eng zamonaviy kameralarda suratga olib, Moskva uchun jangga hozirlanayotgan fashist askarlariga: "Mana ko'ring, bu odamsimon maxluqlar shu qadar vahshiyki, ular bir parcha non uchun hamma narsadan kecha oladi. Ularni osonlikcha yengish va pashshadek qirish mumkin. Ularga aslo shafqat qilish kerak emas. Axir mana shunday tuban maxluqlar shafqatga munosibmi?", deb ko'rsatmoqchi bo'lishadi.

101 nafar o'zbek o'g'lonini Gitler boshchiligida o'ylab topilgan mudhish rejani amalga oshirishda foydalanish uchun o'sha paytlarda fashistlar qo'l ostida bo'lgan Gollandiyaning Amersfort shahridagi konslagerga olib kelishadi. Ular ma'lum muddat ovqatsiz, suvsiz eng qiyin sharoitlarda saqlanadi.

O'tuvdan oldin baralla ovozdada o'zbekcha qo'shiq kuylashdi

Nihoyat kutilgan kun keladi. Reyxning yuqori ruttali amaldorlari "antiqa" tomoshani ko'rishga jamlanishadi. Operator va rejissyorlar o'ljasini poylayotgan ovchidek "bir-birini g'ajishga tayyor" maxluqlarning "hayot uchun vahshiyona kurashi"ni suratga olishga shay turishardi. Mana, ochlikdan sillasi qurigan, o'zlari ham qurib bir hovuchgina suyakka aylanib qolgan asirlarni qo'ylar qo'rasini eslatuvchi, to'rt tomoni panjara bilan o'ralgan "sahna"ga haydab kelishdi. Taklif qilingan mahalliy aholi va tasviriy guruh kelib, ularni kameraga muhrlay boshlagan onda, asirlarga buxanka nonini irg'itishadi. Fashistlar bu o'rta osiyoliklar ovqat uchun bir-birini urib o'ldiradi, deb o'ylab turgan damda, yigitlarimiz aylana shaklida o'tirib olishadi.

Hamma jim, hamma ulardan ko'z uzmasdi. Ammo... kutilgan tomoshadan asar yo'q. Ular bir necha hafta ochlikda saqlanmaganmidi? Yo ularni soqchilar maxfiy ravishda "shohona taomlar" bilan siylashdimikin? Axir nega ular joyidan qimirlamayapti? Axir butun reja mana shu "kulmination" sahna uchun tuzilmaganmidi? Nihoyat askarlar orasidan eng kichkinasi, hali 18 yoshga ham to'lmagani ko'rinib turgan o'spirin safdan ajralib chiqadi. Ohista yerda yotgan nonni olib, ikki qo'llab ko'ziga surtadi. Keyin safdagi eng yoshi katta askarga olib boradi.



O'ttiz besh yoshlardagi askar ham nonni tavof qiladi. Keyin undan bir bo'lagini sindirib, yonidagi sherigiga uzatadi. U esa boshqasiga... shu tariqa butun non 101 bo'lakka teng taqsimlanadi. Tabiiyki, bu bo'laklar oylab och o'tirgan yigitlar tishining kovagida qolib ketardi. Ammo, ular azaliy odatga sodiq qolib "bir mayizni qirq bo'lish" tamoyiliga amal qilishgandi. Har biri o'ziga tegishlisini oldi, talashmadi. Tamaddidan so'ng Xudoga shukur degan shivirlar atrofni tutdi. Nemis fashistlar bu manzara oldida lol qolishgandi. Hafsalasi pir bo'lgan fashist rahnamolari so'kina-so'kina tomoshagohni tark etishdi.

Bu sharmandalik uchun natsistlar shafqatsiz qasos olishdi. Asirlarni chalajon qilib kaltaklashdi, og'ir ishlarni qildirishdi. 1941-1942-yillar qishidan yengil yozgi kiyimda, ovqatsiz 77 kishi chiqa oldi, 24 kishi kasallik va ochlikdan vafot etdi.

Bahorga kelib, bu insonlarni ruhan sindirib bo'lmasligini tushungan lager rahbariyati ularni yo'q qilishga qaror qildi. 1942-yilning 9-aprel kuni 77 nafar askarni boshqa joyga ko'chirish bahonasida lagerdan olib chiqib ketishdi. Ular lager yaqinidagi

Kudrist (Koedriest) o'rmoniga olib kelindi.

O'limga olib ketilayotganini tushungan, eti suyagiga yopishgan, biroq ruhan taslim bo'lmagan o'zbek jangchilari boshlarini tik ko'tarib mag'rur holda qadam tashlashdi. Otuvga buyruq berilishi oldidan ular bir-birlarining qo'llarini mahkam ushlashdi va baralla ovozda o'zbek tilida vatan haqidagi qo'shiqni

Bir burda non uchun o'zini sotmagan mag'rur osiyoliklar hikoyasini yetkazib kelishdi

kuylay boshlashdi. Shu onda pulemyotlar ovozi yangradi. 77 nafar qahramon yerga yiqildi, lekin ularning ruhi g'olibligicha qoldi.

Uzoq yillar davomida bu qahramonlik to'g'risida deyarli hech kim bilmadi. Nima uchun? Chunki 1945-yil bahorida mag'lubiyat yaqinlashayotganini sezgan Amersfort konslageri rahbariyati barcha arxivlar va asirlar ro'yxatini yoqib yo'q qildi. 101 nafar o'zbekistonlikning ism-sharifi ham kulga aylandi. Fashistlar o'z sharmandalıkları va bu askarlarning matonati to'g'risidagi xotiralarni o'chirib tashlashga urinishdi. Hozirga qadar ulardan ikki nafarining ism-sharifi ma'lum ekanligi aytiladi: Hotam Qodirov va Zoir Murotov.

Bu yerda 5-may sanasi hal qiluvchi tarixiy ahamiyatga ega. Agar 1945-yil 5-may kuni Niderlandiya ozod qilinmaganida, natsistlar nafaqat qog'oz arxivlarni, balki barcha tirik guvohlarni ham jismolan yo'q qilishga ulgurgan bo'lardi. Ammo aynan shu kuni kelgan ozodlik Amersfort shahri aholisini (asirlarning shaharga olib kelinganini ko'rgan Henk Brukhauzen kabilarni) va boshqa millatlarga mansub tirik qolgan mahbuslarni saqlab qoldi. Ular bir burda non uchun o'zini sotmagan mag'rur

osiyoliklar haqidagi hikoyani bir-birlariga yetkazib kelishdi. Aynan 5-may kuni millatning ozod qilinishi hollandlar ongida bu xotirani saqlab qoldi.

Urushdan chuqur jarohat olgan hollandlar ozodlikka erishgan kunidayoq o'z erkinligi uchun jonini fido qilganlarni hech qachon unutmazlikka ont ichdilar. Ozodlik kuni (5-may) har doim Xotira kuni (4-may) bilan ketma-ket nishonlanadi. Aynan shu an'ana tufayli Amersfort yaqinida – "Sharaf maydoni" (Rusthof) memoriali bunyod etilgan. Bu yerga 865 rusovet askarining qoldiqlari, jumladan, o'zbekistonliklarning nomsiz qabrlari ehtiyotkorlik bilan ko'chirilgan.

5-mayga bag'ishlangan bahoriy xotira tadbirlari davomida bu tarix asta-sekin yuz ko'rsata boshladi. 1990-yillar oxirida yosh holland jurnalisti Remko Reyding bu yerga kelib, Niderlandiya markazida yuzlab ismi noma'lum sovet askarlari yotganidan hayratda qoladi.

Mahalliy aholidan 101 o'zbek haqidagi uzuq-yuluq afsonani eshitgan Reyding 20-yildan ortiq umrini ushbu voqeani o'rganishga bag'ishladi. U Rossiya va O'zbekistonga bordi, arxivlarni ko'rdi, bedarak yo'qolgan askarlarning yaqinlari bilan uchrashdi.

Har yili Ozodlik kunida yuzlab hollandlar ko'p yillik an'anaga ko'ra Kudrist memoriali va "Sharaf maydoni"da yig'ilishadi. Ular 101 nafar o'zbekistonlik xotirasiga shamlar yoqishadi. Bu kunlarda dunyo bo'ylab filmlar namoyish etiladi, ko'rgazmalar o'tkaziladi. 2025-yil may oyida Lyosden shahrida "Soviet War Cemetery Experience" muzeyi ochilgan bo'lib, u yerda O'zbekiston hukumati qo'llab-quvvatlovi ostida bu qahramonlarga bag'ishlangan 101 ta ramziy qabr toshidan iborat yodgorlik barpo etilgan.

Holland zaminiga ozodlik kelganiga 80 yildan oshdi, Kudrist o'rmonida 77 nafar yengilmas insonning qo'shig'i to'xtaganiga esa 85 yil bo'ldi. 101 nafar o'zbekistonlik tarixi – bu shunchaki urush epizodi emas.

Tarix fashistlar ustidan o'z hukmini o'qidi



Bu insonni insonligicha saqlab qoladigan qadriyatlar haqidagi buyuk hikoyadir. Natsistlar odam ochlik va qo'rquv oqibatida hayvonga aylanishini isbotlamoqchi bo'lishgandi. Ammo quyoshli O'zbekistonda tug'ilgan 101 askar uylaridan minglab kilometr olisda, konslagerdagi og'ir sharoit va qahraton sovuqda buning aksini isbotlashdi. Ular madaniyat, ahillik, insoniylik hech qanday ochlik, qiynoq yoki qurollar sindira olmaydigan poydevor ekani ko'rsatishdi.

Oradan yillar o'tdi. Urush tugadi. Tarix zolim fashistlar va ularning rahnamolari ustidan o'z hukmini o'qidi. Nemislarning vahshiy rejasini barbod qilgan o'zbeklar haqidagi hikoya esa, o'sha mash'um onlarning guvohi bo'lgan mahbuslar xotirasi orqali bugungi kungacha yetib keldi.



NASIBA SODIQOVA:

Bugungi o'zbek san'atida iste'dodi, mehnatsevarligi va izlanishlari bilan ajralib turgan yosh ijodkorlar safi tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, teatr va kino san'atida o'zining mustahkam o'rnini topishga intilayotgan, yutuqlari bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yoshlar e'tiborga loyiq. Ana shunday iste'dodli san'atkorlardan biri O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakulteti "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Nasiba Sodiqovadir.

Nasiba Sodiqova qisqa vaqt ichida teatr, kino va opera yo'nalishlarida o'zining ijodiy salohiyatini namoyon etib, qator yutuqlarga erishdi. U 2022-2023-yillarda Zo'r TV telekanalining "Aktyor" loyihasida faxrli 3-o'rinni egalladi, "Yoshlar ovozi - 2024" tanlovining hududiy bosqichida opera yo'nalishi bo'yicha 2-o'ringa sazovor bo'ldi. 2024-yildan boshlab esa O'zbek milliy akademik drama teatrida yakka tartibda chaqiriluvchi aktrisa sifatida faoliyat yuritib, "Arshin mol-olon" spektaklida Telli va Anor obrazlarini mahorat bilan ijro etib kelmoqda.



"O'ZIMNIKI
BO'LGAN
YO'LDAMAN..."



Yosh aktrisaning ijodiy faoliyati kino san'atida ham muvaffaqiyatli davom etmoqda. U "Dunyo-ning chekkasida" qisqa metrajli filmida bosh rolni ijro etib, mazkur film Hindistonda o'tkazilgan xalqaro festivalda "Eng yaxshi ekologik film" nominatsiyasiga sazovor bo'lishiga munosib hissa qo'shdi. Shuningdek, "Halima Nosirova", "Qari qiz", "Tariq", "Cho'liq", "Va'da", "Temurbeklar maktabi" kabi filmlarda turli xarakterdagi obrazlarni gavalantirib, tomoshabin e'tiborini qozondi. Ijodkor talaba o'zining sahnadagi mahorati bilan ham ko'plab tanlovlarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Jumladan, "Eng yaxshi monolog ijrochisi" tanlovida 1-o'rinni egalladi, Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligi hamda Qozon davlat madaniyat instituti hamkorligida tashkil etilgan xalqaro tanlov g'olibi bo'ldi. "Yil talabasi - 2023" va "Yil talabasi - 2024" tanlovlarida "Yilning eng faol iqtidorli talabasi" nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgani esa uning nafaqat ijodkor, balki faol va izlanuvchan yosh ekanini ko'rsatadi.

Biz iste'dodli aktrisa Nasiba Sodiqova bilan uning ijodiy yo'li, sahna ortidagi mehnati, muvaffaqiyatlari va kelajak rejalari haqida suhbatlashdik.

* * *

– San'atga kirib kelishingiz tasodifmi yoki ichki ehtiyoj natijasi?

– Yo'q, bu mutlaqo tasodif emas. Menimcha, san'atga chin dildan kirib kelgan inson buni juda erta his qiladi. Menda ham shunday bo'lgan. Hali 8-sinf vaqtlarim-dayoq kelajagimni aynan shu soha bilan bog'lashimni ich-ichimdan bilardim. O'sha paytlarda ham o'zimga aniq maqsad qo'yganman: "falon yillarda kollejda, keyin esa O'zDSMIda o'qiyman", deb tasavvur qilardim. Bu oddiy orzu emas, ichki tug'yon va katta qiziqish edi.

Maktab davrimda "Turon" talabalar teatr studiyasiga qatnashardim. O'sha yerda sahna muhiti, repetitsiyalar, aktyorlarning ishlash jarayoni meni juda o'ziga tortardi. Sahnada ortidagi mehnatni ko'rib, aktyorlikning naqadar murakkab va shu bilan birga sehrli kasb ekanini his qilganman. Menimcha, inson qalbida bir kuch bo'ladi — u seni o'zingniki bo'lgan yo'lga yetaklaydi. Agar shu ichki ovozni eshita olsang va unga sodiq qolsang, u seni albatta o'z manzilingga olib boradi.

SAHNA KIM ISHLAGANI, KIM ISHLAMAGANINI KO'RSATADI



– Aktyorlik siz uchun kasbmi yoki hayot tarzi?

– Men uchun aktyorlik avvalo kasb. Lekin bu kasb oddiy ish emas, u insonning butun hayoti va dunyoqarashi bilan bog'liq. Chunki aktyor sahnada faqat matn aytmaydi — u o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'usi va ruhiyati bilan ishlaydi. Shuning uchun aktyorning qanday inson ekani uning ijodida sezilib turadi. Menimcha, hayot tarzimiz qancha tabiiy, toza va rostgo'y bo'lsa, ijodimiz ham shuncha samimiy chiqadi. Soxtalik san'atda uzoqqa olib bormaydi. Tomoshabin aktyorning qalbidan chiqmagan hissiyotini baribir sezadi. Shu sabab aktyor nafaqat sahnada, balki hayotda ham o'z ustida ishlashi kerak deb o'ylayman. Chunki san'atkorning ichki madaniyati uning roliga ham aks etadi.

– Sizningcha, insonni sahnaga olib chiqadigan asosiy kuch — iste'dodmi yoki mehnat?

– Menimcha, sahnaga olib chiqadigan eng katta kuch — mehnat. Chunki iste'dodning o'zi yetarli emas. Men ko'p hollarda juda iste'dodli, lekin erinchoq odamlarning o'z ustida ishlamaganidan orqada qolganini ko'rganman. Aksincha, tinimsiz mehnat qiladigan inson asta-sekin katta natijaga erishadi.

Albatta, iste'dod ham muhim. Lekin iste'dod faqat boshlanish. Uni rivojlantirish uchun mehnat, intizom va sabr kerak bo'ladi. Agar insonda iste'dod ham, mehnat ham birlashsa — bu juda katta kuch. Menimcha, haqiqiy san'atkor aynan shu ikki narsaning uyg'unligidan shakllanadi. San'at esa erinchoqlikni hech qachon kechirmaydi. Chunki sahna hamma narsani ko'rsatadi — kim ishlaganini ham, kim ishlamaganini ham.



MILLIY TEATR YELKAMGA FAXRLI MAS'ULIYAT YUKLASIN

– Estrada aktyorligi yo'nalishining o'ziga xos jihatlari nimada deb o'ylaysiz?

– Estrada aktyorligi meni eng ko'p o'ziga tortgan yo'nalishlardan biri, chunki u aktyorni juda ko'p qirrali qilib tarbiyalaydi. Menimcha, mukammal inson bo'lmagani kabi mukammal aktyor ham birdaniga shakllanmaydi. Lekin estrada aktyorligi insonni imkon qadar har tomonlama rivojlantirishga harakat qiladi. Bu yo'nalishda aktyor faqat rol ijro etib qolmaydi, u qo'shiq aytadi, raqs tushadi, sahna nutqi ustida ishlaydi, tomoshabin bilan jonli muloqot qilishni o'rganadi. Ya'ni estrada aktyori bir vaqtning o'zida bir nechta san'at turini his qilishi kerak bo'ladi. Shu jihati bilan bu yo'nalish juda murakkab, lekin juda qiziq ham. Men uchun estrada hamma san'atning uyg'unlashgan nuqtasi.

– Siz tahsil olayotgan muhit savol va qiziqishlaringizga javob bera olyaptimi?

– Albatta. Lekin men bir narsaga ishonaman: inson avvalo o'zi izlanishi kerak. Ba'zan institutni bitirib ham “bizga hech narsa o'rgatishmadi”, deb noliydiganlarni ko'ramiz. Menimcha, bilim olish ko'p jihatdan insonning o'ziga bog'liq. Agar odamda qiziqish va chanqoqlik bo'lsa, u har qanday muhitdan o'zi uchun kerakli narsani oladi.

Men ta'lim olayotgan muhitdan juda ko'p narsa olyapman. Ayniqsa, ustozlarning tajribasi, sahna mashg'ulotlari, repetitsiyalar davomida aytiladigan oddiy bir fikrning o'zi ham aktyor uchun katta saboq bo'lishi mumkin. Bu yerda faqat aktyorlik emas, hayotga qarash ham shakllanadi. Menimcha, ijodkor doim o'rganishda davom etishi kerak.

– O'zbek Milliy akademik drama teatri sahnasiga chiqish siz uchun qanday mas'uliyat yuklaydi?

– Menimcha, hali 2-kurs talabaligimda mazkur teatr sahnasiga chiqish men uchun juda katta estafeta bo'lgan. Chunki bu oddiy sahna emas, bu katta tarixga, katta nomlarga ega muqaddas maskan. U yerga chiqqan inson o'zidan oldingi san'atkorlar darajasini his qiladi va ichida katta javobgarlik paydo bo'ladi. Milliy teatr aktyorni juda tez o'stirishi ham mumkin, aksincha bosimni ko'tara olmasa sindirishi ham mumkin. Shu sabab har bir so'z, har bir qadam, har bir harakatga professional yondashish kerak deb o'ylayman. Men uchun bu joy faqat ish emas, katta maktab. Milliy teatr yelkamga umr bo'yi faxrli mas'uliyat yuklasin deyman va uni oqlash uchun doim ishlashga tayyorman.

AKTYOR ROL BILAN ICHKI BOG'LIQLIK HIS QILSA, TOMOSHABINGA TABIIYROQ YETIB BORADI

– Rol ustida ishlash, ruhingizni obrazga bog'lash jarayoni qanday kechadi?

– Men uchun rol ustida ishlash avvalo asarni tushunishdan boshlanadi. Chunki aktyor qahramonni o'ynashdan oldin asarning ichiga kirishi kerak. Men syujetni, muallifning asosiy g'oyasini, kompozitsion qurilmani, asarning ruhiyatini tushunishga harakat qilaman. Shundan keyingina obraz ustida ishlash boshlanadi. Qahramonning ichki dunyosini his qilish men uchun juda muhim. U nimadan qo'rqadi, nimani orzu qiladi, qanday yashaydi – bularni bilmasdan turib obrazni tirik qilib bo'lmaydi. Menimcha, tushunib ijro etilgan rol bilan shunchaki yodlab o'ynalgan rolning farqi juda katta bo'ladi. Agar aktyor qahramonni ichidan his qilsa, tomoshabin ham uni his qiladi. San'atdagi eng katta kuch ham shu samimiyatda deb o'ylayman.





– Ijro etgan rollaringiz ichida ichki dunyoyingizga eng yaqin bo'lgani qaysi?

– “Turandot” obrazi menga juda yaqin. Chunki bu qahramonda tashqi sovuqqonlik bilan birga juda katta ichki kuch va murakkab ruhiyat yashiringan. Men obraz ustida ishlash davomida uning ichki olamiga tobora chuqurroq kirib bordim. Turandot oddiy qahramon emas — u qat'iyatli, mag'rur, sinovlardan o'tgan va o'zining ichki dunyosini hammaga ham ochib bermaydigan ayol. Shu jihatlari meni unga yaqinlashtirdi.

Ba'zi rollar aktyor uchun shunchaki ijro bo'lib qoladi, ayrimlari esa qalbingizga kirib qoladi. “Turandot” men uchun aynan shunday obrazlardan biri bo'ldi. U orqali men o'zimdagi ayrim xarakterlarni ham qayta kashf qildim. Menimcha, aktyor qaysidir rol bilan ichki bog'liqlik his qilsa, obraz ham tomoshabinga tabiiyroq yetib boradi.

– Zulfiya nomidagi davlat mukofoti va boshqa yutuqlaringiz sizni o'zgartirdimi?

– Albatta, har bir yutuq insonni ma'lum ma'noda o'zgartiradi. Chunki mukofot bu faqat quvonch emas, katta mas'uliyat hamdir. Ayniqsa, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti kabi e'tiroflar insonni yanada hushyor qiladi. Chunki odamlar sizdan bundan keyin ham kuchliroq natijalar kutishni boshlaydi.


Men uchun mukofotlar “endi yetdim” degan nuqta emas, aksincha yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi. Ular meni yanada ko'proq ishlashga, izlanishga va o'zimga bo'lgan talabni oshirishga undadi. Ba'zan insonni aynan muvaffaqiyat sinaydi deb o'ylayman. Chunki shu paytda to'xtab qolmaslik juda muhim. Men esa har bir yutuqdan keyin o'zimga: “endi bundan ham yaxshiroq ishlashing kerak”, deb aytaman.

– Muvaffaqiyat ortida ko'rinmaydigan qiyinchiliklar ham bo'ladi. Sizning yo'lingizdagi eng katta sinov nima bo'lgan?

– Dadamning yo'qligi... Menimcha, bu hayotimdagi eng katta sinovlardan biri bo'lgan. Chunki inson hayotida otaning o'rni juda katta. Ayrim yo'qotishlar haqida ko'p gapirish qiyin bo'ladi, lekin ular insonning ichki dunyosini o'zgartirib yuboradi.

Ba'zan og'riq insonni sindiradi, ba'zan esa kuchli qiladi. Men shu sinov orqali yanada bardoshli bo'lishni o'rgandim. Ichimdagi bo'shliqni orzularim, maqsadlarim va mehnatim bilan to'ldirishga harakat qilaman. Menimcha, insonning og'riqlari ham uni shakllantiradi. Balki sahnada ayrim hissiyotlarni chuqurroq his qilishimga ham hayotdagi shu sinovlar sabab bo'lgandir.

INSONNI AYNAN MUVAFFAQIYAT SINAYDI



– **Tanqidlarga munosabat-ingiz qanday?**

– Men professional va foydali tanqidlarni juda qadrlayman. Ayniqsa, ustozlardan, tajribali san'atkorlardan eshitilgan tanqid aktyor uchun katta maktab hisoblanadi. Chunki aktyor o'zini chetdan har doim ham to'g'ri baholay olmaydi. Ba'zan birgina tanbeh yoki kichik maslahat insonning butun ijrosini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Menimcha, tanqiddan qochish kerak emas. Aksincha, undan to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganish kerak. Chunki tanqid insonni o'stiradi, kamchiliklarini ko'rsatadi va yanada kuchliroq ishlashga undaydi. Albatta, har qanday fikrni yurakka yaqin olish ham to'g'ri emas, lekin professional ko'z bilan aytilgan gaplar aktyor uchun juda qimmatli.

– **Zamonaviy yosh aktrisa qanday bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?**

– Menimcha, zamonaviy aktrisa faqat chiroyli ko'rinish yoki kamera oldida erkin turish bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Bugungi davr aktyordan juda katta universallik talab qiladi. U qo'shiq ayta olishi, raqs tushishi, sahna nutqiga ega bo'lishi, psixologiyani tushunishi, kitob o'qishi, dunyoqarashi keng bo'lishi kerak. Chunki hozirgi tomoshabin oddiy ijroni emas, tirik va ishontira oladigan obrazni ko'rishni xohlaydi.

Bundan tashqari, aktrisa ichki madaniyatli bo'lishi kerak deb o'ylayman. Chunki san'atkorni odamlar faqat sahnada emas, hayotda ham kuzatadi. Uning muomalasi, fikrlashi, jamiyatdagi o'rni ham muhim. Menimcha, zamonaviy yosh aktrisa doim izlanishda bo'lishi, o'z ustida ishlashdan charchamasligi kerak. Sababi san'at bir joyda to'xtab turmaydi, u bilan birga o'smasangiz, ortda qolib ketasiz.



SHUNDAY ROLLAR BORKI, ULAR SENI HAM O'ZGARTIRADI

– **Siz uchun san'atning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?**

– San'at inson qalbiga ta'sir qila olishi bilan buyuk. Menimcha, uning eng katta vazifasi – odamni hayratlantirish, o'ylantirish va ruhiy jihatdan ergashtirish. Ba'zan bir spektakl yoki bir film insonning hayotga bo'lgan qarashini o'zgartirib yuborishi mumkin. San'at odamni tarbiyalaydi ham, lekin men hamma asarni faqat "tarbiyaviy" qilish kerak degan fikrga qo'shilmayman. Chunki san'at avvalo tabiiy va rost bo'lishi kerak.

Tomoshabin majburlab berilgan g'oyani emas, yurakdan chiqqan tuyg'uni qabul qiladi. Shuning uchun san'atkor jamiyatdagi muammolarni, inson ruhiyatini, zamon kayfiyatini rost ko'rsata olishi kerak. Men uchun haqiqiy san'at – odamni befarq qoldirmaydigan san'at.

– **O'zingizni toblashda qanday prinsipga amal qilasiz?**

– Men uchun eng katta prinsip – intizom. Chunki iste'dodning o'zi insonni uzoqqa olib bora olmaydi. Intizom bo'lmasa, hatto kuchli qobiliyat ham sekin-asta yo'qolib boradi. Aktyor doim o'z ustida ishlashi kerak: kuzatishi, mutolaa qilishi, mashq qilishi, o'rganishi kerak. Ba'zan insonda ilhom bo'lmasligi mumkin, kayfiyat tushishi mumkin, lekin intizom seni baribir oldinga yurishga majbur qiladi. Men ijodda ham, hayotda ham aynan shu narsaga tayanaman. Chunki katta natijalar birdaniga emas, har kuni qilingan kichik mehnatlar orqali keladi.

– Aktyor uchun badiiy kitob mutolaasi qay darajada zarur?

– Menimcha, aktyor uchun kitob suv va havodan zarur. Chunki aktyorning asosiy quroli uning ichki dunyosi, tasavvuri va tafakkuri hisoblanadi. Agar inson mutolaa qilmasa, uning fikrlashi torayib qoladi, obrazlarni tushunishi ham yuzaki bo'lib qoladi.

Kitob aktyorga inson ruhiyatini tushunishni o'rgatadi. Turli xarakterlar, davrlar, taqdirlar bilan yashash imkonini beradi. Masalan, biror qahramonni ijro qilayotganingizda sizga faqat tashqi harakat emas, uning ichki olamini his qilish ham kerak bo'ladi. Bunga esa mutolaa juda katta yordam beradi. Menimcha, kitob o'qimaydigan aktyorning o'sishi qiyin.

– Qaysi rol qachonlardir sizniki bo'lishini istardingiz?

– Men tarixiy va kuchli ruhiyatga ega ayol obrazlarini juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa Bibixonim va Janna Dark obrazlarini ijro etishni orzu qilaman. Chunki bu qahramonlarning ichki kuchi, jasorati va taqdiri meni o'ziga tortadi. Bunday obrazlar aktyordan nafaqat mahorat, balki katta ruhiy tayyorgarlik ham talab qiladi. Menimcha, aktyor ayrim rollarga vaqt o'tib, ichki jihatdan pishib yetilgandan keyingina tayyor bo'ladi. Shunday rollar borki, ular seni ham o'zgartiradi.



– Bugungi yosh qizlarga, ayniqsa, san'atga kirib kelmoqchi bo'lganlarga nima degan bo'lardingiz?

– Avvalo, fokusni professional rivojlanishga qaratish kerak deb aytardim. Chunki san'at juda qiyin va talabchan soha. Sahna – mardiy maydon, u hech narsani yashirmaydi va hech kimni ayamaydi. Agar inson mehnatdan gochsa, bu darrov bilinadi.

Hozir ko'pchilik tashqi ko'rinishga juda katta urg'u beradi. Albatta, chiroy ham muhimdir, lekin u vaqtinchalik. O'z ustida ishlash orqali yaratilgan mahorat esa yillar davomida faqat o'sadi. Shuning uchun yosh qizlar avvalo bilim olishdan, mutolaadan, mashq qilishdan va izlanishdan charchamasligi kerak. Eng muhimi esa – o'ziga ishonish. Chunki insonning eng katta tayanchi ham, eng katta to'sig'i ham o'zi bo'ladi.

TAYANCH HAM, TO'SIQ HAM INSONNING O'ZI



* * *

Suhbat davomida Nasiba Sodiqovanning fikrlarida bir jihat yaqqol sezildi – u san'atni shunchaki kasb emas, katta mas'uliyat va doimiy izlanish maydoni deb biladi. Uning teatr, kino va estrada yo'nalishlaridagi faoliyati, erishgan yutuqlari hamda sahnaga bo'lgan jiddiy munosabati yosh bo'lishiga qaramay ancha shakllangan ijodkor ekanini ko'rsatadi.

Ayniqsa, uning muvaffaqiyat ortida yashirgan qiyinchiliklarni ochiq tan olishi, mehnatni iste'doddan ustun qo'yishi va o'z ustida ishlashdan to'xtamaslik haqidagi qarashlari ko'plab yoshlar uchun motivatsiya bo'la oladi. Nasiba Sodiqova bugungi zamonaviy aktrisa nafaqat sahnada, balki hayotda ham kuchli, intizomli va maqsadli bo'lishi kerakligini o'z faoliyati bilan isbotlab kelmoqda.

Shubhasiz, oldiga aniq maqsad qo'ygan, san'atga sadoqat bilan yondashadigan bunday yosh ijodkorlarning kelajakda milliy teatr va kino san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shishiga ishonish mumkin.

Nozima ULUG'OVA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
2-bosqich magistranti

DONTSHMAND ASQAD MUXTOR

DEYDIKI...



Kichkina bir yaxshilik qilish uchun ham odam (balki buyuk odam) bo'lish kerak; katta yomonlik qilishga kichik odam ham qodir.



Shamol shamni o'chiradi. Shunga o'xshab, ayriqliq ham shunchaki xushtorlikni sovitishi mumkin, chin muhabbatni o't oldiradi.



Daholar o'z kasblari doirasidan chiqib ketadilar. Falonchi — shoir, falonchi — olim, ammo Navoiy — Navoiydir, Eynshteyn — Eynshteyn.



Mix bolg'adan qochib qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi.



Boy bo'lish uchun ko'p narsani qurbon qilish kerak: halovat, salomatlik, goho balki vijdonni ham... Yo'q, mening bunga qurbim kelmaydi, men unchalik badavlat emasman.



Hayot shunday ajoyib mo'jizaki, o'lim uning evaziga berilgan arzimas bojdir.



Ishlamagan tishlamaydi, derdi amaldor. O'zi esa hamon tishlardi. Chunki uning ishi shu.



Dehqon mehnati — hayotning ilohiy aqidasi.



Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil.



Yolg'onchining yolg'onchiligi — uning eng yengil gunohi.



Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan.



Qarilikdan qo'rqma, unga hali yetish kerak.



Shunday yillarni ko'rdikki, baxtli bo'lish uyat edi.



Fizikada oqibat sababga teng. Axloqda ham shunday.




“Vaqt o'tyapti!” deymiz sal hazinlik bilan. Bu gapni inson o'zini ovutish uchun o'ylab topgan. Aslida biz o'zimiz o'tyapmiz...

* * *

*Senga barmog'imni tegizmayman, Oy,
Senga nafasimni yetkazmayman, Gul,
Lekin osmonimdan ketkazmayman, Oy,
Ismingni birovga aytkazmayman, Gul.*

*O'zing tabibimsan, o'zing shifoyim,
O'zing og'rig'imsan, o'zga dardim yo'q.
O'zing gunohimsan, o'zing jazoyim,
Faqat jur'atim yo'q, faqat haddim yo'q...*

Iqbol MIRZO



Akmal NURning 2008-yilda ishlangan "Tamanno" kartinasi